




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI  
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI

# O'ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI



Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy  
JURNAL

2023 №2(9)



**O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan  
“O'zbekiston sud-ekspertizasi” ilmiy jurnali yuridik va  
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori  
(DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari  
asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsya etilgan ilmiy  
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.**

XALILOV A.U. Xorijiy mamlakat qonunchiligi amaliyoti asosida sud ekspertiza imkoniyatlарини takomillashtirish .....	2
TOBMACIYAN A.G. Некоторые особенности тестирования и идентификации способа изготовления альфа-пирролидин-опентиофенона.....	12
YULDASHEV T. Sud kompyuter texnikaviy ekspertizasi imkoniyatlari, soha yangiliklari.....	20
MARDIYEV A.B. O'zbekistonda odam DNKsi sud biologik ekspertizasining tashkil etilish tarixi (DNK ekspertizasi kecha va bugun).....	26
AHMEDDOVA R.K., PAK E.V. Возможности комплексного подхода в криминалистической экспертизе некоторых синтетических наркотических средств и их смесей.....	31
ESHMURATOV Sh.B. Sud-trasologik ekspertizasini rivojlantirish masalalari.....	37
NAJMIDDINOVA N.Y. “Haqorat” mazmunidagi matnlar bo'yicha lingvistik ekspertiza o'tkazish jarayoni.....	40
QOLQANOV N.T., BAZOROV M.M. “Raqamli sud ekspertiza” (digital forensics) dasturini amaliyotga joriy qilishning e'tibori jihatlari.....	45
NURALIEV B.A. “Hizb ut-tahrir” diniy ekstremistik tashkilotining sof islam g'oyalariga zid qarashlari.....	50
ISLOMOV B. O. Malayziya jinoyat qonunchiligidan jazoni yengillashtirish masalalari .....	56
FAYZULLAEV Sh.F. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida videokonferensaloqadan foydalanish afzalliklari.....	61
JO'RAYEV N.Q., ADELBEKOVA B. Mintaqaviy xavfsizlik va millatlar o'monosabatlari.....	66
OMONOV B. Siyosiy modernizatsiyada yuzaga keladigan inqirozlarning yechimlari.....	72
ULUG'OV A.H. Bag'rikenglik madaniyati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni .....	76
KARSHIYEV Sh.S. Yangi O'zbekistonda millatlararo monosabatlarni rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni.....	83
KUDRATOV S.M. G'OFURJONOV A.X. Muhrlar va shtamplarni tayyorlash, saqlash, ularidan foydalanish tartibi hamda himoya vositalariga qo'yildig'an talablar.....	87
ABDURASULOV O. Ijtimoiy monosabatlarni tartibga solishda oila institutining o'rni.....	93
O'zbek ayollaridan birinchi akademik Xadicha Sulaymonavaning hayoti, faoliyati va ilmiy merosi" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiysi.....	98

**Muassis:**

**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertiza markazi**

**Bosh muharrir:**

Akram XALILOV

**Bosh muharrir o'rbinbosari:**

Uchkun UZAKOV

**Mas'ul kotib:**  
Nuriddin QOLQANOV

**Tahrir hay'ati:**

Akbar TASHKULOV

Sherzod RABIYEV

Jamshidxon NURITDINOV

Istam ASTANOV

Narzulla JO'RAYEV

Odil MUSAYEV

Eshmuxamad KADIROV

Shuhrat RAXMANOV

Tolibjon ORZIYEV

Saidillaxodja SAIDXODJAYEV

O'ktam SHAKAROV

Nilufar XALILOVA

Nadejda KORABLYOVA

**Mas'ul muharrir:**

Husan NISHONOV

**Dizayner:**

Faxriddin RAHIMOV

**Sahifalovchi:**

Malohat TOSHOVA

“O'zbekiston sud ekspertizasi” huquqiy,  
ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnalni

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda  
1185-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Tahririyat manzili:**

100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani  
Farg'on'a yo'li ko'chasi.

Telefonlar:

(71) 209 11 55 (153 ichki), (93) 171 37 74

web-site: [www.sudex.uz](http://www.sudex.uz)

e-mail: [info@sudex.uz](mailto:info@sudex.uz)

[facebook.com/sudex.uz](https://facebook.com/sudex.uz)

[telegram.me/sudex.uz](https://telegram.me/sudex.uz)

Jurnal 8.08.2023 yilda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Ofset usulida bosildi.

Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

“Reliable Print” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

**ANNOTATSIYA**

Maqolada xorijiy mamlakat qonunchiligi amaliyoti asosida sud ekspertizasi imkoniyatlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Sud ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanish sohasida xalqaro huquqiy tajribani o‘rganish va amaliyotdan foydalanish, mamlakatimiz sud ekspertiza sohasining yanada samarali faoliyat olib borishiga asos bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** sud ekspertiza, xalqaro huquqiy tajriba, xalqaro fan va texnika yutuqlarini joriy etish, xalqaro hamkorlik.

**АННОТАЦИЯ**

В статье анализируются вопросы совершенствования возможностей судебной экспертизы на основе практики законодательства иностранного государства. Изучение международного правового опыта и использование практики в области использования возможностей судебной экспертизы станет основой более эффективной деятельности судебно-экспертной сферы нашей страны.

**Ключевые слова:** судебная экспертиза, международный юридический опыт, внедрение достижений мировой науки и техники, международное сотрудничество.

**ANNOTATION**

The article analyzes the issues of improving the capabilities of forensic examination based on the practice of the legislation of a foreign state. The study of international legal experience and the use of practice in the field of using the possibilities of forensic examination will become the basis for more effective activities of the forensic science sphere in our country.

**Key word:** forensic examination, international legal experience, implementation of the achievements of world science and technology, international cooperation.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi da sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6256-sod Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi da sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan konsepsiysi”da sud ekspertlarining xolisligi va mustaqilligini ta‘minlash, sohadagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirib borish; sud-ekspertlik amaliyotini kengaytirish hamda sud ekspertizalarining sifati va ishonchliligini oshirish; sud-ekspertlik faoliyatida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, shu jumladan uslubiyot va reglamentlarni takomillashtirish hamda sohaga fan va texnika yutuqlarini joriy etish; sud-ekspertlik faoliyatida kadrlar salohiyatini oshirish hamda sud ekspertlarini tayyorlashning samaralitizimini yaratish; nodavlat sud ekspertiza institutini rivojlantirish; sud-ekspertlik faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni ta‘minlash va rivojlantirish; sud-ekspertlik faoliyatining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash nazarda tutilgan.

Chunki, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida hal qilinadigan vazifalarga sud ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanish orqali ham erishiladi. Shu sababli, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida maxsus bilimlardan foydalanishni normativ-huquqiy tartibga solish nafaqat jinoyat protsessi, kriminalistika va sud ekspertizasi sohasidagi mutaxassislar uchun, balki tahlil qilinayotgan bosqichda huquqni qo‘llash amaliyoti ishtirokchilari uchun ham qiziqarlidir.

Hozirgi vaqtida jinoyatchilikning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bu uning xalqaro tabiatidir. Qo‘sni davlatlar o‘rtasidagi do‘stona va ishonchli munosabatlар, shuningdek, turli davlatlarning hududiy yaqinligi, chegaralarning ochiqligi va boshqa ko‘plab omillarni hisobga olgan holda, transmilliy va transchegaraviy

jinoyatlar sodir etish holatlari tobora ko‘proq kuzatilmoxda. Bunga O‘zbekiston Respublikasi ning geografik joylashuvining “tranzit” xususiyati ham ta’sir ko‘rsatadi, chunki g‘arbdan sharqqa va shimoldan janubga eng muhim savdo yo‘llari mamlakatimiz hududidan o‘tadi. Shu munosabat bilan jinoyatchilikka qarshi kurashishda sud ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanishni xalqaro huquqiy tartibga solish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda “O‘zbekiston Respublikasi Ukraina, Fransiya, Gruziya, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Slovakiya Respublikasi, Latviya Respublikasi, Litva Respublikasi, Turkmaniston, Qирг‘изистон Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Chexiya Respublikasi, Bolgariya Respublikasi, Hindiston Respublikasi va boshqa ko‘plab davlatlar bilan jinoyat ishlari bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi sharhnomalarni imzolagan”<sup>1</sup>. Biroq jinoyat-huquqiy sohadagi eng yaqin aloqalar Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga (keyingi o‘rinlarda MDH deb yuritiladi) a’zo davlatlar bilan rivojlangan.

1993-yil 22-yanvarda MDH oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam va fuqarolik, huquqiy munosabatlар to‘g‘risida Konvensiya (Minsk konvensiyasi) qabul qildi. Ushbu Konvensiyani O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 6-mayda ratifikatsiya qildi<sup>2</sup>. Shuningdek, 2002-yil 7-dekabrdagi fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlар to‘g‘risidagi Kishinyov Konvensiyasi (Kishinyov Konvensiyasi) qabul qilindi hamda O‘zbekiston bu Konvensiyaga qo‘sildi<sup>3</sup>. Mazkur Kishinyov Konvensiyasining 6-moddasi kelishuvchi tomonlar o‘rtasida ba‘zi tergov va boshqa protsessual harakatlarni (shu

<sup>1</sup> Baratov A.Sh. Xalqaro huquqiy yordam ko‘rsatishning tarixiy bosqichlari / Yurisprudensiya | Yurisprudence | Jurisprudence. №6 | 2022. – B.58-59.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 6-maydagi “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlар to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 26-avustardagi “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlар to‘g‘risidagi Konvensiya (Kishinyov, 2002-yil 7-oktabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘silishi haqida”gi O‘RQ-554-sod Qonuni / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazi, 26.08.2019-y., 03/19/554/3648-sod.

jumladan, maxsus bilimlardan foydalangan holda o‘tkazish, shuningdek, ekspertiza o‘tkazish va eksperni so‘roq qilishni o‘z ichiga olgan huquqiy yordam hajmini belgilab beradi. Ta’kidlash joizki, ushbu ro‘yxat to‘liq emas, chunki ushbu Konvensiyaning 6-moddasi 2-qismi asosida tomonlar muayyan holatlar, odil sudlov va umuman jamiyat manfaatlardan kelib chiqqan holda boshqa shakl va turlarda o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatishlari mumkin.

Sodir etilgan jinoyatning barcha holatlarini aniqlashning muhim sharti, ayniqsa ushbu ijtimoiy xavfli harakat xalqaro xarakterga ega bo‘lsa, xorijiy davlatning huquqni muhofaza qilish organlari topshirig‘iga muvofiq ekspertiza o‘tkazish imkoniyati ko‘rib chiqiladi. Agar tadqiqot obyektlari boshqa davlat hududida joylashgan bo‘lsa va ularni yuborish (jo‘natish, tashish) taqiqlangan yoki buning imkonи bo‘lmasa yoxud ularning buzilishiga, yo‘qolishiga olib kelishi mumkin bo‘lsa, ekspertiza tadqiqotlarini ushbu obyektlar joylashgan joyda o‘tkazish lozim bo‘ladi.

Shu bilan birga, Kishinyov Konvensiyasiiga qo‘shilgan davlatlar o‘zaro kelishayotgan tomonlarning maxsus ekspertiza, ilmiy-tadqiqot va boshqa vakolatli muassasalarida jinoiy ishlар bo‘yicha sud-ekspertizalarni tashkil etish va o‘tkazishda o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatadilar. Bunday sud-ekspertizalarni tashkil etish va o‘tkazishda sud ekspertiza muassasalari ichki qonun hujjaligiga amal qiladilar. Shuni yodda tutish kerakki, bunday hollarda, agar munosabatlar ishtirokchilari tomonidan boshqa tartib belgilanmagan bo‘lsa, sud-ekspertizalarini tashkil etish va o‘tkazish xarajatlari buyurtmachi tomonidan qoplanadi (Kishinyov Konvensiyasining 10-moddasi).

Ta’kidlash joizki, davlatlarning Minsk va Kishinyov Konvensiyalarida mustahkamlangan huquqiy yordam hajmi bo‘yicha kelishuvlariga qaramay, faqat qo‘zg‘atilgan jinoiy ishlар uchungina huquqiy yordam ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Ushbu holat konvensiyalarning nomlari ham, ularning mazmunida ham kuzatiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya Respublikasi va MDHning ba’zi boshqa davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligidagi jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar ekspertiza tayinlash nazarda tutilgan. Bu qoida nafaqat ekspertizani o‘tkazish, balki mutaxassisning protsessual hara-

katlar va tezkor-qidiruv tadbirlarida ishtirot etish imkoniyatiga ham tegishlidir.

Hozirgi vaqtدا MDHga a‘zo davlatlarning protsessual huquqida ayrim qarama-qarshiliklar, shuningdek, milliy va xalqaro huquq normalari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar ko‘rinishidagi ba’zi noaniq fikrlar mavjud. Bunga misol sifatida ekspertizalarni tayinlash tartibini keltirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq “Ish uchun ahamiyatli holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni fan, texnika, san’at yoki kasb sohasi bo‘yicha bilimi bo‘lgan shaxs o‘tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo‘lganda ekspertiza tayinlanadi”<sup>4</sup>. Yoki bo‘lmasa, “Ekspertiza tayinlash to‘g‘risida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi. ... Ekspertiza o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror yoki ajrim unga taalluqli shaxslar uchun majburiydir”<sup>5</sup>.

Agar sud ekspertizasini xorijiy davlat hudудida o‘tkazish zarur bo‘lsa, unda ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror qonuniy kuchga ega bo‘lmaydi, chunki tergovchining vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi hududi bilan cheklangan. U xorijiy davlat muassasasi yoki nodavlat tashkilotiga ekspertiza tayinlash huquqiga ega emas. Bunday holda, ekspertizani tayinlash to‘g‘risidagi qaror sifatida xalqaro huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi topshiriq maydonga chiqadi. Biroq, O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, “Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsnинг, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi sud ekspertizasini o‘tkazish asoslaridir”<sup>6</sup> hamda “Guvoх, jabrlanuvchi, guman qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchidan ushbu Kodeks normalari buzilgan holda olingen ko‘rsatuvlardan, ekspert xulosasidan, ashyoviy dalillardan, audio-,

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2021. 172-m. / <https://lex.uz/docs/111460#254256>.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2021. 180-m. / <https://lex.uz/docs/111460#254256>.

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-249-son Qonuni. – 17-m. / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son.

videoyozuvlardan va boshqa materiallardan dalil sifatida foydalanish taqiqlanadi”<sup>7</sup>.

O'zbekiston Respublikasidan kelib tushgan huquqiy yordam to‘g‘risidagi topshiriq asosida, yordam so‘rovchi tomonning vakolatli mansabdon shaxs tomonidan ekspertiza tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda masala biroz boshqacha hal qilinadi. Bunday holda, O'zbekiston Respublikasining yuqorida ta'kidlangan “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonuni va Jinoyat-protsessual kodeksi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi tegishli qarorida<sup>8</sup> belgilangan protsessual normalar to‘liq bajariladi.

Shu bilan birga, boshqa huquqiy hujjatlar normalari bilan ziddiyatlar yuzaga keladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining o‘n to‘rtinchisi bo‘limi “Jinoiy sud ishlarini yuritish sohasidagi xalqaro hamkorlik” deb nomlanadi. Xorijiy davlatlar bilan jinoyat-protsessual munosabatlarni tartibga solish uchun mo‘ljallangan ushbu bo‘limning nomi mazmuniga ko‘ra jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar maxsus bilimlar sohasida xorijiy davlatning huquqiy yordamidan foydalanish imkoniyatini inkor etadi. Ushbu holat tergovchini (sud, prokurator, surishtiruvchi) jinoyat tarkibining mayjudligini (yo‘qligini) aniqlash uchun sezilarli darajada cheklashi mumkin.

Sud ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanish sohasida xalqaro huquqiy yordam ko‘rsatishda yuzaga keladigan nomutanosibliklarning yana biri – an’anaviy kriminalistik ekspertizalarini o‘tkazishda tadqiqot metodikalarining nomufovifiqligi hisoblanadi. Misol tariqasida, tarkibiga Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Oliy sudi va Bosh prokuraturasining vakillari kirgan “Ekspertiza tadqiqotlari muammolari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi Federal idoralararo metodik kengash” tomonidan tasdiqlangan va Rossiya Federatsiyasining sud

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2021. 951-m. / <https://lex.uz/docs/111460#254256>.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagи “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 24-son qarori / <https://lex.uz/docs/3895986>.

ekspertiza muassasalarida foydalanish uchun tavsiya qilingan “Obyektning sovuq qurollar turkmiga mansubligini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar metodikasi”<sup>9</sup> deb nomlangan me'yoriy hujjatning tegishli qoidalarini keltirish mumkin.

Ushbu hujjatdagи qoidalar va normalar sud eksperti tomonidan obyektning sovuq qurolga mansubligi to‘g‘risida xulosa berishga asos bo‘ladigan belgilar ro‘yxatini belgilaydi. Xususan, pichoqni sovuq qurol sifatida tan olish uchun tig‘ining qalinligi kamida 2,6 mm bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida mavjud shu kabi metodikalarda sovuq qurol tig‘ining qalinligiga bu kabi talablar belgilanmagan, shuningdek, masalan, Belorussiya Respublikasida qabul qilingan “Obyektning sovuq qurollar turkmiga mansubligini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar metodikasi”<sup>10</sup> muvofiq pichoqning qalinligi kamida 2,4 mm bo‘lishi kerak. Yuqoridagilardan, tig‘ining qalinligi 2,5 mm bo‘lgan pichoq Rossiya Federatsiyasida sovuq qurol sifatida tan olimmaydi, shu bilan birga aynan bu pichoq Belorussiya Respublikasida (boshqa belgilar majmuasi mavjud bo‘lganda) sovuq qurol deb baholanishi kelib chiqadi.

Albatta, sud ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanish sohasida xalqaro huquqiy tartibga solishni to‘liq emas deb aytish noto‘g‘ridir. Hozirgi vaqtida bu masala biroz noaniq hamda uni takomillashtirish talab etiladi. Jinoyat protsessida sud ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanishni xalqaro huquqiy tartibga solishni takomillashtirish yo‘nalishlaridan biri bu – yuqorida ta'kidlangan Kishinyov konvensiyasiga tegishli qo‘sishchalar kiritish masalasidir. Shu sababli, ushbu maqolada jinoyat protsessining turli bosqichlarda, shu jumladan sud ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanishda xalqaro huquqiy yordam ko‘rsatish tartibini takomillashtirish masalasi ko‘tarilgan.

<sup>9</sup> Методика экспертного решения вопроса о принадлежности предмета к холодному оружию. / ЭКТс МВД России, РФТсСЕ МЮ РФ // Утверждена Федеральным межведомственным координационно-методическим советом 18 ноября 1998 года. Протокол №5.

<sup>10</sup> Методика экспертного решения вопроса о принадлежности предмета к клиновому холодному оружию. /Утверждена Межведомственным научно-методическим советом в области судебной экспертизы при Межведомственной комиссии по вопросам судебно-экспертной деятельности при Совете Безопасности Республики Белорусь. Протокол №4 от 12 марта 2008 г.

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlari xorijiy mamlakatlarning tegishli organlari bilan xalqaro normalar asosida hamkorlik qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi davlat ijroiya organi sifatida O'zbekiston nomidan idoralararo xalqaro shartnomalar tuzishga vakolatli. Bu bilan Ichki ishlar vazirligi o'z vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasining shartnomalar bo'yicha majburiyatlari bajarilishini va O'zbekistonning ushbu shartnomalardan kelib chiqadigan huquqlarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Huquqni muhofaza qilish organlarining o'zaro hamkorligi to'g'risida tegishli ikki tomonlama shartnomalar mavjudligiga qaramay, maxsus bilimlardan foydalanishning, tergovga qadar tekshiruvlar va jinoyat ishi qo'zg'atilgunicha bo'lgan davrda sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish, mutaxassisning jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar o'tkaziladigan tergov harakatlarida ishtirok etishi kabi eng keng tarqalgan shakllari xalqaro huquqiy hujjatlarda o'z qoidalarini topmagan. Chunki, MDHga a'zo ayrim davlatlarning Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat ishi qo'zg'atilgunicha aniqlab olingen dalillarning yuridik kuchi bo'yicha masala ochiq qolgan, jumladan "Xorijiy davlat hududida jinoyat ishi bo'yicha protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovni ijro etish davomida uning vakolatli organlari tomonidan olingen yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o'zarolik prinsipi asosida shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi so'rovga ilova qilinib, O'zbekiston Respublikasiga yuborilgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan va topshirilgan dalillar ushbu Kodeks talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida olingen dalillar singari yuridik kuchga ega bo'ladi"<sup>11</sup>.

Shu sababli, hozir ushbu muammoni hal qilish zarurati yuzaga keldi.

Fikrimizcha, ushbu muammoni hal qilishning yo'llaridan biri – *alohida (ayrim) tergov harakatlarini, shu jumladan mutaxassis ishtirokida o'tkazish imkoniyati to'g'risida, balki xalqaro so'rovga muvofiq xorijiy davlat hududida o'tkazilgan ekspertiza natijalarini jinoyat ishi bo'yicha dalil sifatida tan olish to'g'risidagi ikki tomonlama kelishuvlarga erishishdir.*

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2021. 594-m. / <https://lex.uz/docs/111460#254256>.

Bu kabi ikki tomonlama shartnomalar nafaqat jinoyat ishlari va materiallari bo'yicha faoliyatni optimallashtirishga, balki umuman huquqni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Albatta, bu har ikki tomonning (davlat) milliy jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish uchun zarur shart bo'ladi.

Yevropa Ittifoqining yetakchi mamlakatlarida o'ziga xos ekspertiza tizimi mavjud bo'lib, unga ko'ra, agar ushbu sohada sertifikatga ega bo'lgan boshqa mutaxassislar bo'lmasa, malaka sertifikatiga ega bo'lмаган shaxs sud jarayonida ishtirok etishi mumkin. Masalan, Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksining 157-moddasi ikkinchi xatboshisiga muvofiq, faqat istisno holatlarda sud, asosli qaror asosida sud eksperti maqomida ro'yxatdan o'tmagan shaxsni ekspert sifatida tayinlashi mumkin<sup>12</sup>.

Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksining 73-moddasi ikkinchi qismida, agar maxsus bilimlar sohasida xulosalar berishga vakolatli mutaxassislar mavjud bo'lsa, boshqa shaxslar sud tomonidan faqat maxsus holatlar talab qilgan taqdirda tayinlanishi mumkin (shunga o'xshash qida Germaniya Fuqarolik-protsessual kodeksining 404-moddasi ikkinchi qismida ham nazarda tutilgan)<sup>13</sup>.

Shuni ta'kidlash kerakki, Germaniyada fuqarolik protsessini amalga oshirish jarayonida Germaniya Fuqarolik-protsessual kodeksining 404-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, sud tomonlarga o'z xohishiga ko'ra ekspert tanlashni taklif qilishi mumkin. Agar tomonlar bu masalada yagona fikrga kelsalar, ushbu tanlangan shaxsni sud ekspertiza sifatida tayinlaydi. Biroq bu qida ayrim istisno qiluvchi holatlardagina qo'llaniladi<sup>14</sup>.

Sloveniya Jinoyat-protsessual kodeksining 249-moddasi to'rtinchi qismida sud ekspertlari

<sup>12</sup> The Code of Criminal Procedure of France [Elektronnyy resurs]. - Rejim dostupa: URL: <http://legislationline.org/download/action/download/id/1674/file/848f4569851e2ea7eabfb2ffcd70.htm/preview>.

<sup>13</sup> The German Code of Criminal Procedure [Elektronnyy resurs]. - Rejim dostupa: URL: [http://www.gesetze-im-internet.de/englisch\\_stpo/englisch\\_stpo.html](http://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stpo/englisch_stpo.html).

<sup>14</sup> Sven Timmerbeil The Role of expert witnesses in German and U.S. civil litigation [Elektronnyy resurs]. - Rejim dostupa: URL: <http://digitalcommons.law.ggu.edu/annlsurvey/vol9/iss1/8>.

reyestriga kiritilmagan ekspert sud tomonidan faqat ro'yxatdan o'tgan shaxs mavjud bo'lma-gan taqdirdagina, agar ekspertizani tayinlashda kechikish ishni ko'rib chiqish uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lsa yoki boshqa istisno holatlar mavjud bo'lsa, tayinlanishi mumkin degan qoida belgilangan<sup>15</sup>.

Yevropa davlatlarida maxsus bilimlardan foy-dalanish tizimida yana bir o'ziga xos xususiyat – maxsus bilimlarga ega shaxslar – mutaxassislar va sud ekspertlari hamjamiyatini boshqarish hamda ularning faoliyatini metodik ta'minlash masala-lari bo'yicha qonunchilikning mavjudligidir.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari nodavlat sud ekspertlari va xususiy ekspertlar o'z faoliyatini o'zini-o'zi boshqaruvchi tashkilotlar (uyushmalar) doirasida amalga oshiradilar, bu kabi uyushmalarni boshqalardan farqlashga asos maxsus bilimlar sohasining bir xilligi hisoblanadi.

Bu kabi uyushmalar *ochiq* (bitta tashkilot doirasida tegishli sertifikatga ega mutaxassislarni, ma'lum bir sohaning boshqa shaxslarini, shuningdek, o'z bilimlarini oshirishni istagan bar-cha shaxslarni birlashtirishga ruxsat beriladi) va *yopiq* (faqat tegishli sertifikatga ega mutaxassislar ishtirokiga ruxsat beriladi) turlarga tasniiflanishi mumkin. Ochiq uyushmalar Germaniya, Fransiya ekspertiza tizimiga (La Federation Fran-gaise des Experts en Evaluation)<sup>16</sup> xos, masalan, Niderlandiya uchun esa yopiq (Netherlands Register of Court Experts, NRGD)<sup>17</sup> uyushmalar xos hisoblanadi.

Germaniya va Fransiyada ekspertlarga o'z faoliyatini ochiq uyushmalar doirasida amalga oshirish imkoniyatini berish, fikrimizcha, Ger-maniya Jinoyat-protsessual kodeksining 73-mod-dasi bиринчи qismiga<sup>18</sup> muvofiq, ekspertizani tayinlash vakolatiga sud muhokamasi jarayoni-da mustaqil va ishning natijalaridan manfaat-dor bo'lмаган sud yagona subyekt ekanligi bi-lan bog'liq (shunga o'xhash qoida Fransiya

<sup>15</sup> Criminal Procedure Act of the Republic of Slovenia (2006) [Elektronny resurs]. - Rejim dostupa: URL: <http://legislationline.org/documents/section/criminal-codes>.

<sup>16</sup> La Federation Frangaise des Experts en Evaluation [Elektronny resurs]. - Rejim dostupa: URL: <http://www.ffee.fr>.

<sup>17</sup> Netherlands Register of Court Experts [Elektronny resurs]. - Rejim dostupa: URL: <http://www.nrgd.nl>.

<sup>18</sup> The German Code of Criminal Procedure.

Jinoyat-protsessual kodeksining 156-moddasida nazarda tutilgan<sup>19</sup>).

Yevropa Ittifoqi davlatlari uchun umumiyl tendensiya sud ekspertlarini bilim sohalari bo'yicha uyushmalarga birlashtirish hisoblanadi, shuningdek, oxirgi paytlarda butun Yevropa Ittifoqi mamlakatlari mutaxassislarini birlashtiruvchi uyushmalar tuzish masalasi muhokama qilinmoqda. Hozirgi vaqtida bunday xalqaro uyushmalar ixtiyoriy ravishda tuzilmoqda va faoliyat ko'rsatmoqda, masalan, The European Group of Valuers Associations<sup>20</sup>.

Jinoyat protsessida sud ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishda yana bir muhim masala – maxsus bilimlarga ega bo'lgan shaxs – sud ekspertining maqomi masalasiga e'tibor qaratildi. Ta'kidlash kerakki, dunyoning turli huquqiy tizimlarida ekspertning huquqiy maqomi turli-cha tartibga solinadi. Turli mamlakatlarda eks-pertning yoki mutaxassisning maqomi "guvoh", "o'ziga xos guvoh" toifalaridan to "aniq holatlar sudyasi", "ilmiy sudy" toifalarigacha bo'lishi mumkin. Masalan, AQSHda Federal isbotlov qoidalari (The Federal Rules of Evidence – FRE)<sup>21</sup>da "ekspert-guvoh" ("expert witness") tushunchasi nazarda tutilgan. Ya'ni, "ekspert guvoh" ekspert vazifasini bajaradigan guvohdir va uning fikri sud tomonidan dalil sifatida qabul qilinadi. "Ekspert guvoh"ning dalillari boshqa "ekspert guvoh"larning dalillari yoki boshqa ko'rsatuvlar, dalillar va holatlar bilan rad etilishi mumkin.

Polsha qonunchiligida "ekspert" yoki "sud ekspertizasi" tushunchalariga ta'rif berlimagan. Polshada ekspert shartli ravishda, tegishli qaror qabul qilish zarur bo'lganda sud yoki prokuror murojaat qiladigan "kasbiy bilimlarning tashqi vositasi" sifatida ko'rildi<sup>22</sup>.

"Polshada, jinoyat protsessida ekspert maqomini aks ettiruvchi to'rtta asosiy tushun-

<sup>19</sup> The Code of Criminal Procedure of France.

<sup>20</sup> The European Group of Valuers Associations [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: <http://www.tegova.org>.

<sup>21</sup> "Особливості судово-експертної діяльності в Україні та СІІА", Лакуста О.М., 2018 р., [https://dsum.edu.ua/upload/doc/konf\\_27.02.2018\\_3.pdf](https://dsum.edu.ua/upload/doc/konf_27.02.2018_3.pdf);

<sup>22</sup> "Процесуальний статус експерта у кримінальному провадженні: польський досвід", Дуфенюк О.М., Порівняльно-аналітичне право, [http://www.pap.in.ua/2\\_2017/50.pdf](http://www.pap.in.ua/2_2017/50.pdf);

cha mavjud: 1) “ilmiy sudy”; 2) “sud eksperti – sudyaning yordamchisi”; 3) “sud eksperti – guvoh”; 4) “sud eksperti – odil sudlovning mustaqil ishtirokchisi” tushunchalari<sup>23</sup>.

Ko'rinib turibdiki, sud eksperti va mutaxassisning malakasini aniqlash va baholash muammosi hozirgi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda. Masalan, AQSHda ham ekspert va mutaxassisning malakasini, huquqiy maqomini baholashning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, anglo-sakson huquqiy tizimiga kiruvchi ushbu davlatning huquqiy tizimidagi – sud pretsedentining mavjudligiga e'tibor qaratish lozim. Chunki sud pretsedenti qoidasi va Amerika shtatlariga berilgan qonunchilik tashabbusi vakolati bilan bog'liq bo'lgan qonunlarning to'liq tizimining mavjudligi huquqni qo'llash amaliyotini osonlashtiradi.

Ekspert xulosalari yoki mutaxassis fikrini, shuningdek, ekspertlarning malakalarini baholash masalasida AQSH anglo-sakson huquqi tizimining, tartibga solish, dalillar to'g'risidagi maxsus qonunlar (Federal Rules of Evidence – Federal dalillar qoidalari) orqali amalga oshiriladigan tamoyillariga amal qiladi. Dastlabki bosqichda (cheгарадан о'tish deb ataladigan), ekspertning vakolati va malakalari sudyu tomonidan baholanadi va tekshiruv natijalariga ko'ra<sup>24</sup> maxsus bilimlarga ega bo'lgan shaxsni ekspert sifatida tan olish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Dalillar to'g'risidagi federal qonunning 702-sonli qoidasiga muvofiq (Rule 702. Testimony by expert witness<sup>25</sup>) sudyu tomonlardan biring vakili bo'lgan shaxsning bilimi, mahorati, tajribasi, kasbiy tayyorgarligi yoki ma'lumotini o'rganadi hamda shu tariqa ushbu shaxs ekspert xulosa shaklida yoki boshqa yo'l bilan guvohlik bera oladimi (yo'qligini) hal qiladi.

Sudyaning ekspertning malakasini bahol-

<sup>23</sup> “Досвід Польщі стосовно участі судового експерта у кримінальному провадженні”, Дуфенюк О.М., Науковий вісник 15.02.2018р., [http://www2.lvduvs.edu.ua/documents\\_pdf/visnyky/nvsv/01\\_2018/30.pdf](http://www2.lvduvs.edu.ua/documents_pdf/visnyky/nvsv/01_2018/30.pdf);

<sup>24</sup> National Research Council. Strengthening Forensic Science in the United States: A Path Forward. Washington, DC: The National Academies Press, 2009. – 348 p. <https://doi.org/10.17226/12589>.

<sup>25</sup> Federal Rules of Evidence / Rule 702. Testimony by expert witness. [https://www.law.cornell.edu/rules/fre/rule\\_702](https://www.law.cornell.edu/rules/fre/rule_702) (дата обращения: 30.08.2019).

ashi jarayonida, ekspertning tugallanmagan oliy ma'lumotga ega bo'lmasdan tegishli bilim va tajribaga ega bo'lishi mumkinligi diqqatga sazovordir hamda natijada sudyu tomonidan bunday shaxs ushbu jarayonda ishtirok etish uchun ma'qullanadi<sup>26</sup>.

Mutaxassislar va ekspertlarning malakasini baholash yoki AQSH huquqshunoslarining fikricha, “dalilning og‘irligi”ni aniqlashning navbatdagi bosqichi hakamlar hay’ati tomonidan o’tkaliladigan baholash hisoblanali. Ular “ekspert dalillari”ni ishdagi boshqa dalillar bilan taqqoslash imkoniyatiga ega, shuningdek, bu jarayonda raqib – boshqa mutaxassis yoki sud eksperti ham ishtirok etishi mumkin. Sud jarayonida ekspert o‘z xulosasini og‘zaki yoki yozma ravishda taqdim etadi, bunda og‘zaki shaklda taqdimotlar iloji boricha sud va tomonlar uchun tushunarli va qulay uslubda berilishi kerak<sup>27</sup>.

Ko'rinib turibdiki, xorijiy davlatlar huquq tizimida ekspert va mutaxassislarning malakalariga alohida e'tibor qartiladi. Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 17-yanvardagi 4125-son qarorida<sup>28</sup> sud ekspertizasi sohasida qayta tayyorlash, malaka oshirish kurslarini tamomlagan shaxslarga ularning kasbiy layoqatini va sud ekspertlariga tegishli ixtisoslik bo'yicha qo'yiladigan malaka talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi sud eksperti sertifikati berilishi nazarda tutilgan.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi qonuni 3-moddasiga quyidagicha yangi band kiritilishi ushbu muammoni bartaraf etishning samarali vositasi bo'ldi: “sud ekspertining malakasi – ma'lum bir

<sup>26</sup> National Research Council. Strengthening Forensic Science in the United States: A Path Forward. Washington, DC: The National Academies Press, 2009. 348 p. <https://doi.org/10.17226/12589>. – P.16.

<sup>27</sup> Howes L.M., Kirkbride K.P., Kelty S.F., Julian R., Kemp N. Forensic scientists conclusions: How readable are they for non-scientist report-users? // Forensic Science International. 2013. Vol. 231. No. 1–3. P. 102–112. <https://doi.org/10.1016/j.forsciint.2013.04.026>

<sup>28</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4125-son qarori. / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.01.2019-y., 07/19/4125/2510-son; 24.02.2021 y., 06/21/6176/0156-son. // <https://lex.uz/docs/4172023>.

turdagi ekspertiza obyektlarini o'rganish uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tish orqali kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs tomonidan olin-gan nazariy bilim, amaliy ko'nikmalarning maj-muyi".

Chunki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 5-iyuldag'i PF-6256-son farmonining 10-bandida nodavlat sud ekspertlari ni attestatsiyadan o'tkazish hamda sud eksperti kasb etikasi qoidalarini belgilash va ularga rioya etilishi yuzasidan nazorat olib borish yuklangan. Yuqoridagi taklif bilan sud ekspertlari tomonidan kasb faoliyatidan kelib chiqadigan munosabatlarning xarakterini ta'minlash va ularning ma'lum bir qoidalar, ya'ni kasb etikasi asosida ish faoliyatini yuritishiga zamin yaratiladi.

Yuqoridagilardan tashqari, xorijiy mamlakat qonunchiligi amaliyoti asosida sud ekspertiza imkoniyatlarini takomillashtirish masalaridan yana biri – yo'l-transport hodisalari bo'yicha tayinlandigan trasologik ekspertizalarini o'tkazish bo'yicha xorij tajribasi ekanligiga amin bo'ldik.

Ta'kidlash joizki, ayrim xorijiy mamlakatlarda yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq sud ekspertizalarini o'tkazish faoliyatini tashkil etishni o'rganishning dolzarbli shundaki, tergov va sud-ekspertlik amaliyotida ushbu faoliyatga tegishli ko'plab kamchiliklar mavjud hamda ularni bartaraf etishda yo'l-transport hodisasidan qolgan izlar bo'yicha trasologik ekspertizalarini o'tkazish bo'yicha ijobi xorijiy tajriba va xorijiy mamlakatlarning politsiya va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan bu turdag'i ekspertizalarni o'tkazishning huquqiy tartibga solinishi masalalarini inobatga olish yaxshi samara beradi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining sud ekspertiza muassasalari va tashkilotlarida yo'l-transport hodisalari bo'yicha sud-trasologik ekspertizalarini o'tkazish uslubiyoti o'zaro deyarli bir xil. Masalan, Rossiya Federasiysi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston yoki Belarus Respublikasida bu kabi ekspertizalar, A.M. Kriviskiyning ta'kidlashicha, "transport vositalarining bir-birini erkin sharoitlarda va doimiy tezlikda, tezlanish olish va tormozlanish bilan quvib o'tishi bilan sodir bo'lgan yo'l-transport hodisalarining tadqiqotlari, chegaralangan ko'rish

va tungi vaqtarda sodir bo'lgan yo'l-transport hodisasining tadqiqotlari"<sup>29</sup> doirasida o'tkaziladi.

Yo'l-transport hodisalari bo'yicha trasologik ekspertizalar uslubiyoti Belarus Respublikasida yaxshi rivojlangan. Belarus Respublikasi Davlat sud ekspertiza qo'mitasi markaziy apparati va uning barcha hududiy bo'limlari hamda tuzilmalarida bu turdag'i taqiqotlar Respublikamiz sud ekspertiza muassasalaridagi kabi kompleks ekspertizalar yoki aynan trasologik ekspertiza doirasida o'tkaziladi. Mazkur Qo'mitaning "Ilmiy-amaliy markazi" mutaxassislarining ta'kidlashicha: ekspertiza vazifalarini hal qilish uchun zarur bo'lgan axborot va ma'lumotlarning moddiy manbalari "trasologik ekspertizasining obyektlari bo'lib hisoblanadi.

Qozog'iston Respublikasida yo'l-transport hodisalari natijasida qolgan izlarning trasologik tadqiqotlari Respublikamiz sud ekspertiza muassasalaridagi kabi kompleks ekspertizalar doirasida yoki aynan trasologik ekspertiza doirasida o'tkaziladi. "1997-yilda markazlashtirilgan xizmat shaklida, Qozog'iston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertiza markazi tashkil etilganidan so'ng, bu sud ekspertiza muassasida o'tkaziladigan sud ekspertizalari turi yana ham ortib ketdi"<sup>30</sup>.

Ta'kidlash joizki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida yo'l-transport hodisasi mexanizmini matematik uslublar bilan tadqiq etish ekspertizasi, transport vositasining texnik holati ekspertizasi, sud transport-trasologik ekspertizasi, transportni baholash ekspertizalari va avtomobil-yo'llar ekspertizasi kabi ekspertiza turlari yaxshi rivojlangan. Bu turdag'i ekspertizalar davlat sud ekspertizalari hamda nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarida, yo'l-transport hodisalari natijasida qolgan izlarning trasologik

<sup>29</sup> Информационное письмо: подготовка и назначение комплексной экспертизы при расследовании дорожно-транспортного происшествия: для следователей, судей и экспертов / А.М.Кривицкий и др.; НПЦ Гос. ком. судеб. экспертиз Респ. Беларусь. – Минск, 2017. – С.9.

<sup>30</sup> Парамонова Л.Ф. Становление и развитие новых родов и видов судебной экспертизы в Республике Казахстан // Судебная экспертиза: Российский и международный опыт: материалы II Международной научно-практической конференции., г.Волгоград, 21-22 мая 2014 г. – Волгоград: ВА МВД России, 2014. – С.503.

tadqiqoti asosan kompleks ekspertizalar doirasi-da o‘tkaziladi. Piyodalarni urib yuborish bilan bog‘liq ishlarda, transport vositasining texnik holati bilan bog‘liq masalalar avtotexnikaviy ekspertiza, transport vositalarining texnik holati bo‘yicha ekspertiza, transport-trasologik eksper-tizalari yordamida aniqlansa, transport vositasi va jabrланuvchining kiyimlaridagi trasologik izlar sud-trasologik ekspertizasi yordamida tadqiq eti-ladi.

Amerika Qo‘shma Shtatlariда yo‘l-transport hodisasidan qolgan izlar bo‘yicha trasologik eks-pertizalar federal va hududiy darajalardagi sud ekspertiza muassasalari, shuningdek, nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Buyuk Britaniyada esa yo‘l-transport hodisa-sidan qolgan izlar bo‘yicha trasologik eks-pertizalar shahar politsiyasi va hudud (graflik) sheriflari huzuridagi sud ekspertiza muassasalari hamda nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari da-rajasida amalga oshiriladi. Sud ekspertlik faoli-yatining bu tarzda tashkil etilishi o‘ziga xos tak-tik-kriminalistik xususiyatlarga ega.

Finlandiya, Norvegiya va Shvetsiya kabi davlatlarda, yo‘l-transport hodisa-sidan qolgan izlar bo‘yicha trasologik eks-pertizalarni o‘tkazish aynan sud ekspertlari tomonidangina amalga oshiriladi<sup>31</sup>. Jumladan, Shvetsiyada yo‘l-transport hodisasi bo‘yicha tergov yoki tergovga qadar tekshiruvlarni olib boruvchi shaxs (tergovchi, surishtiruvchi), bu jarayonga yo‘l-transport hodisasidan qolgan izlar bo‘yicha trasologik ekspertizalar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislarini (sud ekspertlarini) jalb qilish imkoniyati hamda huquqiga ega, bunda sud ekspertlari belgilangan tartibda ekspert xulosasini taqdim qilishlari belgilab qo‘ylgan hamda ekspert xulosasi dalil sifatida e’tirof etiladi.

Hozirgi kunda **Xitoy Xalq Respublikasida** 1983-yilda tashkil etilgan Xitoy Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertiza ilmiy-tadqiqot instituti-da sud trasologik ekspertizalarining barcha turlari o‘tkaziladi. “Institut har yili jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha hamda ma’muriy sud ishlarini yu-ritish tartibida 1000 ga yaqin sud ekspertizalarini xalqaro standartlar talablariga mos tarzda o‘tka-zadi, shuningdek, 2003-yildan boshlab, sud eks-

pertlarini tayyorlash va malakasini oshirish mar-kazi hisoblanadi”<sup>32</sup>.

Armanistonda yo‘l-transport hodisasidan qolgan izlar bo‘yicha trasologik ekspertizalarni, umuman sud ekspertizalarini o‘tkazish faoliyatni O‘zbekiston Respublikasi bilan bir xil, ya’ni, bu turdagи trasologik ekspertizalar asosan Ichki ishlar vazirligi hamda Adliya vazirligi tasarrufidagi sud ekspertiza muassasalari tomonidan amalga oshiriladi<sup>33</sup>.

Avstriya, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Veng-riya, GFR, Isroil, Misr, Ispaniya, Italiya, Kana-da, Xitoy, Turkiya, Fransiya, Shvetsiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlarda yo‘l-trans-port hodisalarini tergov qilishda sud-trasologik, sud-avtotexnikaviy va boshqa turdagи sud eksper-tiza bo‘yicha mutaxassislarini jalb qilishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu mutaxassislar kriminalistik texnika va innovatsion texnologiyalarning rivoj-lanish darajasi bilan bog‘liq o‘z milliy xususiyat-lariga ega<sup>34</sup>.

Osiyo va Afrika davlatlarida esa yo‘l-transport hodisasidan qolgan izlar bo‘yicha trasologik ekspertizalarni o‘tkazish masalalari o‘ziga xos xususiyatga ega. Masalan, Yaponiyada politsiya tarkibidagi va nodavlat sud ekspertiza muassasalari tomonidan yo‘l-transport hodisasidan qolgan izlar bo‘yicha trasologik ekspertizalarni, umuman sud ekspertizalarini o‘tkazish faoliyatida innovatsion kompyuter texnologiyalari yutuqlaridan keng foydalaniladi<sup>35</sup>.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari sud ekspertiza muassasalarida yo‘l-transport hodisalarini bo‘yicha trasologik ekspertizalarni o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyati sifatida – bu turdagи ekspertizalarni o‘tkazishda **naturali tad-qiqotlar** uslublaridan keng foydalanilishini xulosa o‘rnida ta‘kidlash mumkin. Bu uslubdan asosan yo‘l-transport hodisasining mexanizmini o‘rga-

<sup>32</sup> Краткая справка о НТИСЭ при Минюсте Китая / “Теория и практика судебной экспертизы” №1 (9). Март, 2008. – С.300.

<sup>33</sup> Саркисян А.Г. Организация взаимодействия войск полиции с органами полиции Республики Армения: Автореф. дисс. ...канд. юрид. наук. – М, 2008. – С.45.

<sup>34</sup> Xusanov A.D. Yo‘l-transport hodisalarini qayd etishning kriminalistik ta’mintoni takomillashtirish: Yurid.fan.bo‘yicha fal-a d-ri (PhD) dis. avtoref. – T., 2020. – B.19.

<sup>35</sup> Crime Scene Investigation A Guide for Law Enforcement September 2013.

<sup>31</sup> <https://www.ilea.hu/ru/>.

nishda foydalaniлади. Naturali tadqiqotlar uslubi yo‘l-transport hodisasi oqibatida yetkazilgan tan jarohatlarining darajasini avto-mototransport vositasining urilish vaqtida tezligini hisobga olgan holda aniqlashga imkon yaratadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sstligi davlatlari va boshqa mamlakatlardan farqli ravishda Yaponiya, AQSH, Fransiya, Shvetsiya, Germaniya, Litva Respublikasi, Buyuk Britaniya, Gollandiya va Italiya kabi mam-

lakatlarda yo‘l-transport hodisalarini natijasida hosil bo‘lgan izlarning sud-trasologik eksperitizalarini o‘tkazishda, an’anaviy kriminalistik uslublar bilan birga, *eksperiment uslubi* keng qo‘llaniladi. Bunda maxsus laboratoriyalar yoki kriminalistik poligonlarda turli transport vositalari va manekenlar yordamida yo‘l-transport hodisasining aniq bo‘lib o‘tgan (real) sharoitlari hosil qilinadi (modellashtiriladi).

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagagi “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6256-son farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4125-son qarori. / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.01.2019 y., 07/19/4125/2510-son; 24.02.2021-y., 06/21/6176/0156-son. // <https://lex.uz/docs/4172023>.

3. Baratov A.Sh. Xalqaro huquqiy yordam ko‘rsatishning tarixiy bosqichlari / Yurisprudensiya | Jurisprudence. '16 | 2022. – B.58-59.

4. Парамонова Л.Ф.Становление и развитие новых родов и видов судебной экспертизы в Республике Казахстан // Судебная экспертиза: Российский и международный опыт: материалы II Международной научно-практической конференции., г.Волгоград, 21-22 мая 2014г. – Волгоград: ВА МВД России, 2014. – С.503.

5. Саркисян А.Г. Организация взаимодействия войск полиции с органами полиции Республики Армения: Автореф. дисс. ...канд. юрид. наук. – М, 2008. – С.45.

6. Xusanov A.D. Yo‘l-transport hodisalarini qayd etishning kriminalistik ta’mintonini takomillashtirish: Yurid.fan.bo‘yicha fal-a d-ri (PhD) dis. avtoref. – T., 2020. – B.19.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-249-son Qonuni. – 17-m. / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2021. 951-m. / <https://lex.uz/docs/111460#254256>.

## АННОТАЦИЯ

# НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕСТИРОВАНИЯ И ИДЕНТИФИКАЦИИ СПОСОБА ИЗГОТОВЛЕНИЯ АЛЬФА-ПИРРОЛИДИН- ОПЕНТИОФЕНОНА

**ТОВМАСЯН**  
*Анна Гегамовна,  
 начальник отдела  
 материаловедческих экспертиз  
 “Национального бюро экспертиз”  
 Национальной академии наук  
 Республики Армения*

В статье предпринята попытка на примере альфа-пирролидинопентиофенона раскрыть методические подходы по исследованию качественных и количественных показателей наркотических средств синтетического происхождения. Выделяются и описываются характерные особенности классификации наркотических средств по способу изготовления. Основное содержание исследования составляет анализ вещественных улик со следами и остатками масс средств, похожих на наркотические, снятых с поверхностей предметов-носителей. Обосновывается идея о том, что наличие в готовом наркотическом средстве любых, кроме самого наркотического активного компонента, химических соединений, отнесённых к исходным соединениям, используемым в процессе синтеза наркотического средства, а также промежуточных продуктов многостадийного синтеза, могут лежать в обоснование изготовления наркотического средства кустарным способом.

**Ключевые слова:** судебно-материаловедческая экспертиза, наркотическое средство, альфа-пирролидинопентиофенон, газовая хроматография с масс-спектроскопическим детектированием, заводская и кустарная технологии изготовления.

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada alfa-pirolidinopentiofenon misolidan foydalanib, sintetik kelib chiqadigan dori vositalarining sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarini o‘rganishga uslubiy yondashuvlarni ochib berishga harakat qilindi. Giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish usuliga ko‘ra tasniflashning xarakterli xususiyatlari ajratib ko‘rsatilgan va tavsiflangan. Tadqiqotning asosiy mazmuni obyektlar – tashuvchilar sirtidan olib tashlangan giyohvandlik vositalariga o‘xshash massalarning izlari va qoldiqlari bo‘lgan ashyoviy dalillarni tahlil qilishdir. Giyohvandlik ta’sir etuvchi komponentidan tashqari har qanday tayyor giyohvandlik vositasida giyohvandlik vositasini sintez qilish jarayonida qo‘llaniladigan boshlang‘ich birikmalar sifatida tasniflangan kimyoviy birikmalar, shuningdek, ko‘p bosqichli

sintezning oraliq mahsulotlari mavjudligi asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** sud-materialshunoslik ekspertizasi, giyohvandlik vositasi, alfa-pirolidinopentiofenon, massa spektroskopik aniqlash bilan gaz xromatografiyasi, zavod va hunarmandchilik ishlab chiqarish texnologiyalari.

## ANNOTATION

In this article an attempt is made to reveal methodological approaches to the study of qualitative and quantitative indicators of narcotic drugs of synthetic origin on the example of alpha-pyrrolidinopentiophenone. The characteristic features of the classification of narcotic drugs by the method of manufacture are highlighted and described. The main content of the study is the analysis of physical evidence with traces and residues of masses similar to narcotic drugs removed from the surfaces of objects - carriers. The idea that the presence in the finished narcotic drug of any, except for the drug active component itself, chemical compounds attributed to the initial compounds used in the synthesis of narcotic drugs, as well as intermediate products of multistage synthesis can support the manufacture of narcotic drugs by artisanal method is substantiated.

**Key words:** forensic-material examination, narcotic drug, alpha-pyrrolidinopentiophenone, gas chromatography with mass spectroscopic detection, factory and artisanal manufacturing technologies.

Наметившаяся в последние годы тенденция по увеличению незаконного оборота наркотиков и связанное с ним постоянное совершенствование механизмов преступной деятельности в этой сфере объективно вызывают необходимость в совершенствовании деятельности правоохранительных органов по противодействию распространению наркотиков, в том числе в усилении взаимодействия со структурами, выполняющими судебные экспертизы и экспертные исследования.


Так, анализ судебно-экспертной практики "Национального бюро экспертиз" Национальной академии наук Республики Армения (далее – НБЭ НАН РА) свидетельствует о том, что довольно часто возникает необходимость в рамках судебно-материаловедческой экспертизы в досудебном и судебном производстве определять является ли изъятое и представленное на химическую экспертизу вещество наркотическим средством и/или изготовлено ли наркотическое средство промышленным способом – по стандартизированному описанию процесса изготовления наркотика, а именно, по утверждённому производственному регламенту. Выявление технологии/способа изготовления наркотических средств имеет большое значение для органа, осуществляющего следственные действия, так как наркотические средства, изготовленные не по стандартизированному описанию процесса изготовления наркотиков либо осуществленные с теми или иными отклонениями, являются отягчающим обстоятельством и наказание, подлежащее применению за совершение данного деяния, предусмотрено в другой статье Уголовного кодекса Республики Армения.

Вследствие этого, в отделе материаловедческих экспертиз НБЭ НАН РА одновременно

с практической составляющей производства экспертиз осуществляются научные исследования качественных и количественных показателей наркотических средств синтетического происхождения, в частности в настоящей статье речь пойдет как о находящемся в последнее время в широком обращении в Республике Армения (РА) наркотическом средстве альфа-пирролидинопентиофеноне ( $\alpha$ -PVP), так и об исходных веществах его синтеза.

Не менее важны исследования, относящиеся к сбору и анализу данных с их последующей интерпретацией, на предмет выбора критериев оценки, позволяющие внести ясность в классификацию наркотических средств по способу изготовления, в частности, изготовлены ли наркотические средства кустарным способом или по стандартизированному описанию наркотика, по методикам с установленными нормами выхода и физико-химическими параметрами.

Ниже вкратце приведем наиболее значимую информацию об исследуемом синтетическом психостимуляторе.  $\alpha$ -PVP в виде гидрохлорида высокой степени очистки представляет собой белый кристаллический порошок, имеющий химическую структурную формулу, приведенную на рисунке 1.




**Рис. 1.** Химическая структурная формула  $\alpha$ -PVP.

Регистрационный номер по классификации CAS – 14530-33-7. Из физико-термических характеристик следует выделить следующие: молекулярная масса – 231,162 г/моль, плотность –  $1,031 \pm 0,06$  г/см<sup>3</sup>, температура кипения -173°C. Химическая формула – C15H21NO. Наркотик относится к токсичным препаратам, т.к. вызывает побочные эффекты уже после первого приема. Вещество впервые было синтезировано учеными немецкой фармацевтической компании “Boehringer Ingelheim” в 1960 году, а в начале 2000-х препарат начали использовать в рекреационных целях в США и Японии. Вместе с тем при нелегальном производстве  $\alpha$ -PVP последний рассматривался, как правило, как вещество, включенное в список запрещенных наркотических соединений. Классический метод синтеза включает  $\alpha$ -галогенирование прекурсора валерофенона бромом с образованием 2-бром-1-фенилпентан-1-она, с последующей реакцией с пирролидином и получением на выходе рацемата –  $\alpha$ -PVP. Согласно статьям 3 и 4 Закона Республики Армения «О наркотических средствах и психотропных веществах»  $\alpha$ -PVP включен в соответствующее приложение № 1 к постановлению правительства РА № 707-Н от 27 июня 2018 года, регламентирующее малые размеры наркотических средств и психотропных веществ.

Результативную составляющую исследований, выполненных в отделе материаловедческих экспертиз НБЭ НАН РА, касательно качественных и количественных характеристик  $\alpha$ -PVP, исходных и/или промежуточных веществ его синтеза, а также идентификации способа изготовления конечного синтетического психостимулятора для большей наглядности проиллюстрируем на примере из судебно-экспертной практики отдела.

В связи с участвовавшимися в последние годы случаями судебных экспертиз незаконного оборота наркотиков типа  $\alpha$ -PVP в рамках расследования уголовного дела, находящегося в производстве, на стадии следственных действий в отдел материаловедческих экспертиз НБЭ НАН РА на экспертное исследование были представлены собранные вещественные улики, относящиеся к возможной деятельности “лаборатории” по синтезу  $\alpha$ -PVP. Так, в рамках этого уголовного

производства следственными органами были обнаружены и представлены для производства судебной экспертизы различные ёмкости с растворами, лабораторные колбы и стаканы, воронки, электронные весы, механические мешалки с видимыми следами и остатками масс, похожих на наркотические средства. Некоторые из представленных на экспертное исследование источников доказательства приведены на рисунках 2-9.



**Рис. 2.** Стеклянная коническая плоскодонная колба с массой красновато-серого оттенка.



**Рис. 3.** Стеклянная круглодонная колба с массой желтовато-красного оттенка.



**Рис.4.** Стеклянная круглодонная колба с массой красновато-серого оттенка.



**Рис. 5.** Плоскодонный лабораторный мерный стакан с массой желтово-бело-серого оттенка.



**Рис. 6.** Делительная воронка с массой красновато-серого оттенка и конические мерные стаканы с незначительными следами беловато-серого оттенка.



**Рис. 7.** Пластмассовая воронка с незначительными следами беловато-серого оттенка.



**Рис. 8.** Мешалка верхнеприводная со следами красновато-серого оттенка.



**Рис. 9.** Настольные электронные весы.

В процессе материаловедческой экспертизы необходимо было выяснить, можно ли представлена на судебно-экспертные исследования химические материалы, а также просматриваемые следы и остатки химических продуктов на поверхностях предъявленных предметов идентифицировать как наркотические средства, изготовление которых не предусмотрено в рамках правомерного оборота наркотиков, психотропных (психоактивных) веществ и их прекурсоров. В рассматриваемом деле принципиальное значение имело также определение факта изготовления наркотического средства лабораторным способом, а именно, было ли представленное на исследование лабораторное оборудование использовано для изготовления синтетического наркотика  $\alpha$ -PVP.

В процессе изучения представленных на судебно-экспертное исследование вышеуперечисленных вещественных улик были использованы метанол фирмы AppliChem GmbH (Германия), этанол и хлороформ фирмы Roth GmbH (Германия). При определении  $\alpha$ -PVP руководствовались качественными и количественными характеристиками, заложенными в технические условия на  $\alpha$ -PVP, изготавливаемый заводским способом, а именно, при помощи промышленного оборудования и с использованием промышленной технологии. Спектры исследуемых объектов в рамках производимой судебно-материаловедческой экспертизы были сняты с использованием метода газовой хроматографии с масс-спектроскопическим детектированием (ГХ-МС). Данный метод был реализован с помощью газового хроматографа модели GC-7890A и масс-спектрометра модели MSD-5975C фирмы Agilent Technologies.

Рабочие параметры газового хроматографа модели GC-7890A:

- \* капиллярная колонка HP-5ms с фазой (5% фенил) метилполисилоксана (30м x 0,25 мм);
- \* газ-носитель – гелий газообразный;
- \* температура испарителя – 280°C;
- \* температура термостатной камеры – 100°C -300°C (40°C/мин.);
- \* объем вводимого образца – 1мкл;
- \* режим впрыска образца – “split”.

Рабочие параметры масс-спектрометра модели MSD-5975C:

- \* температура квадруполя – 150°C;
- \* температура источника ионов – 230°C.

С целью обеспечения безошибочной идентификации исследуемых образцов были использованы обновлённые версии спектральных библиотек ГХ-МС: Cayman Spectral Library (CSL), SWGDRUG Mass spectral library, Spectral Database for organic compounds (SDBS), Retention time locking for Agilent GC (RLT Agilent), The NIST/EPA/MSDC Mass Spectra Database.

Для выполнения материаловедческих идентификационных исследований, связанных как с обнаружением и последующим изучением состава изъятых материальных следов с поверхностей лабораторного оборудования на предмет наличия наркотических или психотропных (психоактивных) компонентов, а также химических соединений, являющихся промежуточными веществами их синтеза, так и массами, похожими на наркотические средства, в этом уголовном деле, из усредненных проб были приготовлены их метанольные, этанольные, хлороформные растворы. Кроме того, в рамках уголовного дела необходимо было выявить источник и состав микрочастиц и микроследов в наложениях на поверхностях предметов-носителей с определением составляющих компонентов, предположительно использованных для получения  $\alpha$ -PVP. В результате спектрального анализа по определению химического состава представленных на судебно-материаловедческую экспертизу объектов были записаны хроматограммы, позволявшие установить, что:

в неоднородной массе красновато-серого оттенка с включениями кристаллоподобных микрочастиц, обнаруженой и изъятой со дна и стенок стеклянной конической плоскодонной колбы (см. рис.2), посредством идентификации химических соединений с использованием газовой хроматографии, совмещенной с масс-спектрометрическим детектированием (ГХ-МС), путём поиска и сравнения извлеченных масс-спектров пиков индивидуальных химических соединений с библиотечными и временами удерживания идентифицированы входящие в подготовленные к анализу пробы

химические соединения: вещество, которое можно отнести к категории катинонов, идентифицируемое как синтетический наркотик  $\alpha$ -PVP (CAS N0. 14530-33-7), а также сложные органические соединения – бензойная кислота (CAS N0. 65-85-0), N-бутаноилпирролидин (CAS N0. 33527-93-4), 1-фенил-1-пропанол (CAS N0. 93-54-9), 1-бензоилпирролидин (CAS N0. 3389-54-6), пирролидин (CAS N0. 123-75-1), 4'-метокси-альфа-пирролидинопентиофенон (CAS N0. 14979-97-6), катинон (CAS N0.71031-15-7);

в массе желтовато-красного оттенка с включениями кристаллоподобных микрочастиц, обнаруженой и изъятой со дна и стенок стеклянной круглодонной колбы (см. рис.3), аналогичным способом, как и в предыдущем случае, идентифицированы входящие в подготовленные к анализу пробы химические соединения: вещество, которое можно отнести к категории катинонов, идентифицируемое как синтетический наркотик  $\alpha$ -PVP (CAS N0. 14530-33-7), а также сложные органические соединения – бензойная кислота (CAS N0. 65-85-0), N-бутаноилпирролидин (CAS N0. 33527-93-4), ацетофенон (CAS N0. 98-86-2), 1-бензоилпирролидин (CAS N0. 3389-54-6), пирролидин (CAS N0. 123-75-1), 2-бром-1-фенил-1-пропанол (PubChem CID 12721600), 2-хлор-1-фенилбутан-1-он (CAS N0. 14313-57-6), катинон (CAS N0.71031-15-7);

в массе красновато-серого оттенка, обнаруженой и изъятой со дна и стенок стеклянной круглодонной колбы (см. рис.4), аналогичным способом, как и в предыдущих случаях, идентифицированы входящие в подготовленные к анализу пробы сложные органические соединения – бензойная кислота (CAS N0. 65-85-0), N-бутаноилпирролидин (CAS N0. 33527-93-4), 1-бензоилпирролидин (CAS N0. 3389-54-6), 2-хлор-1-фенилбутан-1-он (CAS N0. 14313-57-6);

в массе желтовато-белого оттенка, обнаруженой и изъятой со дна и стенок лабораторного плоскодонного стакана (см. рис.5), аналогичным способом, как и в предыдущих случаях, идентифицировано вещество, которое можно отнести к синтетическому наркотику  $\alpha$ -PVP(CAS N0. 14530-33-7);

в массе красновато-серого оттенка, обнаруженой и изъятой со дна и стенок делильной воронки (см. рис.6), аналогичным способом, как и в предыдущих случаях, идентифицированы входящие в подготовленные к анализу пробы химические соединения: вещество, которое можно отнести к категории катионов, идентифицируемое, как синтетический наркотик  $\alpha$ -PVP(CAS N0. 14530-33-7), а также сложные органические соединения, как бензойная кислота (CAS N0. 65-85-0), N-бутаноилпирролидин (CAS N0. 33527-93-4), 1-бензоилпирролидин (CAS N0. 3389-54-6);

в обнаруженных незначительных следах беловато-серого оттенка, изъятых со стенок мерного стакана (см. рис.6), пластмассовой воронки (см. рис.7), настольных электронных весов (см. рис.9), и красновато-серого оттенка, изъятых с верхнеприводных мешалок (см. рис.8), было идентифицировано преимущественно химическое соединение, которое можно отнести к синтетическому наркотику  $\alpha$ -PVP(CAS N0. 14530-33-7).

На судебно-материаловедческую экспертизу также были представлены полимерные ёмкости, заполненные, как было в дальнейшем установлено, жидкими химическими веществами, а именно, соляной кислотой, ацетоном, этилацетатом, а также органические соединения класса гетероциклов, имеющие близкие к пирролидину структурные формулы.

Возвращаясь к методам получения  $\alpha$ -PVP, помимо приведенной в начале статьи технологической прописи по его синтезу, отметим, что существуют также альтернативные методы синтеза, в том числе реакция бромавалерофенона с алкоголяными реагентами, с получением промежуточного продукта, далее реагирующего с пирролидином, окисление прекурсора 1-фенил-2-(пирролидин-1-ил)пентан-1-ола и т.д. С учетом результатов идентификации и последующих исследований выявленных химических соединений в представленных на судебно-материаловедческую экспертизу объектов в аспекте синтеза синтетического наркотика типа  $\alpha$ -PVP, становится очевидным, что в большинстве вышеперечисленные химические вещества могут быть отнесены к исходным соединениям, использу-

емым в процессе синтеза  $\alpha$ -PVP, а некоторые из них являются промежуточными, сопутствующими продуктами многостадийных способов синтеза  $\alpha$ -PVP. Кроме того, следует принять во внимание, что в рамках выполненных аналитических исследований качественных и количественных характеристик  $\alpha$ -PVP в качестве стандартного образца сравнения был выбран каталожный сертифицированный эталонный стандарт моногидрохлорида  $\alpha$ -пирролидиновалерофеона (  $\alpha$ -PVP HCL, CAS N0. 5485-65-4), выпускаемого фирмой “Cerilliant”. Согласно физико-химическим характеристикам, приведенным в сертификате качества на  $\alpha$ -PVP•HCL, последний должен иметь хроматографическую чистоту по данным анализа высокоэффективной жидкостной хроматографии не менее 99,9%. Следовательно, в его составе должны отсутствовать какие-либо примеси исходных веществ, используемых в процессе синтеза данного продукта, а также соединения, образующиеся на промежуточных стадиях синтеза  $\alpha$ -PVP. Учитывая отмеченное, касательно выбранного индивидуального аналитического эталонного материала, наличие в готовом наркотическом средстве любых, кроме самого наркотического активного компонента  $\alpha$ -PVP, химических соединений, а также хотя бы одного из них, надо полагать, говорит о возможном изготовлении кустарным способом. В рассматриваемом случае наличие в выборках с поверхностей представленного на судебно-материаловедческую экспертизу лабораторного оборудования хи-

мических соединений – бензойной кислоты, N-бутаноилпирролидина, 1-фенил-1-пропанола, 1-бензоилпирролидина, пирролидина, 2-бром-1-фенил-1-пропанола, 4'-метокси-альфа-пирролидинопентиофенона, катиона – позволяет уверенно заявить, что собранные аналитические данные достаточны для обоснования подготовленного по материалам дела экспертного заключения о том, что наркотическое средство  $\alpha$ -PVP изготовлено по упрощенной технологии, при помощи лабораторного (в основном, стеклянного) оборудования и с использованием широкодоступных реагентов и растворителей.

Таким образом, для надлежащего использования в процессе доказывания результатов судебно-материаловедческой экспертизы наркотических средств и психотропных веществ необходимо соответствующее методическое сопровождение, направленное на обеспечение качества экспертного исследования. Разумеется, с помощью изложенного в статье методического подхода могут быть получены ответы на относящиеся к наркотическому средству  $\alpha$ -PVP вопросы, как диагностического (является ли данное вещество наркотическим средством, каково содержание наркотически активного компонента в данном веществе, каким способом получено данное наркотическое средство и т.п.), так и идентификационного (получено ли представленное наркотическое средство по единой технологии, изготовлено ли оно заводским способом и т.п.) характера.

**ЛИТЕРАТУРА**

1. Рекомендуемые методы идентификации и анализа синтетических катинонов в изъятых материалах/руководство для национальных лабораторий экспертизы наркотиков, Организация Объединенных Наций, Нью-Йорк, 2016 г. – 48 с.
2. A.Kaizaki, S. Tanaka, S.Numazawa, New recreational drug 1-phenyl-2-(1-pyrrolidinyl)-1-pentanone (alpha-PVP) activates central nervous system via dopaminergic neuron, The Journal of Toxicological Sciences, 2014, 39(1), p.1-6.
3. WHO Expert Committee on Drug Dependence: thirty-seventh report, (Content: 5.3,  $\alpha$ -Pyrrolidinovalerophenone ( $\alpha$ -PVP)), Geneva, Switzerland, 2015, p. 20-21.
4. M. Katselou, I. Papoutsis, P. Nikolaou, C. Spiliopoulou, S. Athanaselis,  $\alpha$ -PVP («flakka»): a new synthetic cathinone invades the drug arena, Forensic Toxicology, 2015, 34 (1), p.41-50.
5. A.Wander,  $\alpha$ -Pyrrolidinovalerophenones, GB 927475A, published 1963-05-29.
6. Балабанова О.Л., Шилов В.В., Лодягин А.Н., Глушков С.И. Структура и лабораторная диагностика немедицинского потребления современных синтетических наркотических средств // Журнал им. Н.В.Склифосовского: Неотложная медицинская помощь, 2019, № 3, с. 315-319.
7. <https://www.arlis.am/documentview.aspx?docid=65464>
8. <https://www.arlis.am/documentview.aspx?docID=126183>
9. S.Guha, V.Rajeshkumar, S.Kotha, G.Sekar, A versatile and one-pot strategy to synthesize  $\alpha$  amino ketones from benzylic secondary alcohols using n bromosuccinimide, Org. Lett., 2015, № 17(3), p. 406–409.
10. [https://www.cerilliant.com/shoponline/Item\\_Details.aspx?itemno=87b6bee9-e6d5-4c25-9e14-076003a03fea&item=P-090](https://www.cerilliant.com/shoponline/Item_Details.aspx?itemno=87b6bee9-e6d5-4c25-9e14-076003a03fea&item=P-090)
11. [www.swgdrug.org](http://www.swgdrug.org)
12. [www.caymanchem.com](http://www.caymanchem.com)
13. [www.aipsin.com](http://www.aipsin.com)
14. [www.nist.gov](http://www.nist.gov)
15. Количественное определение некоторых наркотических средств методами газовой, жидкостной хроматографии и УФ-спектроскопии: Методические рекомендации / ЭКЦ МВД РФ (протокол № 7/96-2004), 2004. – 43 с.

**ANNOTATSIYA**

# SUD KOMPYUTER TEXNIKAVIY EKSPERTIZASI IMKONIYATLARI, SOHA YANGILIKLARI

**YULDASHEV**  
*Temur,*  
*Sud kompyuter texnikaviy  
ekspertizasi bo'limi boshlig'i*

Maqolada raqamli texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasini tayinlashning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Buni bugungi kunda axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarining jadal takomillashishi va joriy etilishi bilan tavsiflash mumkin. Ushbu toifadagi jinoyatlarni tergov qilishda sud ekspertizasi jarayonining uslubiy va amaliy tavsiyalari ham batafsil yoritilgan. Sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasi obyektlari sanab o'tilgan. Kompyuter-texnik tadqiqotlari uchun savollarni shakllantirish va ularning ayrim xususiyatlari yoritilgan. Bundan tashqari, ekspertizaning ushbu turining paydo bo'lishi va rivojlanishining tarixiy jihatlari tahlil qilinib, shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda jinoyatlar sodir etilishiga oid zamonaviy ma'lumotlar namoyish etilgan.

**Kalit so'zlar:** sud ekspertizasi, raqamli texnologiyalar, axborot-kompyuter texnologiyalari, kompyuter texnologiyalari, axborot texnologiyalari, elektron hisoblash mashinalari, raqamli tashuvchilar, raqamli dalillar.

**АННОТАЦИЯ**

В статье рассматриваются особенности и возможности назначения судебной компьютерно-технической экспертизы при расследовании преступлений в сфере цифровых технологий. Это можно охарактеризовать быстрым совершенствованием и внедрением информационных и телекоммуникационных технологий в современное общество. Также подробно освещены методические и практические рекомендации процесса судебной экспертизы при расследовании преступлений этой категории. Перечислены объекты судебной компьютерно-технической экспертизы. Объясняется постановка вопросов для компьютерно-технического исследования и некоторые их особенности. Проанализированы исторические аспекты возникновения и развития данного вида экспертиз, а вместе с тем представлены современные сведения о совершении преступлений с использованием цифровых технологий.

**Ключевые слова:** судебная экспертиза, цифровые технологии, информационно-компьютерные технологии, компьютерные технологии, информационные технологии, электронные вычислители, цифровые носители, цифровые доказательства.

## ANNOTATION

The article examines the specific features and possibilities of appointing forensic computer technical expertise in the investigation of crimes in the field of digital technologies. This can be characterized by the rapid improvement and introduction of information and telecommunication technologies in society today. The methodological and practical recommendations of the forensic examination process in the investigation of this category of crimes are also covered in detail. Objects of forensic computer technical expertise are listed. Formulation of questions for computer-technical research and some of their features are explained. In addition, the historical aspects of the emergence and development of this type of expertise are analyzed, and at the same time, modern information on the commission of crimes using digital technologies is presented.

**Key words:** forensics, digital technology, information-computer technology, computer technology, information technology, electronic computing machines, digital media, digital evidence.

Zamonaviy ijtimoiy jamiyat inson hayotining turli sohalarida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va joriy etilishi bilan ajralib turadi. Axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarining keng tizimiga ega global axborot hamjamiyati allaqachon shakllangan va inson hayotiga kirib kelgan. Jamiyatning axborot texnologiyalari bilan birga rivojlanish jarayonining salbiy oqibatlaridan biri bu raqamli texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarning paydo bo‘lishidir. So‘nggi yillarda axborot-kompyuter texnologiyalari bilan to‘yingan zamonaviy jamiyat uchun raqamli texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurash ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda.

Sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasi amaliyotining tahlili bugungi kunda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yoki kompyuter axboroti sohasida sodir etilgan jinoyatlar yil sayin ortib borayotganligini, ayniqsa, raqamli ma’lumotlarga ruxsatsiz kirish, turli qurilmalardan foydalangan holda firibgarlik, to‘lov tizimlari va bankomatlar yordamida firibgarlik, bolalar pornografiyasini yaratish-tarqatish va boshqalar kabi sohalarda sodir etilgan jinoyatchiliklar soni oshib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishda har tomonlama va obyektiv ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish uchun har xil turdagи qurilmalar va axborot texnologiyalari vositalaridan ishonchli raqamli dalillarni olish zarur.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalishning asosiy shakli sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasi jarayonlari hisoblanadi. Ushbu turdagи ekspertizalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishining tarixini ko‘rib chiqsak, u 1990-yillardan boshlab muayyan turdagи

ekspertiza jarayoni sifatida yaratilgan va shakllanganligini ko'rishimiz mumkin.

Ekspert ushbu toifadagi tadqiqotlarni amalga oshirishda quyidagi obyektlar bilan ishlashi kerak bo'ladi: raqamli shaklda qayd etilgan ma'lumotlar; turli dasturiy ta'minot, kompyuter, mobil aloqa qurilmalari va tarmoq texnologiyalari. Ushbu obyektlar ustida o'tkazilgan ekspertiza tadqiqotlari sud-tergov organlariga sodir etilgan jinoyat mexanizmini aks ettiruvchi ma'lumotlarni taqdim etish, kompyuter qurilmalarining texnik xususiyatlarini, ularning xotiralaridan ish uchun ahamiyatli, shuningdek, boshqa teng darajadagi ma'lumotlarni qidirib topish imkonini beradi.

Jinoyatlarni tergov qilishda kompyuter texnologiyalari sohasidagi maxsus bilimlardan foydalanishning zarurligi, tergovchining jalb etilgan mutaxassislar bilimlaridan to'g'ri maqsadda foydalanib, maxsus dasturiy-texnik vositalar yordamida olingen ma'lumotlardan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risida to'g'ri tasavvurga ega bo'lishida namoyon bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar sohasida sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha olib borilgan ekspertiza tadqiqotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalardan foydalanib amalga oshirilgan jinoyatlar va ularning izlari mavjudligi bunday turdag'i jinoyatlarni amalga oshirishda foydalanilgan texnik qurilmalarning xususiyatlariga va jinoyatchining bu sohadagi bilimlariga bog'liq. Jinoyat izini aniqlashning mexanizmi sifatida maxsus dasturlar va ularning imkoniyatlari yordamida aniqlangan raqamli ma'lumotlarni belgilash mumkin.

Hozirgi vaqtida sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasini shartli ravishda quyidagi:

- kompyuter qurilmalari texnikaviy ekspertizasi;
- dasturiy ta'minotlar ekspertizasi;
- tarmoq ekspertizasi;
- raqamli ma'lumotlar ekspertizasi hamda alohida mustaqil ekspertiza turi sifatida radioelektron qurilmalar (mobil aloqa vositalari) ekspertizasi turlariga ajratish mumkin.

Kompyuter qurilmalari texnikaviy ekspertizasi kompyuter qurilmalarining ishlash qonuniyatlarini o'rganish asosida uning texnik xususiyatlarini (parametrlarini), kompyuter tizimining qaysi turkumiga mansubligi va uning ushbu tizimdag'i rolini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Dasturiy ta'minotlar ekspertizasi raqamli qurilmalarning tizimlarini boshqaruvchi operatsion tizimlarda ishlash uchun mo'ljallangan turli dasturiy ta'minotlar va tizimlarni yaratish, ularni qo'llash qonuniyatları, ularning algoritmlari, dastur kodlari hamda maqsadlarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Tarmoq ekspertizasi internet yoki lokal tarmoq orqali o'zaro bog'langan kompyuter texnologiyalari va tizimlari, dasturiy ta'minotlar va boshqa raqamli vositalar yordamida amalga oshirilgan ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Raqamli ma'lumotlar ekspertizasi va radioelektron qurilmalar (mobil aloqa vositalari) ekspertizasi raqamli kriminalistikada keng tarqalgan ekspertiza yo'nalishlari bo'lib, ularning maqsadi raqamli xotira qurilmalaridan va mobil aloqa vositalaridan ish uchun ahamiyatli bo'lgan foydalanuvchi yoki dasturiy ta'minotlar yordamida tayyorlangan (yaratilgan) ma'lumotlarni aniqlash, saralash va tahlil qilishdan iborat. Mazkur ekspertiza yo'nalishlari raqamli xotira qurilmalarida va mobil aloqa vositalari xotiralaridan aniqlangan ma'lumotlar orqali ish uchun ahamiyatli bo'lgan muhim raqamli dalillarni aniqlash imkonini beruvchi sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasining muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Aniq tushunish uchun ushbu turdag'i ekspertizani bajarishga yuborilgan tadqiqot obyektlarini ajratib chiqamiz, ular quyidagilardan iborat: elektron hisoblash texnikalari, shaxsiy kompyuterlar, tizim bloklari, raqamli ma'lumotlarni saqlash va tashishga mo'ljallangan xotira qurilmalar, raqamli foto-video yozishga mo'ljallangan fotoapparatlar, videokameralar, videokuzatuv qurilmalarining xotiralari, mobil aloqa vositalari va boshqa shunday imkoniyatlarga ega bo'lgan texnik qurilmalar hamda ularda mavjud raqamli ma'lumotlar.

Sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qarorda tadqiqot obyektlarining mavjud xususiy belgilarini (seriya raqami, xususiyatlari va zavod belgilarini) ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq.

Shuni ta'kidlashimiz lozimki, kompyuter texnikaviy ekspertizasi tadqiqotlari orqali hal qilish uchun ekspertiza oldiga qo'yilgan savollarga to'liq javob berish ekspertiza tadqiqoti

uchun taqdim qilingan obyektlarning o'ziga xos xususiyatlari, ishslash qobiliyati, obyektning barcha qismlari to'liq ishslash qobiliyatidaligi, zarurat tug'ilgan hollarda obyektni buzuvchi usullardan foydalanish orqali uning yaroqsiz holatga kelishi yoki ishslash qobiliyatini cheklovchi vaziyatlarning paydo bo'lishi, shuningdek, raqamli ma'lumot saqlovchi va tashuvchi xotira qurilmalarida saqlanadigan ma'lumotlarning ishonchligiga bog'liq.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar sohasida sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishda sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasi yo'nalishidagi tadqiqotlarni o'tkazishga qaratilgan bir qator zamonaviy dasturiy-texnik vositalarni misol qilish mumkin. Masalan, ElcomSoft Password Recovery Bundle, Мобильный Криминалист Эксперт, PC-3000, Belkasoft Evidence Center X, X-Ways Forensics, Cellebrite UFED, UFED Cloud, EnCase va boshqalar. Mazkur maxsus texnik va dasturiy vositalar ekspertga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- parollangan ma'lumotlarni aniqlash, ularni ochish va o'qish;
- tadqiq qilinayotgan obyektga (kompyuterlarning operatsion tizimlariga) ulangan har qanday qurilmalarni aniqlash;
- obyektning texnik imkoniyatlarini aniqlash;
- fayllardagi qo'shimcha ma'lumotlarni o'qish;
- o'chirib yuborilgan fayllarni tiklash;
- operatsion tizim fayllaridan ma'lumotlarni olish;
- 800 dan ortiq fayl formatlarini tahlil qilish;
- elektron pochta xatlarini tahlil qilish;
- brauzer ma'lumotlarini o'qish;
- mobil telefonlardagi barcha xabarlar, qo'ng'iroqlar, messenjerlardagi xabarlarni olish;
- mobil telefonlarda o'chirib yuborilgan ma'lumotlarni tiklash;
- bulutli xizmatlardagi ma'lumotlarni olish;
- to'liq hisobot yaratish va boshqalar.

Tadqiqot obyekti va predmetiga qarab ekspertiza oldiga quyidagi savollar qo'yilishi mumkin:

- taqdim etilgan axborot tashuvchi qurilma(lar)da (kompyuter xotirasida), shuningdek, o'chirib yuborilgan ma'lumotlarda quyidagi

so'zlar qatnashgan "...", "..." axborotlar mavjudmi?

– taqdim etilgan axborot tashuvchi qurilma(lar)dan (kompyuter xotirasidan)/mobil aloqa vositasи xotirasidan o'chirib yuborilgan matnli hujjatlar (yoki fotosuratlar, videofayllar, audiofayllar yoki "..." formatidagi (masalan, "pdf", "flv") fayllar) mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa aniqlangan barcha fayllar boshqa xotira tashuvchi qurilmaga yozib taqdim qilinsin.

– taqdim etilgan axborot tashuvchi qurilma(lar)da (kompyuter xotirasida) "..." nomli katalog (papka)/fayl mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa, ushbu katalog (papka)/fayl qachon yaratilgan?

– taqdim etilgan axborot tashuvchi qurilma(lar)da (kompyuter xotirasida) "..." nomli katalogda (papkada) qanday nomdagи fayllar mavjud va ular qachon yaratilgan/o'zgartirilgan?

– taqdim qilinayotgan bir dona videokuzatuv moslamasining xotirasidan o'chirib yuborilgan va ushbu moslamaning sozlanmalariga ko'ra 27.07.2021-yil saat 00:00 dan 02.08.2021-yil saat 23:59 gacha yozib olingen deb talqin qilingan videoyozuvlarni qayta tiklashning imkonи bormi?

– taqdim qilinayotgan bir dona "... rusumli mobil aloqa vositasiga foydalanuvchi tomonidan o'rnatilgan, grafik usul bilan qo'yilgan himoyasi ochilsin.

– taqdim qilinayotgan mobil aloqa vositasining IMEI raqamlari qanday?

– taqdim qilinayotgan bir dona mobil aloqa vositasи xotirasida internet tarmog'idagi veb-sayt manzillari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa, ushbu mobil aloqa vositasi yordamida aynan qaysi veb-sayt manzillari bilan aloqa o'rnatilgan?

– taqdim qilinayotgan bir dona "... rusumli mobil aloqa vositasi xotirasida +998(90)123-45-67 abonentlар bilan olib borilgan o'zaro yozishmalar (SMS xabarlar va barcha messenjerlar orqali yuborilgan va qabul qilingan xabarlar) aniqlansin, shuningdek, o'chirib yuborilgan yozishmalar tiklansin va boshqalar.

Sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasini o'tkazish amaliyotida bir qator muammolarni ham ta'kidlab o'tish lozim. Xususan:

– tadqiqot olib boriladigan maxsus dasturiy ta'minotlar hamda texnik vositalar imkoniyatlari

qisqa vaqtida yetarli darajada bo'lmay qolishi, ya'ni kundan-kunga rivojlanish zarurati mavjud;

- raqamli texnologiyalarning tez o'sishi tufayli ekspert-mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini yangilab turish zarurati mavjud;

- tadqiqot o'tkazish uchun zarur bo'lgan dasturiy ta'minotlar hamda texnik vositalarning xilma-xilligi va moliyaviy jihatdan qimmatligi;

- katta hajmdagi ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan ishlarda ma'lumotlarni saqlash, tahlil qilish zarurati tufayli katta hajmdagi xotira qurilmalariga bo'lgan talabning ortishi;

- ma'lumotlar, shuningdek, raqamli qurilmalarni shifrlashning yangidan-yangi texnik va dasturiy usullarining paydo bo'lishi;

- ba'zi surishtiruv yoki tergov organlari xodimlarining raqamli dalillarni (raqamli qurilmalarni) voqeа joyidan olish bo'yicha yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega emasligi;

- sud-kompyutertexnikaviyekspertizalarini bajarish muddatlari ko'pincha sud tergov organlari tomonidan ekspertiza tayinlashdan oldin savollarni to'g'ri shakllantirish bo'yicha ekspert-mutaxassislar bilan maslahatlashmaganligi sababli uzayadi. Shu munosabat bilan ko'pincha ekspert-mutaxassislarning vakolati doirasidan tashqariga chiqadigan yoki yechimi uzoq vaqt talab qiladigan savollar qo'yildi;

- sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasini tayinlash to'g'risida chiqarilgan bitta qaror doirasida bir nechta obyekt ekspertiza uchun yuboriladi. Har bir obyekt uchun, ya'ni tizimli bloklar, qattiq disklar, noutbuklar uchun alohida qaror chiqarish tavsiya etiladi. Buning natijasida ekspertiza tadqiqotlari davomida har bir obyekt bo'yicha to'liq va batafsil xulosa tuziladi. Sababi,

ko'p obyektlifi bitta ish doirasida ekspertizalarini o'tkazishga uzoq vaqt sarflanadi va ularni idrok etishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi;

- sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasini tayinlash to'g'risida qarorda har doim ham zarurat tug'ilgan hollarda buzuvchi (destruktiv) usullardan foydalanish uchun ekspertlarga ruxsat berilmasligi. Buning natijasida ishni tayinlagan organ yoki xodimga ekspert tomonidan iltimosnama yuboriladi va javob olgunga qadar ish ijrodan to'xtatiladi. Ushbu harakatlar ham ish uchun sarflanadigan vaqtning uzayishiga olib keladi;

- ko'pincha sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasining obyektlari o'z vaqtida olib qo'yilmaydi va ekspertiza tayinlanmaydi. Buning natijasida raqamli ma'lumot saqlovchi yoki tashuvchi qurilmalarda ish uchun ahamiyatli ma'lumotlar yo'q bo'lib ketadi.

Yuqorida qayd qilingan sohadagi muammo-larning yechimlari sifatida quyidagilarni taklif qilishimiz mumkin:

- ushbu sohadagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

- sud-ekspertlik faoliyatida kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash hamda sud ekspertlari bilimlari va malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish;

- sud-ekspertlik faoliyatida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlanТИRISH, shu jumladan uslubiyotlarni takomillashtirish hamda sohaga ilm-fan va texnika yutuqlarini joriy etish;

- ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sud ekspertiza sohasidagi raqamli kriminalistikaning yangi turlarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish.

**ADABIYOTLAR**

1. Трапезникова И. И. Специальные знания в уголовном процессе России (понятие, признаки, структура) : автореф. дис. .... канд. юрид. наук. Челябинск, 2004. 22 с.
2. Гайнельзянова В. Р. Возможности судебной компьютерно-технической экспертизы при расследовании преступлений в сфере компьютерной информации.
3. Шаевич А. А. Особенности использования специальных знаний в сфере компьютерных технологий при расследовании преступлений : дис. .... канд. юрид. наук. Иркутск, 2007. 195 с.
4. Sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasini bajarish. Toshkent 2020-y.
5. Судебная экспертиза компьютерных средств и технологий. Судебная экспертиза радиоэлектронных устройств. Минск-2017г.
6. Бегларян, М.Е. Судебная компьютерно-техническая экспертиза: науч.- практ. пособие для студентов вузов, обучающихся по специальности «Юриспруденция» / М.Е. Бегларян, Г.Н. Возняк. — М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2017. - 71 с. - ISBN 978-5-238-02572-8. - Текст : электронный. - URL: <https://znanium.com/catalog/product/1028752>
7. Компьютерно-техническая экспертиза. Режим доступа: [https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия_(wikipedia.org)).
8. Усов А.И. (2003) Судебно-экспертное исследование компьютерных средств и систем. Основы методического обеспечения, – С. 368.

## ANNOTATSIYA

Maqolada dunyoning buyuk kashfiyotlaridan biri hisoblangan DNK zanjiri tuzilishining kashf qilinishi, kriminalistika sohasida qo'llanishi, respublikamizda Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasining tashkil etilish tarixi va bugungi kunga qadar amalga oshirilgan islohotlar, ekspertizaning ushbu turining ko'pgina fosh etilmagan jinoyatlarni ochishda, shaxsga nisbatan sodir etilgan og'ir jinoyatlarni tergov qilishda va jinoyatchilarga odilona ayb qo'yilishi yoki aybni olib tashlashda respublikamizdagi roli haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Hujayra, irsiyat, barmoq izlari, olamshumul kashfiyot, identifikatsiya, tergov, ekspertiza, biologik iz, xalqaro akkreditatsiya, sifat menejmenti.

## АННОТАЦИЯ

В статье рассказывается о том, как была обнаружена структура ДНК, которая считается одним из крупнейших открытий в истории науки. Также описываются различные области криминалистики, где ДНК-анализ используется для раскрытия преступлений и идентификации подозреваемых. Рассказывается об истории создания и современной деятельности лаборатории биологической экспертизы в судах, а также о ее роли в раскрытии уголовных дел и доказательствах в суде.

**Ключевые слова:** клетка, наследственность, следы пальцев, крылатое выражение, идентификация, доказательства, экспертиза, биологический след, международная аккредитация, качественный менеджмент.

## ANNOTATION

The article describes the discovery of the structure of DNA, which is considered one of the greatest discoveries in the history of science. It also discusses various areas of criminology where DNA analysis is used to solve crimes and identify suspects. The history of the creation and current activities of the biological expertise laboratory in the courts is also described, as well as its role in solving criminal cases and providing evidence in court.

**Key words:** Cell, inheritance, fingerprint, catchphrase, identification, evidence, expertise, biological trace, international accreditation, quality management.

# O'ZBEKİSTONDA ODAM DNKSI SUD BIOLOGIK EKSPERTİZASINING TASHKIL ETİLİŞİ TARIXI

## (DNK ekspertizasi KECHA va BUGUN)

*MARDIYEV*

*Abdulaziz Bahronqul o'g'li,  
X.Sulaymonova nomidagi Respublika  
sud ekspertizasi markazining  
Samarqand viloyat bo'limi Odam  
DNKsi sud biologik ekspertizasi  
laboratoriyasi eksperti*

Sudga oid fanlarning, jumladan, kriminalistikaning tarixi bir asrdan ortiq muddatni tashkil etadi. 1950-yillarda olimlar tirik organizmlarning xususiyatlari tug‘ilishidan oldin belgilangani va meros bo‘lib o‘tishini aniqlashgan. Bolalar ko‘zlarining rangi, bolalar qiyofasi, ayrim xislatlari tasodifiy emasligini bilishgan. Tadqiqotchilar tushunolmagan narsa – bu barcha ma’lumotlar qayerda saqlanishi haqida izoh yo‘qligida bo‘lgan. Uzoq vaqt davomida, hayotning barcha xilma-xilligini o‘zida mujassam etgan ma’lumotlar tashuvchisi – oqsillar deb ishonishgan. Ammo 1950-yillarning o‘rtalariga kelib, barcha hujayralarda aniqlangan molekula – DNK ma’lumotlar tashuvchisi ekanligi ma’lum bo‘la boshlaydi. Kembridj universiteti olimlari Morris Uilkins va Rozalin Franklin DNK molekulalarini rentgenologik tahlildan o‘tkazishadi va ular aylanma zinapoyaga o‘xshash juft spiral ko‘rinishda ekanligini aniqlashadi. Olingan ma’lumotlar amerikalik

biokimyogar Jeyms Uotsonning nuklein kislotalarning kimyoviy tuzilishini o‘rganishiga turki beradi. 1951-yil oktabr oyida Jeyms Uotson Jon Kendryu va doktorlik dissertatsiyasini yozayotgan fizik Frensis Krik bilan birqalikda Kembrij universitetining Kavendish laboratoriyasida DNKning fazoviy tuzilishini o‘rganishni boshlaydi. Uotson va Krik nuklein kislotalarning ikki turi – dezoksiribonulein kislotasi (DNK) va ribonulein kislotasi (RNK) borligini bilishgan, ularning har biri pentoza guruhining monosaxarididan, fosfatdan va to‘rt azot asoslari: adenin, timin (RNKdagi uratsil), guanin va sitozindan iborat ekanligi ma’lum bo‘lgan. Keyingi sakkiz oy ichida Uotson va Krik natijalarni umumlashtirib, 1953-yil fevral oyida DNK tuzilishi to‘g‘risida hisobot tayyorlashadi. Bir oy o‘tgach, ular shariklar, karton va simlar bo‘laklaridan yasalgan DNK molekulasingning uch o‘lchovli modelini yaratadilar. DNKning kimyoviy tuzilishini kashf qilish dunyo bo‘ylab asrning eng ajoyib biologik kashfiyotlaridan biri sifatida baholanadi. 1962-yilda Uotson, Krik va Uilkinslar Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishadi. Rozalin Franklin 1958-yilda vafot etadi va mukofotga sazovor bo‘lish nasib qilmaydi. Kashfiyot sababli keyingi o‘nyilliklarda olimlar odamlarning va boshqa tirik organizmlarning DNKlarini ochishdi va so‘nggi yillarda DNKda qayd etilgan genlarni tahrirlashni o‘rganishdi. DNK molekulasingning kashf etilishi asrning eng



1951-yil oktabr oyida Jeyms Uotson va Frensis Krik tomonidan DNKning fazoviy tuzilishinining kashf qilinishi.

katta ilmiy yutuqlaridan biri bo'ldi. DNK insoniyat hayotida genetik ma'lumotlar saqlanishi va avlodlar almashinuvida juda muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, DNK zanjirlarida nukleotidlar ketma-ketligida irlsiy ma'lumotlar saqlanadi. Nukleotiddan keyingi eng kichik genetik birlik ketma-ket joylashgan uchta nukleotid – triplet sanaladi. Bitta zanjirning tuzilishini ta'minlaydigan ketma-ket joylashtirilgan triplet – gen deb ataladi. DNKning ikkinchi funksiyasi – irlsiy ma'lumotlarning nasldan naslga o'tishidir. DNK genetik ma'lumotlarni yadrodan sitoplazmaga oqsil sintezi kechuvchi joyga o'tkazish jarayonida matritsa sifatida ishtirot etadi.

Odam DNKsi ustida tadqiqotlar olib borish va kriminalistik ekspertizada qo'llash yuzasidan dastlabki ma'lumotlar 1985-yili "Nature" jurnalining iyul oyidagi sonida Angliyaning Lester universiteti professori A.Jeffrisning "Odam DNKsinining o'ziga xos barmoq izlari" nomli maqolasida birinchi bor yoritilib berilgan edi. O'sha yilning dekabr oyida A.Jeffrisning Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligi Aldermaston ekspert kriminalistik markazi xodimi P.Gill bilan birgalikda "Odam DNKsi "barmoq izlarining" sud ekspertizasida ishlatalishi" degan maqolasi chop etilgan edi. Bu ikki ilmiy maqolada birinchi bor odam xromosom DNKsini shaxsning sud ekspert identifikatsiyasida qo'llash mumkinligi ko'rsatildi va shu bilan XX asr sud-ekspertizasining olamshumul yutug'i bo'lmish genom "daktiloskopiya" uslubi yaratildi.

DNKning tuzilishini bilish DNK funksiyalarini, masalan, undan qay tarzda nusxa olinishi va unda saqlanayotgan axborot qanday qilib oqsil sintezi uchun ishlatalishi mumkinligini tushunish imkoniyatini berdi.

Mamlakatimizda sud ekspertiza sohasi rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan Markazimiz Toshkent ilmiy-tadqiqot kriminalistika laboratoriysi sifatida tashkil qilingan bo'lib, o'z faoliyatini 1951-yilning iyunidan ayrim turdag'i hujjatshunoslik ekspertizalarini o'tkazishdan boshlagan. 2000-yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshida X.Sulaymonova nomidagi sud ekspertiza markazida O'rta Osiyo mintaqasida birinchi bor molekulyar genetik identifikatsiya laboratoriysi ochildi. 2000-yilning sentabr oyida respublikamizda birinchi bor molekulyar identifikatsion ekspertiza o'tkazildi va uning

yordamida o'ta xavfli bo'lgan, bir nechta yosh ayollarning o'limiga zomin bo'lgan qotil-manyak aniqlandi.

Bu zamonaviy texnologiya mana 20 yildan ortiq muddat ichida respublikamizda ko'pgina fosh etilmagan jinoyatlarni ochishda, shaxsga nisbatan sodir etilgan og'ir jinoyatlarni tergov qilishda va jinoyatchilarga odilona ayb qo'yilishi yoki aybni olib tashlashda o'z samarasini namoyon qilib kelmoqda. Ekspertizaning ushbu turining shaxs genetik identifikatsiyasi va biologik qon-qarindoshlikni aniqlash masalalarini samarali yechishda, qasddan odam o'ldirish, nomusga tegish, bosqinchilik, talonchilik kabi og'ir jinoyatlarni tergov jarayonida aniqlangan ashyoviy dalillardagi biologik izlarning aynan kimga tegishli ekanligi va shuningdek, tabiiy ofatlar, texnogen fojialar va terroristik aktlar natijasida topilgan, tanib bo'lmash holatga kelgan tana qoldiqlarini aniqlashda o'rni beqiyosdir.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilib, Hukumatimizning "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining ekspertiza xizmatini rivojlantirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Markazga sud-ekspertiza masalalari bo'yicha ilmiy-uslubiy hamda muvofiqlashtiruvchi idora maqomi berilgan. Hozirgi kunda laboratoriyyada laboratoriya mudiri, ikki nafar bosh ekspert, bir nafar yetakchi ekspert, bir nafar katta ekspert, ikki nafar ekspert va laborant faoliyat ko'rsatadi. Ma'lumki, DNK ekspertizasini o'tkazish uchun qo'llaniladigan uskunalar, reagentlar va sarf materiallarning muntazam ravishda yangi rusumlari ishlab chiqarilib, eskilari ma'lum muddatdan so'ng ishlab chiqarishdan olib tashlanib, bir necha yildan keyin butkul texnologik servisi to'xtatiladi. Shuning uchun, DNK laboratoriysi moddiy-texnik bazasini har besh-o'n yilda modernizatsiyalash zarur bo'ladi. X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining DNK laboratoriysi tashkil etilgan davrdan boshlab laboratoriya modernizatsiyasi ikki marta o'tkazilgan. Xususan, 2019-yilda Odam DNKsi sud biologik laboratoriyasining jahon standarti talablariga mos binosi ishga tushirildi. Shuningdek, laboratoriyyada tadqiqotlarning barcha bosqichlari jahonda mashhur bo'lgan chet el firmalari(ThermoFisherScientific, Eppendorf, Biobase, Meling, Metler Toledo va h.k.)dan keltirilgan o'ta sezgir, zamonaviy asbob-uskunalar va moslamalarda olib boriladi. Bundan



*Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasining fragment tahlil analiz qilish xonasi*

tashqari, mazkur laboratoriya O'rta Osiyo va Yevropaning rivojlangan davlatlari bilan xalqaro aloqalarni o'rnatgan. Laboratoriya ekspertlari ko'pgina xorijiy davlatlarda, jumladan AQSH, Avstarliya, Turkiya, Malayziya, Belorussiya va Qozog'istonda o'z mutaxassisliklari yuzasidan bilim va malakalarini oshirib kelgan. Ushbu mehnatlar samarasini natijasida markazning DNK ekspertizasi laboratoriysi hozirgi kunga qadar 2 marta xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi. Jumladan, 2023-yil 3-fevral kuni O'Z DST ISO/IEC 17025:2019 standart talablariga muvofiq baho berilganligi va akkreditatsiya qilinganligini tadiqlovchi Akkreditatsiya guvohnomasi berildi. ISO/IEC 17025:2019 toifasidagi standart ushbu turdag'i faoliyat olib boruvchi tashkilot sifatining yuqori standartlarga javob berishi va ana o'sha standartlarni amaliyotga to'liq joriy etish bilan bog'liqdir. Ushbu akkreditatsiya guvohnomasi berilganligi Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasida o'tkaziladigan tadqiqotlar hamda tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda beriladigan ekspertiza xulosalariga bo'lgan ishonchni yana bir karra orttirishi bilan bir qatorda nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham uning tan olinishini ta'minlaydi va kafolatlaydi. Albatta, bu oson bo'lmasdi. Laboratoriyanı xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish jarayoni uchun maxsus chora-tadbirlar rejasiga ishlab chiqildi. Maxsus chora-tadbirlar rejasiga ko'ra laboratoriya eng so'nggi zamonaviy texnik uskunalar bilan jihozlandi, xodimlarning bilim va malakasi oshirildi va sifat menejmenti tizimi bo'yicha maxsus hujjatlar to'plami ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq qilindi.

DNK ekspertizasi ish uchun ahamiyatli, ilmiy asoslangan va ishonchli dalillarni olish imkoniyatiga egaligi bois, sud-tergov organlari



*X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining muzeyi*

tomonidan tayinlanishiga ehtiyoj yildan-yilga o'sib bormoqda. Xususan, 2010-yilda X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining DNK laboratoriyasida 388 ta, 2016-yilda 1119 ta, 2018-yilda esa 1834 ta, 2021-yilda 2000 dan ortiq ekspertizalar bajarilgan. Bu ko'rsatkichlar sohani rivojlantirish, mamlakatimizda ushbu turdag'i laboratoriyalarni boshqa hududlarda ham ochish zaruriyati dolzarbligini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldag'i "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6256-sonli farmoni qabul qilinib, ushbu farmonda 2021-2025-yillarga mo'ljallangan konsepsiya va uni amalga oshirish yuzasidan yo'l xaritasi tasdiqlandi. Shuningdek, 10.01.2022-yilda Vazirlar Mahkamasining 11-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bo'yicha Samarqand shahrida Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriysi ochilishi 2022-yil 1-iyul kuniga belgilangan edi va ushbu reja amalga oshirildi. Mazkur yo'l xaritasiga ko'ra Samarqand shahridan tashqari Farg'ona, Termiz, Urganch shaharlarida ham Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriylari ochilishi rejalashtirilgan va bu reja bo'yicha chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyalari o'zining tarkibida DNK molekulalarini saqlaydigan har qanday odam biologik materiallari, jumladan:

- voqeа joyidagi qon izlari;
- qon va tana ajratmalarining qurib qolgan izlari;
- ashyoviy dalildagi biologik izlar (qon, so'lak, ter-yog' izlari);
- qotillik qurollaridagi biologik izlar (qon, ter-yog' izlari);



- soch tolalari ildiz qismi bilan;
- tishlar;
- suyak fragmentlari;
- maniy hujayralari;
- ajratmalar;
- amniotik suyuqlik, abort qilingan material;
- xorion to‘qimasi va o‘zida DNK molekulalarini tutuvchi boshqa biologik materiallar ustida ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazib kelmoqda.

Mamlakatimizda odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, hamda aholining bu turdagи ekspertizaga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 14-martdagи 7-mh-son buyrug‘iga asosan tasdiqlangan “odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi bo‘yicha anonim murojaat qilgan shaxslarning shaxsiga doir ma’lumotlarni maxsus

belgilar asosida qayd etish orqali tadqiqotlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” qabul qilindi. Mazkur ekspertiza turi bo‘yicha hozirgi kunga qadar fuqarolar tomonidan Odam DNKsi sud biologik ekspertizasiga ko‘plab murojaatlar kelib tushmoqda va anonim ekspertizalar tayinlanmoqda. Bu kabi DNK tadqiqotlari natijasida er-xotin o‘rtasidagi tushunmovchiliklar, qaynonaning o‘z keliniga nisbatan asossiz shubha-gumonlari, tug‘ruqxonada bola almashib qolish holatlari va yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi meros masalasi bilan bog‘liq yuzaga keladigan turli muammolar o‘z yechimini topmoqda. Ayniqsa, erlearning xotiniga nisbatan yoki xotinlarning erlariga nisbatan yuzaga kelgan ortiqcha shubha-gumonlari aynan mana shu anonim DNK tadqiqotlari natijalarida barham topmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan yurtimizdagи ajrashishlar, oilalarning buzilib ketishi kabi holatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. Уотсон Дж., Крик Ф. Генетические последствия структуры дезоксирибонуклеиновой кислоты. Nature 171, 964-967 (1953). <https://doi.org/10.1038/171964b0>
2. Уотсон Д.Д. и Крик Ф. Х. К., Nature, 171, 737 (1953).
3. С.А.Атаходжаев, Р.С.Мухamedов, А.А.Икрамов, Д.Ш.Ахмедова, Н.Н.Рахматуллаев, В.А.Филатова, А.Э.Норматов Судебно-биологическая экспертиза ДНК человека 2010
4. Иванов П.Л. Экспертная идентификация останков императорской семьи посредством молекулярно-генетической верификации родословных связей // Судебно-медицинская экспертиза. 1998. № 4.
5. И.В.Корниенко и др. Подготовка биологического материала для молекулярно-генетических идентификационных исследований при массовом поступлении неопознанных тел. Ростов-на-Дону: Ростиздат, 2001.
6. sudex.uz

**АННОТАЦИЯ**

# **ВОЗМОЖНОСТИ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА В КРИМИНАЛИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЕ НЕКОТОРЫХ СИНТЕТИЧЕСКИХ НАРКОТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ И ИХ СМЕСЕЙ**

**АХМЕДОВА**

**Ракия Каримовна,**

**Республиканский Центр судебной экспертизы имени Х.Сулаймановой при Министерстве юстиции Республики Узбекистан, заведующая Лабораторией криминалистических исследований материалов, веществ и изделий из них**

**ПАК**

**Эллеонора Вячеславовна,**

**Республиканский Центр судебной экспертизы имени Х.Сулаймановой при Министерстве юстиции Республики Узбекистан, главный эксперт Лаборатории криминалистических исследований материалов, веществ и изделий из них**

Статья посвящена изучению возможности применения комплексного подхода в криминалистическом исследовании некоторых синтетических наркотических средств и их смесей. Разработанные алгоритмические схемы одобрены на примере реальных образцов, изъятых в качестве вещественных доказательств и представленных на экспертизу. Экспериментальным путем установлена природа наполнителей и посторонних примесей в разных смесях. Использование классических химических и инструментальных методов определяет эффективность, результативность комплексного подхода и достоверность полученных результатов.

**Ключевые слова:** новые психоактивные вещества, мефедрон, α-PVP, криминалистическая экспертиза наркотических средств, ГХ-МС.

**ANNOTATSIYA**

Maqola ba'zi sintetik giyohvand vositalar va ularning aralashmalarini sud ekspertizasida tekshirishning kompleks yondashuvni qo'llash imkoniyatini o'rghanishga bag'ishlangan. Ishlab chiqilgan algoritmik sxemalar haqiqiy dalillar sifatida olingan haqiqiy namunalar misolida sinovdan o'tkazildi. Turli xil aralashmalardagi plomba moddalari va aralashmalarining tabiatini eksperimental ravishda o'rnatildi. Klassik kimyoviy va instrumental usullardan foydalanish, kompleks yondashuvning samaradorligini va natijalarning ishonchligilagini belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** yangi psichoaktiv moddalar, mefedron, α-PVP, giyohvand moddalarning sud ekspertizasi, GC-MS.

**ANNOTATION**

The article is devoted to the study of the possibility of using an integrated approach in the forensic research of some synthetic drugs and their mixtures. The developed algorithmic schemes have been tested on the example of real samples seized as physical evidence and submitted for expertise. The nature of fillers and foreign impurities in different mixtures has been experimentally established. The use of classical chemical and instrumental methods determines the effectiveness, effectiveness of an integrated approach and the reliability of the results obtained.

**Key words:** new psychoactive substances, mephedrone, α-PVP, forensic expertise of drugs, GC-MS

Мировые информационные источники вполне обоснованно причисляют синтетические наркотические средства к категории наиболее популярных новых психо-активных веществ (НПВ). Так называемые «дизайнерские наркотики» пользуются растущей популярностью в наркопотребительской среде, что связано с их дешевизной и массовой доступностью. На теневом рынке они нередко распространяются посредством сети Интернет, позволяя дилерам осуществлять доставку бесконтактным способом, независимо от географического расположения потенциальных покупателей. Между тем, благодаря цифровым технологиям, широкие массы населения получили доступ к ранее узкоспециальной информации относительно химического синтеза и лабораторного производства НПВ. Работая по упрощенным схемам получения синтетических наркотиков, наркодилеры действуют в двух направлениях: синтез существующих НПВ и их модификация с сохранением заявленных психоактивных свойств. В результате незаконной деятельности подпольных лабораторий происходит насыщение наркосреды синтетическими НПВ, представляющими собой смесь целевого вещества с исходными сырьевыми компонентами, побочными продуктами синтеза и иными химическими веществами.

Как показывает криминалистическая и медицинская практика, «дизайнерские наркотики» редко употребляются в «чистом виде». Наркопотребители предпочитают смешивать разные виды НПВ между собой, а также с посторонними веществами, растительными компонентами и другими наполнителями. Экспертное исследование подобных смесей осложняется заведомо неизвестным химическим составом, недостаточным количеством изъятого материала, низким содержанием активного вещества, наличием матрицы, препятствующей идентификации аналита, отсутствием стандартных образцов НПВ.

В связи с вышеизложенным, в криминалистической экспертизе наркотических средств не теряет актуальности проблема разработки нестандартных аналитических подходов в исследовании неизвестных по составу смесей синтетических НПВ со сложной неопределенной матрицей.

Целью данной работы является разработка комплексного подхода в экспертном исследовании различных по компонентному составу наркотических смесей, подозреваемых на содержание НПВ, с целью создания универсальных экспрессных методов их анализа.

### Состав и свойства матрицы

Готовые к употреблению синтетические наркотики представляют собой двух и более компонентные смеси, природа которых определяется двумя факторами: целенаправленным смешиванием наркотически активного вещества с наполнителями (Рис.1) и наличием посторонних примесей (Рис.2.).



Рис. 1. Испытуемый образец  
(вещественное доказательство)



Рис.2 Испытуемый образец  
(вещественное доказательство)

В первом случае наполнители в матрице необходимы для увеличения общей массы смеси, создания удобной для ее употребления физической формы или придания приятных органолептических (запахо-вкусовых) ощущений<sup>1</sup>. В частности, в предоставляемых на

<sup>1</sup> Оберенко А.В., Качин С.В., Сагалаков С.А. Исследования состава курительных смесей, содержащих синтетические каннабиноиды. Статья в журн.

экспертизу вещественных доказательствах обнаруживаются – углеводы (глюкоза, сахар, крахмал, мука, манная крупа и т.п.), спирты (глицерин, этиленгликоль), пищевая сода, поваренная соль, мелкоизмельченная трава (ромашка, шалфей, мята др.), примеси других наркотических средств (марихуана, героин). Также в экспертной практике отмечены случаи фальсификации наркотических средств, когда в наполнителях отсутствуют заявленные наркотически-активные вещества.

Во втором случае присутствие посторонних примесей в составе незаконно реализуемых НПВ обусловлено их изготовлением в подпольных лабораториях. Состав смесей в таких случаях определяется используемой рецептурой и условиями синтеза, исходными реактивами и их чистотой, способами и степенью очистки конечного продукта. В изъятых материалах экспертами нередко обнаруживаются следующие посторонние вещества: идентифицируемые 4-метилпропиофенон (прекурсор мефедрона) и его бромированные производные, растворители (диэтиловый эфир, пропанол), бензол или бензальдегид (синтез валерофенона – прекурсора α-PVP), а также неидентифицируемые побочные продукты синтеза, примеси химических реагентов (кислот, щелочей и др.).

Криминалистическое исследование подобных многокомпонентных матриц осложняется мешающим действием примесей и наполнителей, что особенно актуально при низком содержании наркотически активного вещества. Выбор аналитического подхода определяется не только природой, количеством и состоянием представленного вещественного доказательства, но и задачами (вопросами), поставленными следственно-судебными органами перед экспертом.

### Особенности комплексного подхода

Исходя из анализа экспертной практики, максимально результативным в исследовании наркотических смесей неизвестного состава зарекомендовал себя метод комплексного подхода. Это общий алгоритм, состоящий из

«Вопросы биологической, медицинской и фармацевтической химии», №5, т.24,2021. УДК 543.869:615.212 DOI 10.29296/25877313-2021-05-04

основных стадий экспертного исследования – внешний осмотр, пробоотбор, пробоподготовка, исследование имеющимися наиболее оптимальными способами (химическими, инструментальными) (Рис.3).



Рис.3. Алгоритмы экспертного исследования.

Более конкретная схема комплексного исследования выбирается экспертом, исходя из имеющихся лабораторных ресурсов, характера образца, поставленных задач (идентификация, сравнительный анализ и др.). Для пробоотбора преимущественно используются общепризнанные методики отбора репрезентативных образцов<sup>2</sup>.

Если для анализа чистых порошкообразных образцов НПВ (с незначительными примесями в виде побочных продуктов синтеза) достаточно стандартной экстракции метанолом или этанолом с последующей идентификацией нативного вещества хромато-масс-спектрометрией (ГХ-МС), то к исследованию НПВ со сложными матрицами привлекаются другие методы (ИК-спектрометрия, химические качественные реакции и т.п.) для идентификации целевого компонента, наполнителей и возможных примесей. То есть, целесообразно применять последовательный переход от методов категории С к категории А, что обеспечивает полный скрининг представленного на экспертизу образца (вещественного доказательства)<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> Recommended methods of identification and analysis of synthetic cathinones in seized materials. UNODC. New-York, 2016, 22.

<sup>3</sup> Scientific Working Group for the analysis of seized drugs (SWGDRUG) recommendations. Version 8.0, 2019-June-13 // SWGDRUG.–2019. swgdrug.org/Documents/SWGDRUG%20Recommendations%20Version%208\_FINAL \_ForPosting\_092919.pdf

### **Материалы, реактивы, оборудование**

Для исследования использовались образцы веществ и смесей, подозреваемых на содержание наркотических средств - вещественных доказательств, изъятых и предоставленных на криминалистическую экспертизу. Стандартные образцы мефедрона, α-PVP были получены в рамках межлабораторных сличительных испытаний по программе ICE (INTERNATIONAL QUALITY ASSURANCE PROGRAMME (IQAP) International Collaborative Exercises) при поддержке UNODC.

Определение природы вещества проводили с применением ИК-спектрометра «Agilent Technology FTIR-640 с использованием приставки НПВО (нарушенного полного внутреннего отражения) при следующих условиях анализа: диапазон регистрации 4000-400 см<sup>-1</sup>, количество сканов – 40. Идентификация ИК спектров проводилась на основе сравнения полученных ИК-спектров со стандартными спектрами из базы данных библиотек ИК-спектров, имеющихся в приборе.

Для образцов с ограниченным количеством материала использовали универсальный ИК-спектрометр, интегрированный с микроскопом и встроенной цифровой фото-видеокамерой «Thermo Scientific Nicolet iN 10» при следующих условиях анализа: диапазон регистрации 4000-400 см<sup>-1</sup>, количество сканов – 256, в режиме пропускания с использованием прессованных таблеток из калия бромистого.

Идентификация анализируемых целевых и примесных компонентов проводилась с использованием хромато-масс-спектрометра «Agilent Technology» GC 6890/MS 5973N с использованием капиллярной колонки размером 30м×0,25 мм с 5% фенилметилсилоксана в диметилсилоксане, газ носитель - водород, скорость потока 2,1мл/мин, величина пробы 1 мкл., температура MS квадруполя - 180°C, при программировании температуры терmostата колонок от 100 до 280° C, в режиме с делением потока.

Подтверждение полученных результатов проводили на хромато-масс-спектрометре «SHIMADZU GCMS-QP2020» с использованием капиллярной колонки размером 30м×0,25 мм 5% фенилметилсилоксана в диметилсилок-

сане, газ носитель – гелий. Условия анализа: программирование температуры терmostата колонки от 150 до 280°C, линейная скорость 56,3 см/сек, в режиме с делением потока.

При необходимости микроскопический визуальный осмотр вещественных доказательств проводили на бинокулярном стереоскопическом оптическом микроскопе Olympus SZX10 (увеличение до 126\*, освещение - осветитель светодиодный, кольцевой) в режиме отраженного света.

### **Отбор проб и пробоподготовка**

Исходя из природы и внешнего вида представленных на исследование образцов и руководствуясь общепринятыми методами отбора и пробоподготовки, практиковали разные методы: порошкообразные образцы истирали до гомогенного состояния, растительные смеси тщательно перемешивали, от растворов после предварительного перемешивания отбирали аликвоты для последующего высушивания, суспензии фильтровались для разделения на прозрачный фильтрат и нерастворимый остаток.

В качестве экстрагентов для прямой экстракции использовали метиловый или этиловый спирт, для водных растворов – хлороформ, толуол, для суспензий – диэтиловый эфир или метилацетат в зависимости от природы и состава смеси. Для полноты извлечения полученные растворы выдерживали на водяной ультразвуковой бане «SONOREX» при комнатной температуре. При необходимости разделение фаз суспензий проводили с использованием центрифуги.

### **Результаты и их обсуждение**

Как показала практика криминалистических исследований, визуально обнаруживаемые смеси НПВ с наполнителями устанавливаются на стадии предварительного микроскопического анализа. В поле зрения микроскопа хорошо заметны посторонние механические включения в виде крупных прозрачных кристаллов поваренной соли, частиц манной крупы, красителей или высущенных растительных компонентов. Это в некоторых случаях позволяет механически разделить смеси длядельного их исследования с целью дальнейшей идентификации химически-



Таблица 1. Алгоритмы-схемы исследования разных по природе образцов

ми качественными реакциями, ИК-спектрометрии или ГХ-МС.

В исследовании пустых ёмкостей методы экстракции сочетаются с методами концентрирования, когда минимальные количества аналита маскируются мешающим влиянием сопутствующих компонентов. В частности, употребляемые интраназально сожженные остатки курительных смесей нередко содержат полуистлевший растительный пепел (часто, конопли) с примесями НПВ (мефедрон, α-PVP). Также в экспертной практике встречаются случаи обнаружения следов НПВ в смесях с Тропикамидом, Прегабалином, Габапентином.

В ходе экспериментальных исследований отмечено, что во избежание повышенной нагрузки на колонку (и детектор) целесообразно максимально нивелировать воздействие

сопутствующих веществ (наполнителей, примесей). В частности, водные растворы необходимо высушивать с последующим растворением сухого остатка экстрагентом, активные компоненты из смесей с сахарами, поваренной солью, пищевой содой предпочтительно экстрагировать метилацетатом или диэтиловым эфиром.

Суммируя некоторые экспериментальные результаты по исследованию реальных образцов наркотических средств и их смесей, можно отметить, что полный скрининг подозреваемых на НПВ веществ в полной мере оправдан для качественного и количественного анализа. Применение алгоритма комплексного подхода позволяет группировать исследуемые образцы по их внешнему виду, физическому состоянию и предполагаемому химическому составу (таблица 1).




Рис.4. Хроматограмма смеси мефедрона с тропикамидом и побочными продуктами синтеза.




Рис.5.Хроматограмма продуктов термического распада курительной смеси табака с примесями ТГК и  $\alpha$ -PVP




Рис.6. Хроматограмма смеси мефедрона с наполнителем (крахмал) с побочными продуктами синтеза и сырьевыми компонентами

Некоторые из полученных результатов исследований разных по состоянию, природе образцов (вещественных доказательств) с использованием соответствующих схем (алгоритмов) представлены ниже.

### Заключение.

Предложены и апробированы алгоритмы-схемы комплексного исследования некоторых многокомпонентных смесей – образцов, подозреваемых на содержание наркотических средств (НПВ) на примере реальных вещественных доказательств, предоставленных на

криминалистическую экспертизу.

Предложенные схемы позволяют идентифицировать целевые компоненты (наркотически активные вещества) в присутствии наполнителей и посторонних примесей (исходных сырьевых компонентов, побочных продуктов синтеза, термического разложения в сожженных курительных смесях и т.д.). Полученные результаты обобщены в виде экспертной практики, внесены в лабораторную базу для решения различных криминалистических (диагностических, классификационных, идентификационных) задач.

## ANNOTATSIYA

Maqola sud-trasologik ekspertizasi, uning zamonaviy imkoniyatlari va istiqbollariga bag'ishlangan. Hozirgi kunda sud-trasologik ekspertizasi keng imkoniyatlarga ega ekanligiga qaramasdan, jinoyat ishini tez va to'g'ri tergov qilish uchun uni texnik jihatdan rivojlantirish zarurati ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** trasologik ekspertiza, sud ekspertizasi, zamonaviy imkoniyatlar, trasologik ekspertiza istiqbollari, mikrotrasologiya.

## АННОТАЦИЯ

Статья посвящена судебно-трасологической экспертизе, ее современным возможностям и перспективам. Несмотря на то, что судебно-трасологическая экспертиза в настоящее время обладает широкими возможностями, научно обоснована необходимость ее технического развития для быстрого и правильного расследования уголовных дел.

**Ключевые слова:** трасологическая экспертиза, судебная экспертиза, современные возможности, перспективы трасологической экспертизы, микротрасология.

## ANNOTATION

The article is devoted to forensic tracological examination, its modern capabilities and prospects. Despite the fact that forensic tracological examination currently has extensive capabilities, the need for its technical development for a quick and correct investigation of a criminal case has been scientifically substantiated.

**Key words:** tracological examination, forensic examination, modern possibilities, prospects of tracological examination; microtrasology.

Jamiyat taraqqiyoti to‘xtamaydi, hozirgi vaqtida u ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olmoqda va jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish sohasi ham bundan mustasno emas.

Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar qonunga xiлоf qilmishni sodir etganlikda aybdor shaxsni tezda aniqlashga imkon beradigan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlari kerak. Bu jarayonda sud-trasologik ekspertizasining ham imkoniyatlari juda katta.

Ta’kidlash joizki, ayrim xorijiy mualliflar hozirgi vaqtida texnologiyalarning jadal rivojlanib borayotgani va huquqni muhofaza qilish organlari ushbu jarayonlardan orqada qolayotganligini aytadilar [1]. Bu kabi holatlar sud-trasologik ekspertizasi rivojlanishining zamonaviy imkoniyatlari va istiqbollarini o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Trasologiya – kriminalistika fanining bo‘limi bo‘lib, iz hosil bo‘lishi jarayonining nazariy asoslari, ularni qoldirgan obyektlarning tashqi tuzilishi, izlarning hosil bo‘lish mexanizmlari, izlarni topish, hisobga olish va olib qo‘yish usullari va vositalari, shuningdek, jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan

holatlarni aniqlash maqsadida izlar tadqiqotining umumiyligi va xususiy usullarini o‘z ichiga oladi [2, B.44].

Hozirgi vaqtida turli xil kriminalist olimlar tomonidan ajratib ko‘rsatiladigan izlarning turlichaligiga qaramay, “iz qoldiradigan obyektlarning turiga qarab, izlarning to‘rtta asosiy guruhi ajratiladi: odam izlari (gomeoskopiya); qurol, asbob va ishlab chiqarish mexanizmlarining izlari (mexanoskopiya); transport vositalarining izlari va hayvon izlari” [3, B.9-10].

*Moddiy (material) izlar* – atrof-muhitga va uning alohida obyektlariga mexanik, kimyoiy, biologik, termik (issiqlik) va boshqa turdagagi ta’sirlarning aks etishi. Aynan moddiy izlar trasologiyaning o‘rganish predmeti bo‘lib hisoblanadi. Xayoliy izlar esa alohida tergov harakatlarini o‘tkazish taktikasi masalalarini ko‘rib chiqishda o‘rganiladi.

Hozirgi kunda trasologiyada moddiy izlarning turli asoslar va turli darajalarga ko‘ra tasniflanish tizimi shakllangan [4]. Jumladan, **moddiy holatiga ko‘ra izlar quyidagilarga ajraladi: buyum-izlar; modda-izlar; aks-izlar.**

Hozirgi vaqtida sud-trasologik ekspertizasi jinoyat sodir etishning turli moddiy izlарини о‘рганиш учун кeng imkoniyatlarga ega. Ta’kidlash joizki, bundan 30 yil oldin trasologik ekspertiza obyektlari asosan poyabzal yoki transport vositalarining izlari bo‘lgan, boshqa obyektlarning izlari trasologik ekspertizada tadqiq qilinmagan, chunki ularning tadqiqotlari uchun yetarli bilim va imkoniyatlar mavjud emas edi.

Bu esa, o‘z navbatida, huquqni muhofaza qiluv-



chi organlar tomonidan jinoyatlarni tergov qilish va ochishni ancha qiyinlashtir edi, xususan, dastlabki tergov organlariga ular tergov qilayotgan jinoyatni sodir etishda aybdor shaxsni tezda aniqlashga imkon bermas edi. Faqatgina texnologik taraqqiyotning rivojlanishi, ilmiy asoslangan tadqiqot usullarining rivojlanishi bilan mikroizlar, inson teri qoplamasini izlari va h.k. kabi trasologik ekspertiza obyektlarini tadqiq qilish imkoniyati yuzaga keldi, bu esa trasologik ekspertiza va uning imkoniyatlarini rivojlantirishda progressiv qadam hisoblanadi.

Huquqni qo'llash amaliyoti va sud-trasologik ekspertizasi sohasi bo'yicha kriminalistik adabiyotlarini tahlil qilish natijasida, hozirgi vaqtida sud-trasologik ekspertizalari, jumladan, tish izlarining trasologik ekspertizasi, tish modelini yaratish va taqqoslash tadqiqotlari uchun namunalar olishga imkon beradigan eng yangi quyma-nusxa (qolip) olish uchun maxsus moddalardan foydalanishni nazarda tutadi. Yoki bo'lmasa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliy faoliyatida, qulqoq chanoqlarining aks-izlarini tadqiq qilishga imkon yarata oladigan yangi turdag'i izlar nusxalarini ko'chirishga mo'ljalangan plynokalar ishlab chiqildi [5, S.162].

Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi ham sud-trasologik ekspertizalarning rivojlanishda ta'sir ko'rsatdi. So'nggi paytlarda sud-trasologik ekspertizasi sohasida erishilgan yutuqlardan biri – bu mikroobyektlarning kriminalistik tadqiqotlari hisoblanadi. Ushbu yo'naliш trasologiyada mikrotrasologiya deb ataladi, mikro-zarrachalar va mikro-izlarning tadqiqotlari orqali aniq bir jinoyat ishi bo'yicha isbotlov ahamiyatiga ega bo'lgan holatlar va ma'lumotlarni aniqlash uning predmeti bo'lib hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtida kriminalistik adabiyotlarda mikrotrasologiyani o'rganish masalalariga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Zamonaviy tadqiqotlarning aksariyati mikroizlarning ayrim turlariga tegishlidir. Mikrotrasologiyani yaxlit va yagona yondashuv asosida o'rganish bo'yicha tadqiqotlar hozirda mavjud emas [6, S.60].

Mikroizlar va mikrozarrachalarning ta'rifiga yagona yondashuvni va ularning tasnifini, mikrotrasologik tadqiqotlar standartlarini ishlab chiqish kerak.

Sud-trasologik ekspertizalar nazariyasi va amaliyoti rivojlanishining boshqa ijobiy an'analari ham mavjud. Biroq, shunga qaramay, ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda sud-trasologik ekspertizasining barcha imkoniyatlari hozircha namoyon bo'lmayapti. Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarining amaliy faoliyatida sud-trasologik ekspertiza orqali poyabzalning, uning ichki sohada odam oyoq kaftining aks-izlari va yejilish darajasiga ko'ra, ma'lum bir shaxsga tegishli ekanligini aniqlash masalalari; notejis yuzada (masalan, beton polda) aks etgan (qolgan) poyabzal izlarini identifikasiya qilish masalalari va boshqa shu kabi masalalar juda kam uchraydi [5, S.163]. Yuqoridaqilardan kelib chiqqan holda, hozirgi vaqtida u yoki bu jinoyat ishini eng tez va to'g'ri tergov qilish maqsadida sud-trasologik ekspertizani texnik jihatdan rivojlantirish zarurati mavjud deya xulosa qilish mumkin.

Shunday qilib, hozirgi vaqtida trasologik ekspertriza keng imkoniyatlarga ega ekanligini ta'kidlash mumkin, ammo shunga qaramay, jinoyat ishini eng tez va to'g'ri tergov qilish uchun sud-trasologik ekspertizasini texnik va texnologik jihatdan rivojlantirish zarurati mavjud.

## ADABIYOTLAR

1. Gavin J.D. The ChallenGES of Doing Criminology in the Big Data Era: Towards a Digital and Data-driven Approach / J.D. Gavin, B.M. Lyria, Ch. Janet // The British Journal of Criminology. 2017. Vol. 57, iss. 2. P. 259-274.
2. Sh.X.Xasanov, I.R.Astanov, A.K.Zakurlayev va boshq. Sud ekspertizasi bo'yicha tavsiyalar: O'quv-amaliy qo'llanma. – T.: O'zbekiston Republikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 211-b.
3. R.R.Shakurov, Sh.X.Kamilov va boshq. Trasologik ekspertiza / Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 354-b.
4. С.Н.Гонтарь. Собирание и предварительное исследование следов при производстве следственных действий: метод. рекомендации / С.Н.Гонтарь, С.Н.Кубитович, А.А.Рясов, Н.А.Уваров. – Ставрополь, 2011.
5. Аминев Ф.Г. О современных возможностях криминалистического исследования трасологических объектов// Эксперт-криминалист. 2016. №3. – С.161-163.
6. Майлис Н.П. Микротрасология: проблемы развития и совершенствования как научного направления // Вестник университета им. О.Е. Кутафина (МГЮА). 2014. №3. – С.56-60.

# “HAQORAT” MAZMUNIDAGI MATNLAR BO‘YICHA LINGVISTIK EKSPERTIZA O‘TKAZISH JARAYONI

*NAJMIDDINOVA  
Nilufar Yuldashevna,  
X.Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertizasi  
Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi  
laboratoriyasi eksperti*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada haqorat deb qaralayotgan matnlar va ularni lingvistik ekspertizadan o‘tkazish, bu boradagi mavjud muammolar hamda ularning yechimi bo‘yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** haqorat, lingvistik ekspertiza, shaxsning obro‘sni, sha’ni va qadr-qimmati, kamsitish, maxsus lug‘at, qonunchilik, sud, vaziyatlar.

## АННОТАЦИЯ

В статье представлены тексты, рассматриваемые как оскорбления, и их лингвистическая экспертиза, существующие в связи с этим проблемы и актуальные задачи, которые выполнялись и должны выполняться для их решения.

**Ключевые слова:** оскорблениe, лингвистическая экспертиза, репутация, честь и достоинство человека, дискриминация, специальная лексика, законодательство, суд, ситуации.

## ANNOTATION

This article discusses the texts considered as insults and their linguistic examination, the existing problems in this regard and the actual tasks that have been carried out and should be carried out for their solution.

**Key words:** insult, linguistic expertise, reputation, honor and dignity of a person, discrimination, special vocabulary, legislation, court, situations.

Dunyoda tilning amaliy ahamiyatini oshirish, uning inson hayotidagi roli va o‘rnini chuqurtadqiq etishga qaratilgan qimmatli tadtiqotlar amalgalashmoqda. Jumladan, amaliy tilshunoslikning lingvistik ekspertiza kabi sohalarida qo‘lga kiritilayotgan ko‘plab ijobjiy natijalar ham buni tasdiqlaydi.

Bugungi axborot texnologiyalari asrida o‘zgalarni obro‘sizlantirishga qaratilgan ma’lumotlar tarqatish, haqoratlash hamda mualliflik huquqining buzilishi, insonning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish kabi hodisalar tez-tez uchrab turibdi. Ba’zi fuqarolar uchun bunday nutq xatti-harakatlari juda qulay, anonim va shu bilan birga jazosiz ko‘rinadi. Ushbu holatlar lingvistik tekshiruvni talab qilsa-da, haqorat deb qaralayotgan bunday nutqlar uchun xulosalar berishning ilmiy asoslari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Albatta, bugun ommaviy axborot almashinuvni qulay va osonlashganligi uchun so‘z erkinligini suiiste’mol qilish natijasida o‘zgalarni haqorat qilishga qarshi kurashish zarurati paydo bo‘lgani holda, bu ko‘proq davlat institutlari vakillarining, shuningdek, huquqni

muhofaza qiluvchi va boshqa mas’ul organlarning vakolatlariga salbiy ta’sir qiladi. Mazkur yo‘nalishlarda lingvistik ma’lumotlarni tekshirish va qayta ishslash orqali keyingi rivojlanish istiqbollarini ijobjiy bo‘lishiga erishish mumkin. Ushbu bosqichda lingvistik ekspertiza fuqarolik va jinoyat ishlarini hal qilishda shaxsning obro‘sni, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish usuli sifatida ishlaydi.

Lingvistik ekspertizaning amaliy ehtiyoji, bиринчи navbatda, sud ishlarini ko‘rib chiqish va hal qilish jarayonida, ya’ni yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash zarurati tug‘ilganda paydo bo‘ladi.

Lingvistik ekspertiza inson sha’ni, qadr-qimmati, ishbilarmonlik (kasbiy) obro‘sini himoya qilish bilan bog‘liq ko‘plab da’volar paydo bo‘lganligi sababli amaliyotda keng qo‘llanila boshlandi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida mavjud qonunchilik va huquqshunoslik sohalarini mustahkamlab borishga muhim vazifa sifatida qaralar ekan, zamonaviy kriminalistika va sud ekspertizasining rivoji, kriminalistik tekshiruv vositalari va uslublari takomillashishi, tergov va sud amaliyotida ilmiy-texnikaviy imkoniyatlardan foydalanish kabilar katta ahamiyat kasb etmoqda.

Lingvistik ekspertiza sud ekspertizalari tizimidan o‘rin oluvchi, lingvistik bilimlar tatbiq etilishi lozim bo‘lgan ekspertiza turi hisoblanib, protsessual jihatdan lingvistik ekspertiza shaxs



huquqlari buzilishining oldini olishga qaratilgan, tegishli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan faoliyat turi. Ta'kidlash joizki, ushbu ekspertiza turidan o'rinn oluvchi asosiy tushunchalardan biri "**haqoratlash**" tushunchasini "boshqa shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga beadab (uyatsiz) shaklda ifodalangan putur yetkazish" sifatida o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, quyidagilar oshkora haqorat qilishning asosiy tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi:

- haqoratlash tusidagi so'z va iboralarning mavjudligi;
- ularning aniq bir shaxsga qaratilganligi va matnda shaxsning F.I.Sh. ko'rsatilganligi;
- shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi uyatsiz, beodob so'z shakli;
- jirkanch hayvon nomlari;
- jinsiy munosabatlar va jinsiy a'zolar nomi.

Lingvistik nuqtayi nazaridan uyatsiz (beadab) shakl – bu fuqaroga nisbatan haqoratlovchi va uyatsiz, jamoatchilik axloqiy qoidalarini haqorat qildigan va jamiyat xulq-atvor qoidalarini buzadigan leksika va frazeologiyaga ega fikrlar, so'zlar va iboralardir.

Shunday qilib, lingvistik ekspertizada "uyatsiz shakl" – bu haqoratlovchi shakl, ya'ni aniq bir shaxsga (da'vogar) qaratilgan haqoratlovchi so'z va iboralarga ega shakldir.

Sud-lingvistika ekspertizasi tadqiqtolari jarayonida tekshirilayotgan fikr va mulohazalarning haqoratlash shakliga ega xususiyatlari shakllari, ya'ni salbiy ma'lumotdagi uyatsiz so'z shaklining mavjudligi tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi.

Haqorat mazmunida ifoda etilgan va shaxsni omma oldida axloqsiz, obro'ni tushirishga qaratilgan qasddan sodir etilgan qilmish haqorat, shaxs sha'nini kamsitish sifatida baholanadi. Lingvistik ekspertizalarni o'tkazishda haqoratni ifoda etuvchi verbal va noverbal vositalar (qo'l, ko'z, tana a'zolari harakati), ularning jarayonga ta'siri doirasi alohida izohlanishi va zarur ma'lumotlar bazasiga tayanilishi lozim. Bunday ma'lumotlar bazasi haqorat mazmunini aks ettiruvchi so'zlarni lug'at ko'rinishida tizimlashtirish, maxsus korpusini yaratish orqali amalga oshirilishi mumkin. Demak, **haqorat** holatlari bo'yicha o'tkaziladigan lingvistik ekspertizalar tarkibiga shaxsni **obro'sizlantirish**,

**kamsitish, nutq orqali tahqirlash** kabi holatlar kiradi. O'zbek tili semantik-stilistik xossalari muvofiq, **qarg'ish, la'nat** ko'rinishidagi matnlar ham haqorat holatlari sirasiga kiritilib, yuridik jihatdan asoslanishi maqsadga muvofiq.

Haqorat – og'zaki yoki yozma ko'rinishda bo'lishi mumkin bo'lgan mental birlik bo'lgan tushunchadir. Uning nutqda voqelanishi etnomadaniy, sotsial, pragmatik, fiziologik, psixologik omillar bilan bog'liq. Lingvokulturologiya da "haqorat" tushunchasining mazmuni quyidagi xususiyatlarni ifodalaydi: 1) konsepsiyaning subyektiv-majoziy tomoni insonning ijtimoiy holatidan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi; 2) konseptual tomon kommunikativ kod normalarini buzadigan nutq tajovuzkorligi strategiyasini amalga oshiradigan kommunikativ xatti-harakatlar haqidagi etnomadaniy g'oyalarni anglatadi; 3) qiymat tomoni tilning aksioligik kodeksining normalarini aks ettiradi, shaxsning ijtimoiy jozibadorligiga zarar yetkazish uchun javobgarlik-sanksiya joriy etish (komunikativ nutq aktining buzilganligi uchun)<sup>1</sup>. Qarama-qarshi bayonotlar bo'yicha lingvistik ekspertiza o'tkazish yondashuvlariga oid ilmiy adabiyotlarda uchta yo'nalish belgilab berilgan: 1) muallifning nutq harakati nazariyasi doirasida umumiy niyatlarini tahlil qilish, chunki bu borada metodika mayjud emas; 2) haqoratga olib keladigan texnika va usullarni tahlil qilish, haqorat qilish, masxara qilish va haqorat qilishning eng tez-tez uchraydigan taktikalarini tahlil qilish; 3) "haqorat" tushunchasining etnik, psixologik, axloqiy tarkibiy qismlarining murakkab korpusini, haqoratning umumiy konseptual modeli asosida, axloq, axloq normalari, jamiyatdagi inson xatti-harakatları asosida tahlil qilish, shaxsning xulq-atvori va uning ijtimoiylashuvni natjalari o'rtasidagi nomuvofiqlikni tahlil qilish; 4) pragmatik maqsadlar uchun "haqorat" tushunchasining baholovchi tarkibiy qismidan foydalangan holda leksik birliklarning semantik korpusi voqelikning buzilishi singari holatlarni aniqlash<sup>2</sup>. Lingvistik ekspertizalarni amalga **oshirish** jarayonida matnning semantik-

<sup>1</sup> Кусов Г.В. Оскорбление как лингвокультурный концепт. на соискание ученой степени кандидата филологических наук ... дис. –К.: 2004. – 200 6.

<sup>2</sup> Кусов Г.В. Оскорбление как лингвокультурный концепт. на соискание ученой степени кандидата филологических наук ... дис. –К.: 2004. – 200 6.

stilistik xossalari tekshiriladi. Muayyan til korpusida mayjud ma'lumotlar bazasi asosida matnning lingvistik xarakteri namoyon bo'ladi. Kategoriya ichidagi har bir so'z alohida-alohida izohlanmaydi, aksincha, semantik maydon yoki guruh aniqlanadi va shu guruhga mansub so'zlar yig'iladi. Ushbu yondashuv fikr va aloqa birligi sifatida til nuqtayi nazaridan kelib chiqadi<sup>3</sup>.

N.D.Golev haqorat holatlari bo'yicha amalgaloshiriladigan sud jarayonlari va lingvistik ekspertizalarni tahlil qilar ekan, subyektivlik va xulosalarning yetarlicha ishonchli emasligi, vaziyatni baholash usullarining noaniq va zaifligini, bunda lingvistik tamoyil, mezonlarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligini dalillar bilan ko'rsatadi. Albatta, bunday muammolar yaxshi bilim, malaka, shuningdek, "ilmiy-nazariy qurol" larga ega bo'lgan lingvist-ekspertga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Shuningdek, olim ekspert faoliyatini qonuniy va ishonchli tashkil etish uchun kodlangan normalarning dekodlanishini o'z ichiga olgan baza, tamoyil va terminologik asos bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi<sup>4</sup>. Bugungi kunda shaxs qadr-qimmatiga daxl qiluvchi, mansabdar shaxslar obro'siga putur yetkazuvchi turli holatlar soni oshib borgani sari O'zbekistonda ham bu boradagi ekspertlar faoliyatini takomillashtirish talab etiladi. Xususan, haqorat holatlarini yuridik asoslovchi terminlar bazasining yo'qligi lingvist-ekspertga qator murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Aksariyat holatlarda ekspert matn vaziyati, nutq aktiga muvofiq gipotezaga asoslangan xulosa berishga majbur bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, ayblanuvchining jiddiy e'tiroziga sabab bo'lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga asosan aytish mumkinki, "haqorat" mazmunidagi etish jarayonida aniqlanishi lozim bo'lgan masalalar uch tarkibiy qismdan iborat bo'ladi:

1) nutq akti (kimga yoki nimaga qartilganligi,

<sup>3</sup> Akhmedova Dildora Bahodirovna, Bakhtiyor Mengliev. Semantic Tag Categories in Corpus Linguistics: Experience and Examination. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE)

ISSN: 2277-3878, Volume-8, Issue-3S, October 2019

<sup>4</sup> Golev N. D. Acute Problems of Forensic Linguistic Expertise [Aktual'nye problemy jurislingvisticheskoy jekspertizy]. Jurislingvistika-3: Problemy jurislingvisticheskoy jekspertizy – Trial Linguistic Expertise-3: Problems of Trial Linguistic Expertise. Barnaul, 2002. P.29. 5–13.

mavzusi). Aynan muayyan shaxsga qaratilgan yoki ishora qilinganmi? Haqorat mazmunli matn omma oldida ishlatilganmi yoki individual holatdami? 2) nutq aktida adresatning munosabati (nutq predmetiga qanday munosabat bildiriladi va nutq predmeti qanday baholanadi?); 3) maqsad (nima uchun bu haqda xabar beriladi?).

Ushbu tarkibiy qismlarga muvofiq lingvist-ekspert tahlil usullarini tanlashi mumkin.

"Haqorat" mazmunidagi matnlar bo'yicha olib boriladigan lingvistik ekspertizalarda haqorat mazmunini ifodalovchi turli belgilar alohida ajratiladi.

Olimlarning ta'kidlashicha, haqoratli va qo'pol so'z birikmalaridan maqsadli foydalanish – bu odamni haqorat qilish hisoblanadi va albatta, jinoiy javobgarlikka tortish mumkin. Ammo jamoat oldida birovga nisbatan haqorat qilish maqsadida emas, balki vaziyatning ziddiyatlashuvi natijasida, shaxsnинг ixtiyorsiz ravishda qo'llagan qo'pol, haqoratli, hayosiz so'z birikmalarini uchun jinoiy ish qo'zg'atilmaydi.

So'nggi vaqtarda sud jarayonlarida haqorat bilan bog'liq murojaatlar soni keskin ortib bormoqda. Inson shaxsiyati, qadr-qimmati, obro'siga tahdid soluvchi materiallarning ko'payishi natijasida haqoratning darajalarini farqlash masalasi ham paydo bo'ldi. Shaxsn obro'sizlantirish, shaxsiyatiga daxl qilish mazmunli birliklar sirasida haqorat bilan bog'liq murojaatlarning soni ortib bormoqda. Endilikda lingvist-ekspertlar murojaatchilarining arizalariga muvofiq ijtimoiy tarmoq orqali uzatilgan xabarlar, shaxsiy xatlar, shuningdek, haqoratning verbal ko'rinishi bo'yicha murojaatlarning soni ortib bormoqda. Turli tipdag'i matnlar, xususan, shaxsiy yozishma, ijtimoiy tarmoq orqali uzatilgan xabar, ommaviy chiqish, og'zaki murojaatlar orqali ifodalangan haqoratda so'zning asosiy va kontekstual ma'nosini aniqlashtirish, nutqiylar vaziyatni baholash uchun lingvistlarga ehtiyoj tug'iladi. Aynan ana shunday holatlarda so'zning salbiy (haqoratli)lik darajasi, ma'no ottenkasini aniqlashda lingvist-ekspertlar muayyan muammolarga duch kelmoqdalar.

<sup>5</sup> Ворошилова М.Б. Лингвистическая экспертиза [Текст]: задачник: учеб. пособие. В 2 ч. Ч 1. Экспертиза конфликтного текста / М. Б. Ворошилова; ФГБОУ ВО «Урал. гос. пед. ун-т». – Екатеринбург, 2016. – С. 62.



Xulosa qilib aytganda, haqorat mazmunli birliklar shaxsni obro'sizlantirish xarakteriga ega bo'lib, bunda faqat o'zbek tilidagi so'zlaridan emas, turli chet tillari, lahja elementlaridan foydalanish ko'zga tashlanadi. Lingvistik eksperzia jarayonida haqorat mazmunini ifoda etuvchi turli tillardagi qorishiq matnlarni eksperzia

qilishda haqoratning salbiy bo'yoq dorlik darajasiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Shu bilan birga, haqorat mazmunli matnlarda huquqiy va lingvistik jihatlar mavjud bo'lib, eksperzia jarayonida lingvist-ekspert ana shu darajalarni farqlashi maqsadga muvofiq.

## ADABIYOTLAR

1. Кусов Г.В. Оскорблениe как лингвокультурный концепт. на соискание ученой степени кандидата филологических наук ... дис. –К.: 2004. – Б. 200.
2. Голев Н. Д. Acute Problems of Forensic Linguistic Expertise [Aktual'nye problemy jurislingvisticheskoy jekspertizy]. Jurislingvistika-3: Problemy jurislingvisticheskoy jekspertizy – Trial Linguistic Expertise-3: Problems of Trial Linguistic Expertise. Barnaul, 2002. P.29. 5–13.
3. Баранов, А. Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика [Текст]: учеб. пособие / А.Н.Баранов. – М.: Флинта: Наука, 2007. – 592 с.
4. Галышина Е. И. Назначение, производство и оценка заключения судебной лингвистической экспертизы. – М., 2002. – С.15.
5. Ворошилова М.Б. Лингвистическая экспертиза [Текст]: задачник: учеб. пособие. В 2 ч. Ч 1. Экспертиза конфликтного текста / М. Б. Ворошилова; ФГБОУ ВО «Урал. гос. пед. ун-т». – Екатеринбург, 2016. – С. 62.
6. Akhmedova Dildora Bahodirovna, Bakhtiyor Mengliev. Semantic Tag Categories in Corpus Linguistics: Experience and Examination. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8, Issue-3S, October 2019
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. V jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – B. 186.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. V jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – B. 186.
9. Шабанов М. Особенности проведения судебной лингвистической экспертизы по делам об оскорблении // Вестник Дагестанского государственного университета. 2010. Вып. 2 – С. 175–179
10. Lex.uz.

**“RAQAMLI  
SUD EKSPERTIZA”  
(DIGITAL FORENSICS)  
DASTURINI  
AMALIYOTGA JORIY  
QILISHNING E'TIBORLI  
JIHATLARI**

***QOLQANOV  
Nuriddin Tashpulatovich,  
X. Sulaymonova nomidagi  
RSEMning Sud-ekspertlik  
ilmiy-tadqiqot instituti direktori***

***BAZOROV  
Mirkomil Maxmudovich,  
O'zbekiston Respublikasi Adliya  
vazirligi Yuridik ta'lif va sud  
ekspertiza boshqarmasi  
boshlig'i o'rinnbosari***

### ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida sud-ekspertiza faoliyati samaradorligini oshirish va imkoniyatlarini kengaytirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy ekspert amaliyotida qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** sud ekspertizasi, ekspertologiya, raqamli texnologiyalar, kompyuterlashtirish, dasturiy ta'minot, ish faoliyatini yaxshilash.

### АННОТАЦИЯ

В статье освещаются проблемы повышения эффективности судебно-экспертизы и расширения ее возможностей на основе использования современных цифровых технологий. Рассмотрены цифровые технологии, используемые в современной экспертной практике.

**Ключевые слова:** судебная экспертиза, экспертиза, цифровые технологии, компьютеризация, программное обеспечение, повышение производительности.

### ANNOTATION

The article highlights the problems of increasing the efficiency of forensic examination and expanding its capabilities based on the use of modern digital technologies. Digital technologies used in modern expert practice are considered.

**Key words:** forensic examination, expertise, digital technologies, computerization, software, productivity improvement.

molarni bartaraf etishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Shu bilan birga, sohani rivojlantirish maqsadida sud ekspertiza muassasalarini moddiy-texnik bazasini jihozlashga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoida.

Shunday bo'lsa-da, ilg'or xorijiy davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadi, sud-ekspertlik sohasining ko'plab tarmoqlarida an'anaviy usullar o'tmishga aylanib, o'rni **raqamli texnologiyalar** egallab bormoqda.

Xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganda, **"Raqamli sud ekspertiza"** (Digital forensics) dasaturi joriy etilganligini, sud-ekspertizani o'tkazishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanilayotganligi, turli xil zamonaviy dasturlar, uskunalar va qurilmalar orqali yangi turdag'i ekspertiza tadqiqotlari o'tkazib kelinayotganligi hamda bu o'z navbatida xulosalarning ishonchlilagini ham oshirayotganligini ko'rish mumkin.

Raqamli sud ekspertizasi jarayoni quyidagi besh bosqichni o'z ichiga olishi ko'rsatilgan: **identifikasiya qilish, saqlash, tahlil qilish, hujjatlashtirish va taqdim etish.**

**Raqamli sud-ekspertiza** – bu kompyuterda, raqamli qurilmalarda yoki boshqa raqamli saqlash vositalarida saqlangan ma'lumotlarni aniqlash, olish,





qayta ishslash, tahlil qilish va hisobot berishga qaratilgan **sud-ekspertizaning sohasi** hisoblanadi.

#### **Ushbu dasturning asosiy vazifalari esa quyidagilar:**

- zamonaviy fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini, raqamli texnologiyalarni, sud ekspertizaning yangi ilmiy usul va vositalarini qo'llash mexanizmlarini joriy etish, zamon talablariga mos avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimlari va axborot bazalarini yaratish;
- elektron shaklda saqlanadigan ma'lumotlarni aniqlash, olish, qayta tiklash, tahlil qilish va sud ekspertizasi tadqiqotlarini olib borish;
- har qanday raqamli qurilmalardan o'chirilgan yoki yashirin ma'lumotlarni qayta tiklashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashish;
- raqamli dalillarning yaxlitligini ta'minlash;
- sud ekspertiza sohasida, shu jumladan raqamli sud ekspertizada kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha samarali o'quv-amaliyot jarayonini tashkil etish;
- sud-ekspertiza muassasalarining axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va boshqa dasturiy mahsulotlari axborot va kiberxavfsizligini ta'minlash, xizmat axborotlari va ma'lumotlarini kompleks himoya qilish bo'yicha choralarни kuchaytirish;
- elektron tarmoqlarga buzib kirilishini aniqlash, simsiz va mobil qurilmalardan elektron ma'lumotlarni olish, ular bo'yicha tadqiqotlar olib borish;
- ma'lumotlar bazasi, elektron pochta hamda zararli dasturlar bo'yicha sud ekspertiza tadqiqotlarini olib borish.

Tergov uchun qimmatli ma'lumotlarni saqlaydigan kompyuter, raqamli qurilma yoki boshqa raqamli saqlash tizimi **elektron dalillar** deb ataladi. Bunga noutbuklar, smartfonlar, serverlar, raqamli video yozuvlari, kuzatuv kameralari tizimlari, dronlar, GPS tizimlari va o'yin pristavkalari misol bo'la oladi.

Raqamli sud ekspertizasining asosiy maqsadi **elektron dalillardan** ma'lumotlarni ajratib olish, ularni qayta ishslash va xulosalarni taqdim etishdan iborat.

Hozirgi kunda raqamli sud-ekspertiza ko'plab rivojlangan davlatlarda mavjud bo'lib, **Malayziya, BAA, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Xitoy, Ispaniya va Irlandiya** mazkur soha rivojlangan davlatlar hisoblanadi.

Xususan, Malayziyada **raqamli sud-ekspertizasi quyidagi** turlarga bo'linadi:

**Media va fayl tizimi ekspertizasi** (*Qattiq disklar, USB flesh-disk, flesh-xotira kartasi, kompakt disk va boshqalar kabi barcha raqamli saqlash vositalaridagi ma'lumotlarni tekshiradi*);

**Operatsion tizimlar ekspertizasi** (*Windows, Mac OS yoki Linux kabi operatsion tizimlarni tekshiradi*);

**Veb va elektron pochta ekspertizasi** (*e-pochta qayd yozuvini administratorini topish va aniqlashga yordam beradigan web-cookie fayllari, brauzer tarixi va boshqa elementlarni tekshiradi*);

**Ijtimoiy tarmoq sud ekspertizasi** (*Ijtimoiy media profilining tegishli ijtimoiy media ma'lumotlarini o'rganadi*);

**Ma'lumotlar bazasi va zararli dasturlarning sud ekspertizasi** (*Tegishli ma'lumotlar bazalari va zararli kodlar yoki dasturiy ta'minot ichidagi ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanishni tekshiradi*);

**Tarmoq ekspertizasi** (*Tarmoq trafigini va kompyuter yoki raqamli tarmoqlar ichidagi tajovuzlar kabi kiberhujumlarni tekshiradi*);

**Mobil qurilma sud ekspertizasi** (*Mobil qurilmalarda, jumladan smartfonlar yoki planshet qurilmalarida to'plangan turli turdag'i ma'lumotlarni o'rGANADI*);

**Multimedia ekspertizasi** (*Multimedia faylining haqiqiyligi va kontent tahlilini, shu jumladan shaxs yoki obyektning identifikatsiyasini tekshiradi*);

**Dasturiy ta'minot sud ekspertizasi** (*Muayyan dasturiy ta'minot ortidagi dasturiy ta'minot yoki manba kodlari muallifi ma'lumotlarini tekshiradi*);

**Bulut xizmatlari ekspertizasi** (*Bulutli tizimlarda kiber-hujumlar va boshqa tegishli ma'lumotlarni tekshiradi*);

**Virtual tizimlar sud ekspertizasi** (*Virtual tizimlar ma'lumotlari va to'plamini tekshiradi va baholaydi*).

Shuningdek, **Irlandiyada** ham raqamli sud-ekspertizaning kompyuter, smartfonlar, planshetlar, server tarmoqlari, bulut xizmatlari, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar hamda intellektual mulk va ma'lumotlarni o'g'irlash bilan bog'liq bo'lgan turлari mavjud.

Xorijiy davlatlar tajribasidan ko'rish mumkinki, mazkur dasturni mamlakatimizda ham joriy etilishi sud va tergov organlariga qo'shimcha qulayliklar yaratishga hamda jinoyatlarni o'z muddatida aniqlashga xizmat qiladi.

Raqamli sud ekspertizasi texnologiyalar yordamida sodir etilgan jinoyatlarni ochishda muhim rol o'ynaydi va huquqni muhofaza qilish idoralari va boshqa tashkilotlar uchun kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda tobora qimmatli vositaga aylanib bormoqda.

Biroq, raqamli ma'lumotlar va texnologiyalarning sud-ekspert tadqiqotlari sohasida to'plangan katta tajribaga va mavjud istiqbollarga qaramay, amaliyatda huquqiy, tashkiliy, uslubiy va texnologik muammolar duch kelinmoqda.

Raqamli texnologiyalarni ekspert faoliyatiga joriy etishning ijobiy istiqbollari bilan bir qatorda tashkiliy, huquqiy va boshqa muammolari ham mavjud:

- sud ekspertizasini kompyuterlashtirishning universal yechimi mavjud emas;
- hozirgi vaqtida raqamli texnologiyalarni qo'llashga asoslangan obyektlarni tadqiq qilishning ilmiy asoslangan va amaliy sinovdan o'tgan ekspert usullari hali ham yetarli emas;
- raqamli ma'lumotlarni o'zgartirmaslik, ularni himoya qilish, asl va olingan ma'lumotlarning ishonchliliginini tasdiqlash imkoniyatini ta'minlash masalasini hal qilish lozim;





- Respublikadagi oliy ta'lif muassasalarida "Sud ekspertizasi" ixtisosligi bo'yicha alohida fakultetlar joriy etgan holda tahsil oluvchilarga raqamli sud ekspertizasi bo'yicha bilimlar chuqurlashtirilgan tarzda o'qitilishi kerak.

Sud-ekspertiza amaliyotining jiddiy muammolaridan yana biri, yuqorida aytib o'tilganidek, raqamli ma'lumotlarni yuqori texnologiyali o'rorganishga qodir bo'lgan **malakali ekspert kadrlarining** yetishmasligi bo'lib qolmoqda.

Bu yerda eng yaxshi yechim IT-texnologiyalar sohasida ilgari olingan oliy ma'lumot asosida sud ekspertlarini tayyorlash bo'lib, bu yuqori malakali

va sohaga qiziqqan talabalarning huquqiy va sud ekspertiza bilimlarini chuqurlashtirishga imkon beradi.

Sanalgan barcha muammolar ko'p jihatdan raqamli texnologiyalarni ekspert amaliyotiga faol joriy etishni qiyinlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, **raqamli sud ekspertizasi** zamонавији raqamli dunyomизда tobora muhim rol o'ynaydиган tez rivojlanayotган sohadir. Raqamli sud ekspertizasi jinoyatlarni ochish yoki ularning oldini olish uchun ishlatalidi, tashkilotlar va huquqni muhofaza qilish idoralariga elektron dailillarni aniqlash va tahlil qilish uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR

1. Yusupov Y.S., Gulomov Sh.R., Nasrullayev N.B. Raqamli kriminalistika. – Toshkent: Aloqachi, 2020. – B. 240.
2. Samiev T.A. Jinoyat ishlari bo'yicha raqamli ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanish masalalari: milliy va xorijiy tajriba. Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020.

# “HIZB UT-TAHRIR” DINIY EKSTREMISTIK TASHKILOTINING SOF ISLOM G‘OYALARIGA ZID QARASHLARI

*NURALIYEV  
Boxram Abdixomidovich,  
mustaqil izlanuvchi*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Hizb ut-tahrir” diniy ekstremistik tashkilotining sof islom g‘oyaligiga zid qarashlari to‘liq yoritilgan. Unda Qur’oni karimning sura va oyatlari hamda buyuk ulamolarning hadis va rivoyatlaridan misollar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Xalifa”, “ekstremizm”, “hizb”, “tahrirchilar”, “voliy”, “qozi”, “mahram”, “ansor”, “mas‘ul”.

## АННОТАЦИЯ

Статья в полной мере освещает взгляды религиозной экстремистской организации «Хизб ут-Тахрир», противоречащие идеалам чистого ислама. Приведены примеры из глав и стихов Священного Корана, а также хадисов и повествований великих ученых.

**Ключевые слова:** “Халифа”, “экстремизм”, “Хизб”, “редакторы”, “волий”, “кази”, “махрам”, “ансор”, “ответственный”.

## ANNOTATION

This article fully covers the views of the religious extremist organization «Hizb ut-Tahrir» which are contrary to the ideals of pure Islam. It contains examples from chapters and verses of the Holy Qur'an and hadiths and narrations of great scholars.

**Key words:** “Khalifa”, “extremism”, “party”, “editors”, “governor”, “judge”, “mahram”, “ansar”, “responsible”.

Siyosiy partiya din nomidan gapirishga haqli emas. Ilk islom davrida musulmonlar orasida diniy masalada biror muammo paydo bo'lsa, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga (keyingi o'rnlarda s.a.v.) murojaat qilingan. Payg'ambarimizdan (s.a.v.) so'ng, bu mas'uliyat olimlarning zimmasiga tushdi. Zero, Alloh taolo olimlarning fazilati haqida shunday marhamat qiladi. "Bandalari orasida Allohdan ulamolargina qo'rqrarlar. Haqiqatan, Alloh qudratli va mag'firatlidir"<sup>1</sup>. (Fotir, 28).

Oyatning sharhlarida shunday jumla uchraydi: "Banda Allohning zoti va sifatlari, qudrati va hikmatlarini qancha ko'p bilsa, Undan shuncha ko'p qo'rqadi". Demak, din nomidan Allohdan qo'rqaqidan haqiqiy olimlargina gapirishga haqli. Chunki, ular diniy masalalarni gapirayotganda havoyi nafslarini ustun qo'ymaydilar.

Abu Dardo roziyallohu anhudan (keyingi o'rnlarda r.a.) rivoyat qilinadi: Nabiy (s.a.v.) "Olimlar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir. Albatta, payg'ambarlar dirham ham, dinor ham meros qoldirmaganlar. Lekin ular ilmni meros qoldirdilar. Bas, kim bu ilmni olgan bo'lsa, qanday katta nasibasini qo'lga kiritibdi"<sup>2</sup> deganlar (Termiziyy rivoyati).

Ulamolarning ta'kidlashicha, ilmnинг омонотдорлиги og'ir hisoblanadi. Shu bois, faqihlar doimiy xavf va mas'ulyat xavotiri bilan yashaganlar. Bu holat ularning butun faoliyatlarida davom etgan. Islomning dastlabki vaqtalarida olimlarning aksariyati fatvo berishdan hayiqib, bu ishdan o'zlarini olib qochganlar. Zamonasining yetuk bilimdoni bo'lishlariga qaramay bilmayman deyishdan uyalmaganlar. Jumladan, Imom

<sup>1</sup> Bu va keyingi o'rnlarda shakllangan an'anaga ko'ra, qavs ichida sura nomi va oyat raqami keltiriladi. Oyat tarjimalari quyidagi manba bo'yicha keltiriladi: Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri (tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur). – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. –624-b.

<sup>2</sup> Imom Termiziyy. Sunani Termiziyy. №-2682.

Shofe'iydan bir masala so'ralganda u kishi jim bo'lib qolar, "Javob bermaysizmi?", deyishsa, "Javob berganim afzalmi yoki indamaganim, shu haqida o'ylay", deya javob qaytarar edi.

Ibn Abu Ya'lo Payg'ambar (s.a.v.)ning bir yuz yigirmata ansor sahobiylaridan savol so'ralganda biri ikkinchisiga, u boshqasiga yuborganini ko'rdim, degan ekan. Islom ta'limotiga ko'ra, o'zi bilmaydigan masala bo'yicha yoki haqiqatga xilof ravishda fatvo berish, o'zi uchun katta zulm hisoblangan. "Alloh nomidan yolg'on to'qib, tillaringizga kelgan yolg'onnei gapirib: "Bu halol, bu harom" deyavermangiz! Chunki Alloh sha'niga yolg'on to'qiydigan kimsalar sira najot topmagaylar"(Nahl, 116).

"Xulafoyi roshidun" davrida diniy masalalar borasida muammolar xalifaning olim va zakiy sahabalardan iborat majlislarida hal qilingan. Jumladan, Qur'oni karimning bir mus'hafga jamlanishi bunga misol bo'ladi. Hazrati Umar davriga kelib davlat hududlari anchayin kengaydi. Shu bois, joylarga voliy (hokim) bilan birga qozi (muftiy) ham qo'shib jo'natilgan. Shariat nomidan gapirish o'ziga xos ilm bo'lib, uni amalga oshirishda chuqur ilm va tafakkur talab etiladi.

O'z-o'zidankelibchiqadiki, barchahududlarda nafaqat hukumat masalasida, balki diniy sohada ham mustaqil qarorlar qabul qilingan. Har bir mustaqil mamlakatda hukumat darajasida diniy masalalar bilan shug'ullanuvchi shaxslar bo'lgan. Jumladan, G'arbiy Osiyoda "Qoziulquzzot", Movarounnahr va Xurosonda "Shayxul-islom" kabi lavozimlar mavjud bo'lgan. Bu lavozimda faoliyat olib boruvchilar jamiyatdagi diniy sohada paydo bo'lgan masalalar bo'yicha fatvo berish huquqiga ega bo'lgan. Ular tomonidan chiqarilgan fatvolar har bir qatlam uchun birdek amal qilgan. Ixtilofga sabab bo'ladigan yoki yot g'oyalarga chaqiradigan toifalarga qarshi hukumat qat'iy choralar ko'rgan. Musulmon dunyosida yuz bergen turg'unlik, yuqoridagi keltirilgan prinsiplarga zid ravishda, yengilyelpi va g'arazli maqsadda fatvo chiqarish, soxta ulamolarning paydo bo'lishiga olib keldi. "Hizb ut-tahrir" partiyasi bunga misol bo'ladi.

"Hizb ut-tahrir" vakillari tomonidan partiya asoschisi Taqiyuddin Nabahoniyni "Mujtahidul-mutlaq" (Mustaqil mujtahid), Ato ibn Abu Rashtani "Usul bo'yicha olim" sifatida e'tirof

etilib, 14 asrdan buyon ulamolar tomonidan ummat uchun oyat va hadislari asosida chiqarib berilgan hukmlarni yo'qqa chiqarmoqdalar. Bu esa, musulmon dunyosi uchun yangicha bo'lgan aqidaviy, fiqhiy va siyosiy qarashlar shakllanishiga olib kelmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Taqiyuddin Nabahoniy, Abdulqadim Zallum kabi partiya yetakchilari islom olamida hech qanday toifalar tomonidan yoki asarlarda "mujtahid" sifatida zikr qilinmagan. Taqiyuddin Nabahoniyning bunday maqomga da'vo qilishi ulamolar tomonidan e'tirof etilmagan. "Hizb ut-tahrir" a'zolari partiyani tashkil qilish sababini quyidagicha izohlaydilar: "Hizb ut-tahrir"ga asos solish Alloh taoloning quyidagi so'ziga javoban bo'ldi: "Sizlardan yaxshilikka da'vat etadigan, amri ma'ruf va nahyi munkar qiladigan bir ummat bo'lsin! Ana o'shalar o'zlarini najot topuvchilardir"<sup>3</sup>.

Demak, bu da'voda o'sha ummat "Hizb ut-tahrir" deb hisoblash lozim bo'ladi. Hanafiy mazhabi ulamolari amri ma'ruf va nahyi munkar bilan shug'ullanishni farzi ayn, ya'ni har bir musulmon zimmasidagi farzdir, deb bilganlar. Ya'ni buning uchun biror toifa yoki guruhga a'zo bo'lish shart emas deyilmoqda.

**Aqidaviy qarashlari.** Aqidaviy masalalar dinning asosi va tayanchi hisoblanishini inobatga olsak, inson bu borada to'g'ri yo'nalishda bo'lishi o'ta muhimdir. "Hizb ut-tahrir" rahnamolari esa islom dinining e'tiqodiy qarashlariga sekinstastalik bilan o'z botil fikrlarini kiritishga harakat qildilar. Partiyaning aqidaviy qarashlari yangi bir narsa emas. Ular islom tarixidagi yomon nom qozongan va o'z davrida ulamolar tomonidan noto'g'ri ekani isbotlangan "mo'taziliya" va "qadariya" oqimlarining buzuq qoida va fikrlariga tayanadilar.

Ohod – bir kishi o'zi kabi bir kishidan yoki bir kishi ko'pchilikdan yoxud aksincha ko'pchilik bir kishidan rivoyat qilgan hadisdir. Bunda roviylar soni mashhurlik darajasiga yetmagach, ularning nechta bo'lishining ahamiyati yo'qdir<sup>4</sup>. Ohod xabarlarning e'tiqodiy masalalarda hujjat o'rnida qabul qilinmasligi vajib bilan "Hizb ut-tahrir" o'z

<sup>3</sup> "Hizb ut-tahrir" ta'rif. [www.youtube.com/najot.info kanali](http://www.youtube.com/najot.info kanali).

<sup>4</sup> Qarang: Nizomiddin Shoshiy. Usulush-Shoshiy. Tarjimon Ahmadaliyev A. Movrounnahr, 2016. B-291.

a'zolariga qabr azobi va Dajjolning chiqishiga e'tiqod qilishni harom qilgan. Ularning nazarida kim bu e'tiqodni qilsa, gunohkor bo'ladi. Aslida bu islom aqidasini buzish uchun qilingan makkorona harakatdan boshqa narsa emas.

Partiya a'zolari o'z qarashlarini oqlash uchun ohod hadislarga ishonish mumkin, lekin ularga e'tiqod qilinmaydi, deb ta'kidlaydilar.

Bu haqida hizbning muftiyalaridan biri Umar Bakriy Fustaq: "Men sizlarni qabr azobi va Mahdiyning chiqishini tasdiqlashga chaqiraman. Lekin kim u narsaga iymon keltirsa gunohkor bo'ladi"<sup>5</sup>.

Shuningdek, "Kayfiyat izolatil atriba" asarida Nabahoniyning qabr azobiga ishonish mumkin, ammo e'tiqod qilish harom degan gapi naql qilingan. Qabrda bo'ladigan azob yoki rohat haqida Qur'oni karimda qator oyatlar kelgan: "Kim Mening eslatmamdan yuz o'girsa, (kofir bo'lsa) bas, uning uchun tang(baxtsiz) tur mush (qabr azobi) bo'lishi muqarrar va Biz uni qiyomat kunida ko'r holda tirilturmiz(Toha, 124). Bu oyatning ma'nosi haqida Rasululloh (s.a.v.) dan so'ralganda: "U qabr azobi" deb javob bergenlar.

Hanafiy mazhabining asoschisi Abu Hanifa (r.a.)ning aqidaga oid "Al-fiqh al-akbar" asarida qabr azobi haqida quyidagicha ta'rif berilgan: "Qabrda Munkar va Nakir farishtalarning kirib, marhumdan savol so'rashlari haqdir. Qabrda bandaga ruhning qaytarilishi, qabrning kofir va ba'zi gunohkor musulmonlarni qisishi haqdir".

Hakim Samarqandiy Moturidiy bu masala bo'yicha: "Kim qabr azobini inkor etsa, u zalolatdagi bid'atchidir", degan hamda buning hujjati o'laroq G'ofir surasining 46-oyatini dalil qilgan.

"Hizb"chilarning ohod xabarlarni "zon"ni ya'ni, gumonni ifodalaydi deb ta'kidlashlari so'zning birgina ma'nosiga yopishib olishdan boshqa narsa emas. Chunki bu so'z Qur'onda bir necha ma'noda kelgan. Jumladan, aniq ilm, chamalash kabilarni misol qilish mumkin. "Hizb"chilar aytganidek, agar zon faqat gumonni bildirsa unda qiyomat kuni bandalar o'z Robbilarini ko'rishi ham gumon deyishga to'g'ri keladi.

Shuncha naqliy va aqliy dalillar turganda tarixda islomga katta zarba bergan qandaydir firqalarning yo'llaridan borishga intilayotgan

<sup>5</sup> [msafir2005com.blogspot.com](http://msafir2005com.blogspot.com)

“hizb”ni islomning asoslariga bolta urishga harakat deb atash mumkin xolos.

**Hidoyat va zalolat masalasi.** “Hizb ut-tahrir” aqidasiga ko‘ra, hidoyatga kelgan inson faqat o‘z xohishi va intilishi bilangina bunga erishgandir. Bunga Alloh xohishining hech bir aloqasi yo‘q deydir.

Ahli sunna val jamoaning mazhablari esa, bu borada ham faqat Qur'on oyatlari va sahih hadislarga asoslangan holda fikr bildiradi. Imam Abu Hanifaning “Al-fiqh al-akbar” asarida: “Alloh taolo hoxlagan bandalarini O‘z fazli bilan hidoyat qiladi va hohlagan bandalarini O‘z adolati bilan zalolatda qoldiradi. Uning zalolatda qoldirishi – bandani yordamsiz qoldirishi demakdir. Ya’ni unga O‘zi rozi bo‘lgan amallar qilishi uchun tavfiq ato etmaydi. Bu Uning adolatidan. Shuningdek, bu betavfiqni jazolashi ham Uning adlolatidan hisoblanur”<sup>6</sup>.

Yuqorida ham ta’kidlanganidek, “Hizb ut-tahrir” partiyasining zalolat va hidoyat masalasidagi qarashlari yangilik emas. Bunday da’volarni tarixda “qadariya” va “mo‘tazila” guruhlari birinchi bo‘lib ko‘tarib chiqqanlar. Holbuki, bu toifalarning adashgan firqalar ekanligida, “Hizb ut-tahrir” olimlari ham, oddiy a’zolari ham shubha qilmasalar kerak.

**Fiqhiy qarashlari. Qasam masalasi.** “Hizb” a’zolaridan talab qilinadigan birinchi shart – qasam ichish hisoblandi. “Hizb” rahnamolari tomonidan ishlab chiqilgan bu ayyorona hiyladan ko‘zlangan asosiy maqsad a’zolarning partiyadan chiqib ketishiga imkon qoldirmaslikdir.

Partiya a’zolariga har qanday holatda ham qasamdan voz kechmaslik uqtiriladi. Shu bois “hizb”chilar ichgan qasamlari oqibatida islam haqida faqat “Hizb ut-tahrir” va uning rahnamolari gapirish huquqiga ega degan g‘oya bilan yashaydilar. Avvalo hizbdagi odatiy bo‘lgan qasam matnini keltiramiz: “Buyuk Alloh nomi bilan qasamyod qilamanki, islamni himoya qilib, uning sodiq va ishonchli qo‘riqchisi bo‘laman, “Hizb ut-tahrir” fikr va g‘oyalarini o‘zimniki qilib olib, doimo qo‘llab-quvvatlayman, ularni keng targ‘ib etib, saflarimizni kengaytirishga harakat qilaman, “Hizb ut-tahrir” qarorlarini – garchi mening ra'yimga zid kelgan taqdirda ham – so‘zsiz bajaraman, modomiki “Hizb ut-tahrir”

<sup>6</sup> Mansurov A. Aqoid matnlari. “Toshkent islam universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006. - B. 24.

a’zosi ekanman, uning: “hozirgi kufr davlatini ag‘darib, Xalifalik davlatini tiklash” g‘oyasi ro‘yobga chiqmaguncha hech qanday to‘siq va qarshiliklarga parvo qilmagan holda, buning uchun bor kuch-g‘ayratimni sarflayman, agar jonimni qurbon qilishga va oilamdan voz kechishga to‘g‘ri kelsa ham, hargiz qasamyodimni buzmayman, “Hizb ut-tahrir” g‘oyasidan voz kechmayman va hizbiy birodarlarimni sotmayman. Mening bu so‘zlarimga Allohning O‘zi guvohdir”<sup>7</sup>.

Qasamni, aslida, faqat yaxshilik va ezgu ishlarni qilish yoki yomon, qabih amallarni qilmaslik uchun ichiladi. Qasamida sodiq turish musulmon kishining eng yaxshi sifatlaridandir. Ammo, inson ba’zida xato o‘ylab, afzal narsa qolib, undan boshqa ish uchun qasam ichgan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ichgan qasamida turish uning o‘ziga, ahliga, boshqalarga ziyon keltirayotgani ma’lum bo‘lishi mumkin. Alloh taolo qasam haqida: “Ezgu ish qilishingiz, taqvoda bo‘lishingiz va odamlar o‘rtasini isloh etishingiz borasidagi qasamlaringiz uchun Alloh (nomi)ni ko‘ndalang qilavermangiz! Alloh eshituvchi va biluvchi zotdir” (Baqara, 224) degan.

Islam ta’limoti bo‘yicha zarurat taqozo qilmagunicha qasam ichishdan saqlanishga buyuriladi. Xayrli va savobli ishlarni qilmaslikka ichilgan qasamni buzib, kafforatini berish tavsiya etiladi. Ibn Kasir (r.a.).

Partiya a’zolarining qasamida mahkam turib olishiga asosiy sabab diniy ilmlardan bexabar yoki bir qobiq ichida ilm o‘rganishlaridir. Natijada, ular partiya g‘oyalarining noto‘g‘ri ekanini bilgan taqdirlarida ham undan voz kecha olmaydilar. Buning sababi “hizb”chi bo‘lgan shaxs qasam va uning shartlarini bilmasligidir. Qasamga amal qilishga targ‘ib qilgan “Hizb ut-tahrir” rahbarlari uning hukmlari xususida kelgan dalillarni berkitadilar. Aslida esa inson ichgan qasami yaxshi ish uchun emasligini bilsa, undan voz kechishi shar‘iy jihatdan afzalligini yuqorida keltirib o‘tildi.

**Begona ayollar bilan munosabat.** Partiya tomonidan islam asoslariga zid ravishda berilgan fatvolardan biri, bu begona ayolni shahvat bilan yoki shahvatsiz o‘pish va u bilan qo‘l berib so‘rashish muboh deydir.

Holbuki Alloh taolo nomahramlarni shahvat bilan o‘pish u yoqda

<sup>7</sup> “Hizb ut-tahrir” fitnasidan ogohlantirish. Movarounnahr, 2015. - B. 65.

tursin, ularga shahvoniy nazar bilan qarashni ham harom qilgan. Buning dalili quyidagi oyatda yaqqol namoyon bo'ladi. "Mo'minlarga aytинг, ko'zlarini (nomahram ayollardan) quyи tutsinlar va avratlarini (zinodan) saqlasınlar! Mana shu ular uchun eng toza (yo'l)dir. Albatta, Alloh ular qilayotgan (sir) sinoatlaridan xabardordir" (Nur, 30).

Mufassirlar bu oyatning tafsirida quyidagi hadisni keltiradilar: Nabiy (s.a.v.): "Ey Ali, nazarni nazarga ulama. Chunki birinchisi seniki, oxirgisi seniki emas dedilar" (Termiziyy rivoyati). Ya'ni bir marta qarashdan keyingi nazar solish shaytoniy qarashdir deyilmoqda. Alloh taolo bu oyatda O'z Nabiysiga bu masalada mo'minlarga tavsiya emas, balki buyruq berishni aytmoqda. Ya'ni musulmon odam nomahramga shahvat bilan qarashi mutlaqo haromdir. Bu narsaga ummat ulamolari tomonidan ittifoq qilingan. Hadislarda hatto ko'zning ham zinosi borligi botbot ta'kidlangan.

**Fazogir va ikki qutbda yashovchilarining ibodati masalasi.** "Hizb ut-tahrir" har bir fatvosida ahli sunnaning mazhablariga teskari ish qilishga intilganini ko'rish mumkin. Ulardan biri "Musulmon fazogirdan namozning farzligi soqit bo'ladi", degan da'vodir. Demak, musulmon shaxs fazogir bo'lishi yaxshi emas. Bu fatvoning xatarli tomoni shundaki, u bilan Alloh taolo farz qilgan namoz bekor qilinmoqda. "Hizb ut-tahrir" dan boshqa hech kim bunga jur'at etmagan. Islom ta'limoti ko'ra, musulmon kishi namozni har qanday holatda, har qanday joyda ado etmog'i lozim. Hatto, koinot ham bundan mustasno emas.

Musulmon kishi koinotda ham yerdagi kabi islom ta'limotlariga rioya etgan holda yashashi lozim. Ulamolarning tavsiyalariga ko'ra malayziyalik dasturchilar koinotda namoz vaqtlarini aniqlab beruvchi dastur ishlab chiqdilar. Shuningdek, doimiy ravishda Makkani ko'rsatib turuvchi qurilma ham ixtiro qildilar. Yerda namoz vaqtлari quyosh chiqishi va botishiga qarab belgilanadi. "Kun yoki tun" kabi atamalar bo'limgan koinotda esa namoz vaqtлari 24 soatlik vaqt holatidan kelib chiqib belgilanadi. Bunda kunning boshlanishi koinotga uchilgan joy vaqtiga qarab belgilanadi. Shu bilan birga musulmon-fazogir xuddi uzoq safarga chiqqan musulmondek namozni qasr qilib o'qishi ham

mumkin.

Fazogir ramazon ro'zasini ham odatdagidek tutishi lozim. Bunda fazogir koinotga ko'tarilgan makon vaqtidan kelib chiqib, quyosh chiqishi va botishiga qarab ado etadi. "Mashriq ham, Mag'rib ham Allohnikidir. Bas, o'sha tomonda Allohnning "yuzi" mavjuddir. Albatta, Alloh (fazli) keng, dono zotdir" (Baqara, 115).

Ibn Jarir va boshqa olimlar bu oyatni barcha uchun nozil bo'lgan deganlar. Ya'ni qiblani bilmaydigan odam taxarriy qilgandan so'ng, o'sha tarafga qarab namoz o'qishi joiz bo'ladi. "Hizb"ning da'vosi esa, Allohnning hukmlarini o'zlaricha talqin qilish hamda farz amallarni inkor qilishdan boshqa narsa emas.

**O'z mahramiga uylanish masalasi.** "Hizb ut-tahrir" islom diniga kiritgan bid'atlardan biri, bu musulmon kishi abadiy mahramlaridan (onasi, qizi, singlisi kabi) biriga uylansa, unga o'n yil qamoq jazosi beriladi degan da'vodir<sup>8</sup>. Alloh taolo Qur'onda marhamat qiladi: "Sizlarga (nikohi) harom qilingan (ayol)lar – bu, onalaringiz, qizlarining, opa-singillaringiz, ammalarining, xolalaringiz, aka-ukalaringizning qizlari" (Niso, 24). Ibn Abbos (r.a.) dan rivoyat qilinadi, Nabiy (s.a.v.): "Kim mahramiga jinsiy yaqinlik qilsa, uni qatl qilinglar" deganlar.

Demak, mahramga uylangan insonning jazosi islom qoidalari bo'yicha aniq qilib belgilab qo'yilgan. Ammo partiya vakillari bunday fatvo berishlarining zamirida g'arazli maqsadlar yotgani ochiq oydin ko'rinish turibdi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, "Hizb ut-tahrir" rahnamolari partiya a'zolarini ushlab turish hamda bu orqali saflarini kengaytirish maqsadida yuqoridagi fatvolarda islom qonunlarining chegaralaridan chiqib ketganlar. Partiya a'zolariga imkon qadar faqat xilofat masalasiga e'tibor qaratish, qolgan maishiy ishlardagi gunohlarga bemalol yo'l qo'yishga ruxsat berilgan.

**Davlat boshqaruvidagi qarashlari.** "Hizb ut-Tahrir" partiyasining asosiy g'oyasi xalifalik masalasidir. Ular musulmon mamlakatlaridagi barcha hukumatlar o'rniga yagona xalifalik davlatini barpo etishni maqsad qilganlar. Bu haqida partiya nashrlarida shunday jumlalar

<sup>8</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Din nasihatdir. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyyati, 2006. B-88.

uchraydi: “Musulmonlarning bugungi voqeい har bir musulmonga ayon. U sharhga, izohga muhtoj emas. Ularning yurtlari kufr qonunlari bilan boshqarilmoxda. Shunday ekan, u so‘zsiz va qat’yan kufr diyordir. U davlatlar, amirlik, sultonlik va shayxliklardan iborat qirqdan ortiq bo‘laklarga bo‘lib yuborilgan. Demak, u kofirga qarshi turishdan o‘ta ojizdir. Shuning uchun har bir islomiy o‘lkanning masalasi o‘sha o‘lkani Islom diyoriga aylantirish va uni boshqa islomiy mamlakatlar bilan birlashtirishdan iboratdir. Shuning uchun ham musulmonlarning mamlakatlarini birlashtirishga va bitta xalifa saylashga urinish qo‘lidan ish keladigan har bir musulmonga vojibdir”<sup>9</sup>.

Holbuki, boshqa bir hadisda Nabiy (s.a.v.) “Xalifalik mendan keyin 30 yil, so‘ngra tishlab tortilgan podshohliklar bo‘ladi”<sup>10</sup> deganlar. Darhaqiqat Rasululloh (s.a.v.)ning vafotlaridan keyin xalifalik qilgan Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali (r.a.)larning xalifalik muddatlarini bir-biriga qo‘shsak, o‘ttiz yil to‘liq bo‘ladi.

Partiyaning asosiy maqsadi xalifalik qurish ortida uchinchi qo‘llarning nog‘orasiga o‘ynashdan boshqa narsa emas. Buning isbotini Taqiyyuddin Nabahoniyning qator so‘zlarida ham ko‘rish mumkin. E’tibolisi, u bu jarayonda islomiy xalifalikni tiklash uchun har qanday choralarни ko‘rish mumkinligini ta’kidlaydi.

<sup>9</sup> Sabotin. Izzat va Sharaf. B-54.

<sup>10</sup> Ibn Hibbon. Sahih. №-7069. Shuningdek, bu hadisni Imom Ahmad “Musnad”da, Hokim “Mustadrak”da, Termiziy “Sunan”da rivoyat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, “Hizb ut-tahrir” nechog‘lik o‘zini din jonkuyari qilib ko‘rsatmasin, aslida islom diniga zarar keltiruvchi, tafriqaga soluvchi guruhdan boshqa narsa emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatda diniy muhitni barqarorlashtirish, “Hizb ut-tahrir” diniy ekstremizm tashkiloti faoliyati tarqalishining oldini olish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi:

Diniy dasturlarni namoyish etish jarayonida ularning Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tomonidan ekspertizadan o‘tkazilganligi haqida belgi bilan berish borasida qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish;

Rasmiy diniy kanallar, OAVlar sonini ko‘paytirish, rasmiy imom domlalar tomonidan dinda chuqur ketish noto‘g‘ri ekanligi, dinda vasatiylik – o‘rtalikni tutish kerakligi xususida ma’ruzalar qilish, diniy ulamolar ma’ruzalarida dunyoviy ilm olishga qaratilgan targ‘ibotlarni kuchaytirish;

ta’lim muassasalarida din ulamolari ishtirokida mamlakatimizda turli diniy oqim va sektalar tomonidan targ‘ib qilinayotgan g‘oyalari tahdidlariga barham berishga qaratilgan mutazam o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish;

“Hizb ut-tahrir” DET a’zolarini aholi orasida obro‘sizlantiruvchi ko‘rsatuvlar, videofilmlar, tok-shoular, tashkilot sobiq yetakchilarining murojaatlarini OAV, internet tarmoqlari hamda jazoni ijro etish muassasalarida namoyish qilib borish.

## ADABIYOTLAR

1. Bu va keyingi o‘rinlarda shakllangan an’anaga ko‘ra, qavs ichida sura nomi va oyat raqami keltiriladi. Oyat tarjimalari quyidagi manba bo‘yicha keltiriladi: Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri (tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur). – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. –624-b.

2. Imom Termiziy. Sunani Termiziy. №-2682.
3. “Hizb ut-tahrir” ta’rifi. [www.youtube.com/najot.info](http://www.youtube.com/najot.info) kanali
4. Qarang: Nizomiddin Shoshiy. Usulush-Shoshiy. Tarjimon Ahmadaliyev A. Movrounnahr, 2016. B-291.
5. [msafir2005com.blogspot.com](http://msafir2005com.blogspot.com)
6. Mansurov A. Aqid matnlari. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006. B-24
7. “Hizb ut-tahrir” fitnasidan ogohlantirish. Movarounnahr, 2015. B-65.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Din nasihatdir. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006. B-88.
9. Sabotin. Izzat va Sharaf. B-54.
10. Ibn Hibbon. Sahih. №-7069. Shuningdek, bu hadisni Imom Ahmad “Musnad”da, Hokim “Mustadrak”da, Termiziy “Sunan”da rivoyat qilgan.

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Malayziya jinoyat qonunchiligidagi jazoni yengillashtirish instituti tahlil qilinib, yakuniy fikr sifatida Malayziyaning ayrim jinoyat-huquqiy me'yorlarini O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonuniga tatbiq qilishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yengillashtiruvchi holatlar, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar, jinoyatda ishtirokchilik, tamom bo'lma-gan jinoyat, voyaga yetmagan shaxs, cheklangan aqli rasolik, shartli hukm, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, afv etish, amnistiya, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv, yuridik shaxs.

## АННОТАЦИЯ

В статье проведен анализ института смягчения наказания в уголовном законодательстве Малайзии. В качестве заключения представлены предложения по имплементации некоторых уголовно-правовых норм Малайзии в уголовный закон Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** смягчающие обстоятельства; обстоятельства, исключающие преступность деяния; соучастие в преступлении, неоконченное преступление, несовершеннолетнее лицо, ограниченная вменяемость, условное осуждение, условно-досрочное освобождение от отбывания наказания, помилование, амнистия, соглашение о признании вины, юридическое лицо.

## ANNOTATION

This paper provides an analysis of the institution of mitigation of punishment in the criminal legislation of the Malaysia and final conclusion on the implementation of Malaysia's criminal law norms to the criminal law of the Republic of Uzbekistan as well.

**Key words:** mitigating factors, criminal defenses, criminal complicity, inchoate offence, minor, diminished responsibility, probation, parole, pardon, amnesty, plea bargain, legal person.

Malayziya, Indoneziya Respublikasi va Singapur Respublikasi Janubi-sharqiy Osiyoda joylashganligiga qaramasdan, mazkur mamlakatlar mintaqaning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatlari sirasiga kiradi. Shu bilan birga, qayd etilgan mamlakatlar turlicha huquq tizimiga ega bo'lib, shu jumladan, Malayziya va Indoneziya Respublikasi aralash huquqiy tizimga mansub hisoblanadi. Singapur huquq tizimi esa deyarli to'liq ingliz umumiy huquqiga assoslangan bo'lsa-da, shaxsiy maqomga doir bir qator masalalarda xitoy, musulmon va indus jamoalariga nisbatan tegishicha oddiy xitoy, musulmon va indus huquqi qo'llaniladi [1]. Fikrimizcha, jahonning Malayziya singari rivojlangan mamlakatlari qonunchiligini tadqiq etish O'zbekiston Respublikasining milliy jinoyat qonunini takomillashtirishda muhim yo'nalishlardan biri sifatida ko'rilishi maqsadga muvofiqdir.

Malayziyaning 1997-yil 7-avgust sanasida qayta ko'rib chiqilgan Jinoiy qilmishlarga doir qonuni (keyingi o'rnlarda – Malayziya Jinoyat kodeksi) [2] ko'pchilik jinoyat tarkiblari va tartib-taomillarini qamrab olgan jinoyat qonuni bo'lgani holda, jinoyat huquqining yagona manbayi hisoblanmaydi. Xususan, Jinoyat kodeksining o'zida 1964-yildagi "Umumiy yurisdiksiya sudlari to'g'risida"gi [3] (4-modda ikkinchi qism "b" bandi) hamda 1955-yildagi "Kam ahamiyatlji jinoyatlar to'g'risida"gi [4] (120B-modda uchinchi qismi) qonunlar tilga olingan. Shuningdek, Jinoyat kodeksida o'z ifodasini topmagan 1954-yildagi "Saylovga doir jinoyatlar to'g'risida"gi [5], 1976-yildagi "Eksterritorial jinoyatlar to'g'risida"gi [6], 1984-yildagi "Aviasiya sohasidagi jinoyatlar to'g'risida"gi [7], 1997-yildagi "Jinoyatlarga doir shariat qonuni to'g'risida"gi (Federal hududlar) [8], 2012-yildagi "Xavfsizlik sohasidagi jinoyatlar to'g'risida"gi (Maxsus choralar) [9], 2017-yildagi "Bolalarga qarshi jinsiy jinoyatlar to'g'risida"gi [10] va "Mukofotlar bilan bog'liq jinoyatlar to'g'risida"gi [11] qonunlar ham jinoyat-huquqiy me'yornarni aks ettirgani holda, qayd etilgan toifaga mansub jinoyatlar uchun javobgarlik, xususan jazoni yengillashtirish choralarini ham belgilab beradi. Qiziqarli tarafi, "Bolalarga qarshi jinsiy jinoyatlar to'g'risida"gi qonunning 23-moddasida voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlarning subyekti yuridik shaxs bo'lishi mumkin ekanligi mustahkamlangan.

Jinoyat kodeksini ko'zdan kechirganda, deyarli har bir moddadan so'ng uning sharhi hamda bir nechta illyustratsiyalar, ya'ni misollar keltirilganligini kuzatish mumkin.

Malayziya Jinoyat kodeksida yengillashtiruvchi holatlar ro'yxati qayd etilmagan bo'lsa-da, jazoni va aybdorning ahvolini yengillashtirishga qaratilgan qator qoidalari uchraydi.

Xususan, shaxs qarorda qayd etilgan bir nechta jinoyatlardan birida aybdor ekanligi to'g'risida qaror chiqarilgan bo'lsa-da, aynan qaysi birida aybdor ekanligi yuzasidan shubha mavjud bo'lgan barcha holatlarda, aybdor qayd etilgan jinoyatlar orasida eng yengil jazo chorasi nazarda tutilgan jinoyat uchun hukm qilinadi (72-modda).

Jinoyat kodeksi 99-modda to'rtinchchi qismida, shaxsiy mudofaaning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etilishi shaxsiy mudofaa sifatida e'tirof qilinmasligi qayd etilgan bo'lsa-da, mazkur holatda sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlash, xususan yengillashtirish masalalari aniq ifoda etilmagan.

O'z navbatida, ishtirokchilikda sodir etilgan qilmishlar uchun jazoni yengillashtirishning ayrim qoidalari Jinoyat kodeksida o'z aksini topgan. Jumladan, ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadigan jinoyat sodir etishga dalolat qilgan har qanday dalolatchi, mazkur jinoyat qayd etilgan dalolatchilik oqibatida sodir etilmagan hamda ushbu Kodeksda bunday dalolatchilik uchun jazo tayinlanishini nazarda tutadigan to'g'ridan-to'g'ri me'yor mustahkamlanmagan taqdirda, dalolatchiga nisbatan mazkur jinoyat uchun belgilangan eng ko'p muddatli jazoning to'rt-dan bir qismiga qadar bo'lgan jazo yoki mazkur jinoyat uchun nazarda tutilgan jarima yoki qayd etilgan ikkala turdag'i jazo ham tayinlanadi. Dalolatchi yoki dalolat qilingan shaxs bunday jinoyatning oldini olish vazifasini bajaruvchi mansabdor shaxs bo'lgan taqdirda esa, dalolatchi ushbu jinoyat uchun nazarda tutilgan eng ko'p miqdordagi jazoning teng yarmini tashkil qiluvchi jazo yoki ushbu jinoyat uchun nazarda tutilgan jarima jazosi bilan yoxud qayd etilgan har ikkala turdag'i jazo choralar bilan jazolanishi mumkin hisoblanadi (116-modda).

Jinoyat kodeksining 118-moddasiga ko'ra, ko'maklashish niyatida yoki bu orqali o'lim jazosi, umrbod ozodlikdan mahrum qilish va yigirma

yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazolari nazarda tutilgan jinoyatning sodir etilishini osonlashtirishini bilgan, o'z ixtiyori bilan har qanday harakat yoki g'ayriqonuniy harakatsizlik vositasida mazkur jinoyat sodir etilishiga qaratilgan niyatni yashirgan, yoxud ushbu niyatga nisbatan har qanday yolg'on xabar bergen shaxs mazkur jinoyatni sodir qilgan taqdirda, yetti yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki jinoyat sodir etilmagan taqdirda uch yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi va har qanday holatda jarima jazosi bilan ham jazolanadi. O'z navbatida, jinoyatlarining oldini olish vazifasini bajaruvchi mansabdor shaxs tomonidan aynan shu jinoyat sodir etilgan yoki sodir etilmagan taqdirda ham belgilangan jazoning turi va miqdoriga qarab jazoni yengillashtirish tartibi Jinoyat kodeksi 119-moddasida, shuningdek, muayyan bir muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi nazarda tutilgan jinoyatni yashirishga qaratilgan qilmish uchun jazoni yengillashtirish tartibi esa, Jinoyat kodeksi 120-moddasida o'z aksini topgan.

Tamom bo'limgan jinoyatlar uchun jazoni yengillashtirish tartibi Malayziya Jinoyat kodeksida qoida tariqasida jinoyat tarkibini o'z ichiga olgan moddadan so'ng aynan ushbu jinoyat uchun jazoni yengillashtirish tartibini belgilovchi moddada ifoda etiladi. Masalan, sabotaj jinoyatini sodir etganligi uchun aybdorga umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi (124K-modda), mazkur jinoyatga qasd qilgan yoki tayyorgarlik ko'rigan shaxsga nisbatan esa o'n besh yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi belgilangan (124L-modda). Xuddi shunday yengillashtirish tartibi Jinoyat kodeksi 124M – 124N-moddalarida joususlik jinoyati uchun ham o'rnatilgan. Bundan tashqari, "Jinoyatlarga doir shariat qonuni to'g'risida"gi (Federal hududlar) qonunning 47-modda ikkinchi qismiga muvofiq, mazkur Qonun yoki islom huquqiga doir har qanday yozma shakldagi qonun aks ettirilgan jinoyatni sodir etishga qasd yoxud dalolat qilgan shaxsga tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoning har qanday muddati ushbu jinoyat uchun nazarda tutilgan jazoning eng ko'p muddatining yarmidan ortiq bo'lmasligi lozim [8].

O'z navbatida, Jinoyat kodeksi XXIII bo'limi "Jinoyat sodir etishga qasdlar" deb nomlangani holda, o'z ichiga yagona 511-moddani oladi va

tegishlicha jinoyatga qasd qilganlik uchun jazoni yengillashtirishning umumiy tartibini belgilab beradi. Unga ko'ra, ushbu Kodeks yoki boshqa bir qonunga muvofiq ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima yoxud har ikkala jazo chorasi tayinlanishi nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishga yoki mazkur jinoyatni sodir etish istagini qo'zg'atishga harakat qilayotgan va mazkur harakati orqali biror-bir xatti-harakat sodir etayotgan har qanday shaxs, agar mazkur Kodeks yoki boshqa bir qonunda to'g'ridan-to'g'ri daxldor bo'lgan qoida belgilangan bo'lmasa, ish holatlaridan kelib chiqqan holda, ushbu shaxsga tegishli jinoyat uchun nazarda tutilgan jazo chorasi tayinlanib, bunda yagona shart sifatida ozodlikdan mahrum qilishning muddati tegishli jinoyat uchun nazarda tutilgan eng ko'p muddatning teng yarmidan ortiq bo'lmasligi lozim sanaladi. Fikrimizcha, mazkur tartib qasd qilganlik uchun jazoni yengillashtirishning alohida tartibi belgilanmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda qo'llaniladi.

Malayziya Jinoyat kodeksi 130A va 130V-moddalarida umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo afv etish, jazoning ijrosini kechiktirish yoki to'xtatish yoxud jazodan ozod qilish yoki jazoni yengillashtirish predmeti bo'lishi mumkin ekanligi belgilangan. Shuningdek, 1957-yilda qabul qilingan Federal Konstitutsiyasiga muvofiq, Federatsiyaning bosh qo'mondoni hisoblanadigan Yang di-Pertuan Agongning afv etish, tegishli holatlarda hukmning ijrosini kechiktirish yoki to'xtatish vakolatiga ega ekanligi, har bir shtatda tuziladigan Afv etish masalalari bo'yicha komissianing vakolatlari (42, 48-moddalar) [12] belgilangan bo'lsa, 1999-yilda qayta ko'rib chiqilgan Jinoyat-protsessual kodeksida har bir shtat Hukmdorining afv etish, jazoning ijrosini kechiktirish, to'xtatish va yengillashtirish vakolatlari tilga olinadi (281, 300-moddalar) [13].

Biroq yuqorida keltirilgan jinoyat qonun hujjatlarining birortasida ham amnistiya instituti xususida so'z yuritilmaydi. "Amnistiya" atamasi asosan mamlakat hududida bo'lib turgan noqonuniy muhojirlarni vatanlariga qaytarib yuborish yoki ish bilan ta'minlash masalalari yuzasidan qabul qilinadigan dasturlar borasida qo'llaniladi [14, 15].

Jinoyat kodeksi 4(1), 11, 130T, 402A va 409A-moddalarida yuridik shaxslar jinoiy javobgarligining xususiyatlari belgilangan bo'lsa-da,

ularning javobgarligini yengillashtiruvchi alohida tartib nazarda tutilmaydi.

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv instituti ning amal qilish tartibi Jinoyat-protsessual kod-eksining 28A, 172C va boshqa moddalarida, shartli hukm qilish (probatsiya) instituti esa, 173A va 294-moddalarida o‘z ifodasini topgan. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish imkoniyati, o‘z navbatida, JK 130-moddasiga berilgan tushuntirishda aks etgan.

Va nihoyat, Jinoyat kodeksi hamda 2001-yildagi “Ruhiy salomatlik to‘g‘risida”gi qonunda [16], fikrimizcha, so‘z aqli norasolik ha-qida ketadi va shu bois cheklangan aqli rasolik holatida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazoning yengillashtirilishi yoxud javobgarlikning istisno qilinishi mumkin ekanligi yuzasidan biror-bir xulosaga kelish qiyin.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Malayziya JK jazoni yengillashtirishning deyarli barcha institutlarini aks ettirgani holda, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar, xususan dalolatchilik uchun jazoni yengillashtirish tartibiga batafsilroq to‘xtaladi. Fikrimizcha, Malayziya Jinoyat kodeksi 116-moddasiga muvofiq, jinoyatga dalolat qilganlik uchun jazoni yengillashtirish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 58-moddasiga quyidagi tahrirdagi yangi beshinchini qism sifatida kiritish milliy jinoyat qonunining takomillashuviga xizmat qiladi:

58-modda. Tamom bo‘lмаган ва исхирокчиликда sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash.

(1-q.) Sud tamom bo‘lмаган jinoyat uchun jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiylasoslariga amal qilgan holda jinoyatning og‘ir-yengilagini, jinoiy niyat amalga oshirilishining darajasini va jinoyatni oxiriga yetkaza olmaganlik sabablarini ham hisobga oladi.

(2-q.) Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik hamda jinoyat sodir etishga qasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning to‘rtadan uch qismidan

oshmasligi kerak. Mazkur qoida:

a) o‘ta xavfli retsidivistlarga, uyushgan guruhi yoki jinoiy uyushma a’zolariga nisbatan;

b) tinchlik va xavfsizlikka qarshi tamom bo‘lмаган jinoyatlar uchun, shuningdek, quyidagilar bilan:

javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish bilan;

o‘n to‘rt yoshga to‘lмаганligi aybdorga ayon bo‘lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo‘rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojning g‘ayritabiyy usulda qondirish bilan;

yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdagagi ommaviy qirg‘in qurolini, bunday qurol yaratishda foydalanish mumkinligi ayon bo‘lgan materiallarni hamda uskunalarni, radioaktiv materiallarni kontrabanda qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar uchun jazolar tayinlashda qo‘llanilmaydi.

(3-q.) Tamom bo‘lмаган jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi mumkin emas.

(4-q.) Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashda sud har qaysi aybdorning jinoyatda ishtirok etganlik xususiyati va darajasini hisobga oladi. Har qaysi ishtirokchining shaxsiga tegishli bo‘lgan yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar sud tomonidan faqat shu ishtirokchining o‘ziga jazo tayinlashda hisobga olinadi.

(5-q.) Ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasiga (qismiga) muvofiq ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi nazarda tutilgan jinoyat sodir etishga dalolat qilgan har qanday dalolatchi, mazkur jinoyat yuqorida qayd etilgan dalolatchilik oqibatida sodir etilmagan hamda ushbu Kodeksda bunday dalolatchilik uchun jazo tayinlanishini ko‘zda tutadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri meyor mustahkamlangan taqdirda, dalolatchiga nisbatan mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoning eng ko‘p muddati yoxud miqdorining to‘rtadan bir qismiga qadar bo‘lgan jazo tayinlanadi.

**ADABIYOTLAR**

1. Правовые системы стран мира. Энциклопедический справочник. URL: [https://legal\\_systems.academic.ru/](https://legal_systems.academic.ru/)
2. Penal Code of Malaysia (As of October 01, 2018). URL: <https://lom.agc.gov.my/act-detail.php?act=574&lang=BI&date=01-02-2018#timeline>
3. Courts of Judicature Act, 1964 (Malaysia). URL: <https://lom.agc.gov.my/act-detail.php?act=91&lang=BI&date=01-12-2020#timeline>
4. Minor Offences Act, 1955 (Malaysia). URL: <https://lom.agc.gov.my/act-detail.php?act=336&lang=BI>
5. Election Offences Act, 1954 (Malaysia). URL: [http://commonlii.org/my/legis/consol\\_act/boa19541969236/](http://commonlii.org/my/legis/consol_act/boa19541969236/)
6. Extra-Territorial Offences Act, 1976 (Malaysia). URL: <https://lom.agc.gov.my/act-detail.php?act=163&lang=BI>
7. Aviation Offences Act, 1984 (Malaysia). URL: <https://lom.agc.gov.my/act-detail.php?act=307&lang=BI>
8. Syariah Criminal Offences (Federal Territories) Act, 1997 (Malaysia). URL: [http://commonlii.org/my/legis/consol\\_act/scota1997420/](http://commonlii.org/my/legis/consol_act/scota1997420/)
9. Security Offences (Special Measures) Act, 2012 (Malaysia). URL: <https://lom.agc.gov.my/act-detail.php?act=747&lang=BI>
10. Sexual Offences against Children Act, 2017 (Malaysia). URL: <https://lom.agc.gov.my/act-detail.php?act=792&lang=BI>
11. Offences relating to Awards Act, 2017 (Malaysia). URL: <https://lom.agc.gov.my/act-detail.php?act=787&lang=BI>
12. Federal Constitution, 1957 (Malaysia). URL: <https://lom.agc.gov.my/federal-constitution.php>
13. Criminal Procedure Code (Malaysia) (As at 1 October 2021). URL: [https://lom.agc.gov.my/ilims/upload/portal/akta/outputaktap/1688322\\_BI/ACT%20593\\_CRIMINAL%20%20PROCEDURE%20CODE\\_18.10.2021.pdf](https://lom.agc.gov.my/ilims/upload/portal/akta/outputaktap/1688322_BI/ACT%20593_CRIMINAL%20%20PROCEDURE%20CODE_18.10.2021.pdf)
14. Amnesty for migrants extended until vaccinations end // 05 July, 2021. Free Malaysia Today. URL: <https://www.freemalaysiatoday.com/category/nation/2021/07/05/amnesty-for-migrants-extended-until-vaccinations-end/>
15. Malaysia extends amnesty scheme deadline for undocumented workers // April 28, 2023. The Kathmandu Post. URL: <https://kathmandupost.com/national/2021/07/14/malaysia-extends-amnesty-scheme-deadline-for-undocumented-workers>
16. Mental Health Act 2001 (Malaysia). URL: [https://lom.agc.gov.my/ilims/upload/portal/akta/LOM/EN/Act%20615%20\(13.6.2016\).pdf](https://lom.agc.gov.my/ilims/upload/portal/akta/LOM/EN/Act%20615%20(13.6.2016).pdf)

**ANNOTATSIYA**

Bugun dunyo shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Globallashuv jarayoniga mos ravishda jinoyat sodir etgan shaxsnинг aybini isbotlash va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada adolat mezonlariga to'liq amal qilish, ishni sudga qadar yurituchi organlar ishini samarali tashkil etish borasida-gi qonunchilik va ilg'or chet el tajribasi mazkur maqolada atroficha tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish atamasining mazmuni, isbotlash jarayonlariga innovatsion texnologiyalarini jalg etish, uning samaradorligi va imkoniyatlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** videokonferensaloqa, jinoyat sodir etish usullari, zamonaviy texnologiyalar, isbotlash jarayoni, jinoyat protsessi, aybdorlik daramasi, jinoyatchilik, masofaviy tergov harakatlari.

**АННОТАЦИЯ**

В статье анализируются законодательство и передовой зарубежный опыт доказывания вины лица в совершении преступления и обеспечения законности, полного соблюдения норм правосудия в этом отношении, эффективной организации работы органов судопроизводства. Также описывается значение термина “проведение следственных действий в режиме видеоконференцсвязи”, привлечение инновационных технологий в следственный процесс, его эффективность и возможности.

**Ключевые слова:** видеоконференцсвязь, способы совершенные преступности современные технологии, процесс доказывания, уголовное производство, степень вины, преступление, дистанционные следственные действия.

**ANNOTATION**

Today the world is developing rapidly. The legislation and advanced foreign experience in proving the guilt of a person for committing a crime in accordance with the globalization process and ensuring the rule of law, in this regard, in full compliance with the norms of justice, in the effective organization of the work of pre-trial bodies are analyzed in detail in this article. Also, the article describes the content of the term conducting investigative actions in video conferencing mode, the involvement of innovation technologies in isballing processes, its effectiveness and capabilities.

**Key words:** video conferencing, methods of committing crimes, modern technologies, process of proof, criminal proceedings, degree of guilt, crime, remote investigation actions.

sual qonunchiligidagi qo'llaniladigan, muayyan videosuhbatdan iborat protsessdir. Ammo bu ta'rif, bizningcha, o'zida to'liqlikni aks ettirmagan. Chunki tergov harakatlarida aniq bir dalil olish uchun rasmiy muloqotga kirishiladi.

Uesli Chayning fikriga ko'ra, videokonferensaloqa – bu yuzma-yuz uchrashuvni simulyatsiya qiladigan internet orqali ikki yoki undan ortiq uzoq tomonlar o'rtaсидаги jonli, vizual aloqadir. [2]

Yuqoridaagi ta'riflardan ham videokonferensaloqaning bugungi jinoyat protsessi uchun qay darajada muhimligini bilish qiyin emas.

**Adabiyotlar tahlili.** Jamiyat shiddat bilan rivojlanib borar ekan, har bir o'zgarishlarni innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Barcha sohada bo'lgani kabi jinoyatlarni tergov qilish, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash va dalillarni qisqa muddatlarda ishonchli to'plash bo'yicha ham kundan kunga yangi g'oyalari va texnologiyalar joriy etib borilmoqda. Mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligiga ham tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish tartibininig kiritilishi bunga yorqin misol bo'la oladi. Ammo bu rejim chet davlatlarda ancha oldin joriy etilgan.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual qonunchiligidagi "videokonferensaloqa" atamasi 2001-yilda yangi Jinoyat-protsessual kodeksining qabul qilinishi bilan o'zining me'yoriy konsolidatsiyasini topdi, shundan beri ushbu davlatjinoyatprotsessida videokonferensaloqadan foydalanish tartibi kengayib bormoqda. [3]

O'zbekiston Respublikasida ishni sudga qadar yuritish bosqichida videokonferensaloqadan foydalanish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2018-yil 14-maydag'i "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3723-son qarori [4] bilan sudga qadar va sud bosqichida soddalashtirilgan ish yuritish tartib-tamoyillarini yanada rivojlantirish, sud-tergov harakatlarining innovatsion shakllari va uslublarini joriy etish jarayoni jadallashtirildi.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida videokonferensaloqadan foydalanish istiqbollari O'zbekiston qonunchilik tizimida nisbatan yangi masala hisoblanganligi

**Kirish.** Jamiyat har tomonlama rivojlanib borar ekan, jinoyatchilikning ham sur'ati oshib, jinoyat sodir etish usullari va vositalari ham zamonga mos ravishda murakkablashib bormoqda. Bu esa jinoyat sodir etgan shaxslarni ushslash, qonun ustuvorligini ta'minlash va jinoyatni issiq izida ochish hamda jinoyat sodir etgan shaxslarning aybini isbotlash usullarini takomillashtirish, isbotlash jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni jalb etishni talab qilmoqda.

Bugungi dunyo tajribasida jinoyat ishlarini qisqa muddatda va sifatli tergov qilish hamda sudlov instansiyasiga yuborish borasida zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanib kelinmoqda.

Hozirgi vaqtida axborot texnologiyalaridan foydalanish kundalik hodisaga aylandi, nouxau sohasi barcha sohalarga ta'sir qildi. Texnologik taraqqiyot jinoiy jarayonni ayab o'tirmadi. Shundan kelib chiqib, barcha jabhalarda bo'lgani kabi jinoyat protsessida ham yangi texnologiyalarni jalb etgan holda dalillar to'plash va jinoyat sodir etgan shaxsning aybdorligi masalasini qisqa muddatda hal etish talab etilmoqda. Bu borada tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish tartibi alohida ahamiyatga ega.

**Videokonferensaloqa** – bu raqamli texnologiya bo'lib, jinoyat-protsessual qonunchiligidagi belgilangan hollarda va tartibda jinoyat protsessida ishtirok etayotgan protsess ishtirokchilarining real vaqt rejimida masofaviy bir-birini ko'rib, muayyan ish doirasida dalillar to'plash uchun qo'llaniladigan jarayondir. U alohida internetning omma uchun yopiq kanallaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Bu borada A.V.Daneyevning[1] qayd etishicha, videokonferensaloqa jinoyat-protses-

sababli mamlakatimizda mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Ammo bu boradagi ishlar boshqa huquq sohalari, misol uchun iqtisodiy va fuqarolik sud ishlarini yuritish borasida nisbatan oldinroq qo'llanila boshlangan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari doirasida V.A.Rodivilina, A.G.Volevodz, F.M.Vyatkin, V.A.Terexin, E.D.Nugayeva, Y.A.Arkipova, O.V.Ovchinikova, I.S.Kojin, M.Smirnov, A.S.German, I.N.Gerbatinkov, S.P.Jeltobryuxov, A.S.Klementev, A.A.Letvishko, Y.N.Melenin, V.V.Melinchuk, V.A.Semensov, A.A.Sizov, A.Y.Fedyunin, U.U.Fiaktistova, D.V.Shenkievich, V.A.Shiplyuk, M.A.Yurkiyevich, R.M. Shageyeva, Y.V.Xarcheykina, V.Rudnev, S.Sherba va boshqalar o'z tadqiqot ishlari doirasidan kelib chiqib videokonferensaloqaning ayrim jihatlarini tadqiq qilishgan.

Xorijiy mamlakatlarda ishni sudga qadar yuritish bosqichida videokonferensaloqadan foydalanish borasida Sabina Braun, Evert-Yan van der Vlis, Dirk Rombouts, Judi L, Teylor, V.Tomas, Jenyong Yun kabi olim va mutaxassislар tomonidan ilmiy o'rganishlar olib borilgan. Bu boradagi izlanishlarning yangi bosqichga chiqishi uchun pandemiya davrining boshlanishi ham tom ma'noda tabiiy omil bo'lgan deyishimiz mumkin.

Mamlakatimizjinoyatprotsessualqonunchiligi ham bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. O'zbekistonda iqtisodiy va fuqarolik huquqiy munosabatlarida videokonferensaloqadan foydalanish amaliyoti birmuncha oldinroq boshlangan bo'lsa-da, 2018-yil 18-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjaligiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-476-son[5] qonuni bilan birinchi marotaba jinoyat-protsessual qonunchiligiga videokonferensaloqadan foydalanish tartibi mustahkamlandi. Dastlab, videokonferensaloqadan foydalanish vakolati faqat sudlarga berilgan bo'lib, bugungi kunda surishtiruv, dastlabki tergov organlariga ham dalillar to'plash vaqtida foydalanish vakolati mustahkamlab qo'yildi.

Videokonferensaloqa rejimidan foydalanish tartibi joriy etilishi natijasida birmuncha davlat mablag'lari ham tejalishi kuzatilmoqda.

Jumladan, joriy yilning 9 oyi davomida iqtisodiy sudlar[6] tomonidan hal etilgan ishlarning 2,5 mingdan ortig'i videokonferensaloqa tizimi orqali ko'rib chiqilgani tufayli taraflarning 1,5 milliard so'm mablag'i tejalgan.

Davlatimiz rahbarining "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi[7] qarori bilan fuqarolarning sudlarga murojaat qilish va sud majlisida ishtirok etish sohasida odil sudlovga erishish darajasi yanada quaylashtirildi.

Ammo Jinoyat-protsessual kodeksida surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirish jarayonida masofaviy tergov harakatlarini o'tkazish mexanizmi dalillarni o'z vaqtida to'plash va ayblanuvchining ayborligini isbotlovchi dalillarni qisqa muddatda yig'ish va baho berish jarayonida vakolatlarni to'liq amalga oshirish imkonini bermaydi.

Ko'plab imkoniyatlar surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan dalillarni to'plash va tergov harakatlarini o'tkazish borasidagi ishlarga tatbiq etilmagan. Bu esa jinoyat ishlarini tergov qilishdagi vaqt va xarajat qiymatining oshishiga sabab bo'ladi. Natijada esa jinoyat protsessual qonunchilikni tahlil qilish va bu borada ilmiy izlanishlar amalga oshirilishiga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda. Mazkur sohada olib boriladigan ilmiy izlanishlar fuqarolarning masofadan turib surishtiruv va dastlabki tergovda ishtirok etish, ularning davlat hokimiyati organlariga ishonchi oshishiga hamda vaqt va mablag' sarfining birmuncha kamayishiga sabab bo'ladi.

**Natijalar.** Zamon bilan bir nafasda jinoyat protsessida isbotlash jarayonlari ham takomillashmas ekan, davlatning jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashishi, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash vazifasini amalga oshirish borasida samarali mexanizm shakllantirib bo'lmaydi. Jinoyatchilik esa yildan yilga oshishi kuzatilmoqda. Birgina 2021-yilda 84 100 ta jinoyat sodir etilgan, jinoyatchilik ko'rsatkichi har 100 ming aholiga o'rtacha 243,4 tadan to'g'ri kelgan[8]. Bu ko'rsatkichlar esa, har bir jinoyat ishi yuzasidan imkon qadar qisqa muddatlarda sifatli tergov harakatlari amalga oshirishni taqozo etadi. Shu sababli ham bugungi isbotlash jarayoni oldida kam vaqt sarflab, davlat budgetini tejagan holda gumon qilinuvchi,

ayblanuvchining aybini isbotlash va qonun ustuvorligini ta’minlash vazifasi turibdi.

Jinoyat ishlarini tergov qilish davomida ijobji natijalarga shubhasiz zamonaviy texnologiyalarni qo‘llamasdan turib erishib bo‘lmaydi. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida videokonferensaloqadan foydalanish ham zamonaviy texnologiyalardan biri hisoblanadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot to‘xtamaydi va bugungi kunda olimlar va qonun chiqaruvchilar videokonferensaloqa (videoaloqa), stressli psixofizik holatni baholash uchun platforma kabi yangi texnik ishlanmalardan foydalanish tartibini tezkor tartibga solish istiqbollarini bashorat qilmoqdalar, elektron jinoyat ishi, video protokol, elektron suda va boshqalar shular jumlasidandir. Zamonaviy texnik ishlanmalardan biri – O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda jinoyat protsessida videokonferensaloqadan foydalanish hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasida tergovchilar, prokurorlar, sudyalar va advokatlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, barcha respondentlar jinoyatlarni ochish va tergov qilishda, shuningdek, jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishda turli texnik vositalardan faol foydalanadilar. Respondentlarning 88,3% sudyalar, 29,4% advokatlar, 10% prokurorlar va 2,8% tergovchilar jinoyat ishlarida videokonferensaloqa qo‘llanilishini ta’kidlaganlar.[9]

Jinoyat protsessiga videokonferensaloqadan foydalanishni jadallashtirishni vaziyat ham talab qilgan. Jumladan, 2020-yil sentabr oyida Yevropa jinoiy Advokatlar assotsiatsiyasi (YCBA) [10] Kovid-19 dan keyingi dunyoda jinoiy ishlarda videokonferensaloqadan foydalanish tamoyillarini belgilab beruvchi bayonot chiqardi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida jinoyatchilikka qarshi kurashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va qisqa muddatlarda jazo muqarrarligini ta’minlashga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish tendensiyasi kundan kunga ortib bormoqda. Bu borada BMTning giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi tomonidan 2017-yilda “Jinoyat ishlarida huquqiy va amaliy foydalanish bo‘yicha videokonferensaloqlar bo‘yicha qo‘llanma”[11] ham ishlab chiqilgan. Dunyo amaliyotida ishni sudga qadar yuritish bosqichida

zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ancha avval boshlangan. Jumladan, Italiyada mafiya gumondorlariga qarshi sularning xavfsizligini ta’minlash maqsadida 1992-yildayoq jinoyat ishlari yuzasidan amalga oshiriladigan protsesslarda videokonferensaloqadan foydalanish tartibi belgilangan. [12]

Respublikamizda ham sud-huquq tizimiga innovatsion texnologiyalarni jalb etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada bir qancha normativ hujjatlar ham qabul qilindi.

2017-yilning 8-fevralida matbuotda e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon[13] bilan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” hamda “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi”da elektron tartibda sud ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini, shu jumladan, protsess ishtirokchilari bilan o‘zaro elektron hamkorlikni amalga oshirish, videokonferensaloqadan foydalanishni, shuningdek, protsessual harakatlarni video, audio qayd etishni, sud-tergov jarayonlarini stenogramma qilishning yangi turlarini kengroq joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beruvchi qonun loyihasini ishlab chiqish nazarda tutildi (73 va 82-bandlar) [14].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (21.10.2016) PF-4850-son, «2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi (28.01.2022) PF-60-son, «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (04.10.2017) PF-5005-son, «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi (30.11.2017) PF-5268-sonli, "Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (28.01.2022) PQ-105-son qarorlari qabul qilindi. Ushbu normativ hujjatlarda jinoyat protsessiga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish borasida amalga oshiriladigan ishlar aniq qilib belgilab berildi.

**Xulosa.** Jinoyat sodir etgan shaxslarning soni yildan yilga ortishi, doimiy yashash joyidan uzoq manzillarga borib jinoyat sodir etuvchi shaxslarning soni ko'payayotganligi, ular bilan bog'liq tergov harakatlarini o'tkazishda surishtiruv va dastlabki tergov organlariga muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Qonunda esa surishtiruv va dastlabki tergov

muddati cheklangan bo'lib, ushbu muddatda shaxsning aybdorligi masalasini hal qilish vazifasi yotadi. Shiddat bilan ildamlayotgan zamonda zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanilgan taqdirdagina uzoq masofada bo'lgan guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchilar bilan bog'liq so'roq qilish, yuzlashtirish va narsa hamda buyumlarni tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish imkoniyatidan foydalanish mumkin. Shu sababli ham bugungi Jinoyat-protsessual qonunchiligidan mavjud bo'lgan tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida amalga oshirish tartibini kengaytirish bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirish zarur.

## ADABIYOTLAR

1. Данеев А.В. Видео-конференц - связь в судебном производстве. file:///C:/Users/hp/Downloads/video-konferents-svyaz-v-sudebnom-proizvodstve.pdf. – Б.3.
2. Уесли Чай. - video conferencing. – Б. 1. <https://www.techtarget.com/searchunifiedcom>.
3. Гречь Д.С. Теоретическое и нормативное определение видеоконференц связи в уголовном судопроизводстве. – Б.8.
4. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ-3723-son. 2018 yil 14 may. <https://lex.uz/docs/3735818> (murojaat vaqt 30.11.2022 yil.) 5. <https://lex.uz/uz/docs/3689258> (murojaat vaqt 29.11.2022 й)
6. Videokonferentsaloqa iqtisodiy sudlarda 1,5 milliard so'mni tejashga yordam berdi. // <https://advokatnews.uz/xabar/585.html>
7. PQ-4818-son "Sud hokimiysi organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/4979896>.
8. <https://kun.uz/news/2022/03/08/2021-yilda-sodir-etylgan-jinoyatlar>
9. Архипова Е.А. Применение видеоконференцсвязи в уголовном судопроизводстве России и зарубежных стран. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. М.:2013г
10. Thomas W./ECBA: Principles on the Use of Video-Conferencing in Criminal Cases. <https://eucrim.eu/news/ecba-principles-use-video-conferencing-criminal-cases/> 28.12.2020
11. Manual on Videoconferencing Legal and Practical Use in Criminal Cases. -B.:2017 [https://www.unodc.org/documents/organized-crime/GPTOC/GPTOC2/MANUAL\\_VIDEOCONFERENCING.pdf](https://www.unodc.org/documents/organized-crime/GPTOC/GPTOC2/MANUAL_VIDEOCONFERENCING.pdf)
12. Van der Vlis, E.-J. (2011). Videoconferencing in criminal proceedings. In Braun, S. & J. L. Taylor (Eds.), Videoconference and remote interpreting in criminal proceedings. Guildford: University of Surrey, 11-25. [http://www.videoconference-interpreting.net/wp-content/uploads/2014/04/02\\_vanderVlis.pdf](http://www.videoconference-interpreting.net/wp-content/uploads/2014/04/02_vanderVlis.pdf).
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2017-yil 13-fevral, 6-son, 70-modda.
14. Po'latov B.X. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda oshkoraliq tamoyili va jamoatchilik nazoratini ta'minlashning dolzarb masalalari (monografiya). – T., 2019. – B.77. <https://uzmarkaz.uz/uploads/2020/06/fukoraliksudislarininmonografia.pdf>

**ANNOTATSIYA**

Hozirgi dunyoda manfaatlar to'qnashuvi tobora avj olayotgan bir paytda geosiyosiy nuqtayi nazardan Markaziy Osiyo xavfsizligi va barqaror taraqqiyoti dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday murakkab sharoitda mintaqqa xalqlarining birligi, millatlararo munosabatlarning mustahkamligi zaruratga aylanmoqda. Tarixiy taqdiri bir bo'lgan qardosh xalqlarning buguni va istiqboli ularning o'zaro bir-birini tushunishiga, mintaqqa yaxlitligi va manfaatlari atrofida qay darajada jipsligiga bog'liq. Maqolada ushbu masala qardoshlikning bir necha mingyillik tajribalari va bugungi ehtiyojlar doirasida tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik, millat, millatlararo munosabatlar, sivilizatsiya.

**АННОТАЦИЯ**

В настоящие времена, когда в современном мире нарастает конфликт интересов, безопасность и стабильное развитие Центральной Азии с геополитической точки зрения приобретает актуальное значение. В такой сложной ситуации единство народов региона и укрепление межэтнических отношений становится необходимостью. Сегодня и будущее братских народов с единой исторической судьбой зависит от их понимания друг друга, от того, насколько они сплотятся вокруг целостности и интересов региона. В статье этот вопрос анализируется в рамках многолетнего опыта братства и сегодняшних потребностей.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, безопасность, региональная безопасность, нация, межэтнические отношения, цивилизация.

**ANNOTATION**

At the present time, when a conflict of interests is growing in the modern world, the security and stable development of Central Asia from a geopolitical point of view is becoming relevant. In such a difficult situation, the unity of the peoples of the region and the strengthening of interethnic relations become a necessity. Today, the future of fraternal peoples with a common historical destiny depends on their understanding of each other, on how much they will rally around the integrity and interests of the region. This article analyzes this issue within the framework of several thousand brotherhood experiences and today's needs.

**Key words:** Central Asia, security, regional security, nation, interethnic relations, civilization.

Million yillardirki, tarix charxpalagi tinmay aylanadi. Hayot goh u, goh bu tarzda davom etmoqda. Olis o‘tmish kishilik jamiyatining turli ko‘rinishlariga, turli holatlariga guvoh. Darhaqiqat, ming yillar mobaynida xalqlar vujudga keldi, millatlar shakllandi. Faqat turlituman maqsadlar yo‘lida ular goh qovushib, birlashib ketishdi. Goh raqibga aylanib, bir-birini mavh etishgacha urinishdi. Biroq bir qavmga daxldor bo‘lgan xalqlarning haqiqiy milliy yaqinligi, ruhiy mushtarakligi, ma’naviy uyg‘unligi hech qachon o‘z kuchini yo‘qotmadi, aksincha, u turli davrlarda turli jang-u jadallarda toblandi. Tafakkur, aql-idrok qilichdan ustun keldi. To‘g‘ri, son-sanoqsiz bosqinchiliklar tufayli parokanda bo‘lgan, milliy ravnaq yo‘li to‘silgan, milliy ong, o‘zligini ko‘rsatish imkoniyatlari cheklangan, to‘s-to‘polonlar ta’sirida birmuncha ojizlanib, ma’yuslanib qolishgan. Ammo asrlarning qat-qatida taraqqiyot, milliy ravnaq, uyg‘onish, o‘zligini anglash solnomasi yangidan-yangi mazmun bilan boyib borgan.

Markaziy Osiyo ham ana shunday turli qirg‘inbarot urushlarga maydon bo‘lgan ne-ne tajovuzlarni, bosqinchiliklarni, mustamlakachilik va zo‘ravonliklarni ko‘rgan. Bunga ko‘hna tarix guvoh. Biroq, bu zamin egalari ana shu ziddiyatlarning hammasiga bardosh berib yashashdi. Ona zamin, ona yurt mehrini hech narsaga almashmadi. Aksincha, uni hamma narsadan baland tutdi. O‘zligini himoya qilishdi. O‘z sha’nini, o‘z tarixiy shuhratini, olamshumul obro‘-e’tiborini ulug‘lashdi.

Yaqin o‘tmishimizga bir nazar solaylik. Bir necha mingyilliklar mobaynida joni joniga, qoni qoniga payvand bo‘lib ketgan Markaziy Osiyo,

qidimiyy Turon xalqlari sobiq SSSR davrida turli millatlarga bo‘lib yuborildi, turli mamlakatlar barpo etildi. Bu soxta siyosat tufayli an’analari, turmush tarzi, ruhiy va ma’naviy qadriyatları bir bo‘lgan xalqlar o‘zbeg-u qozoqqa, tojig-u qirg‘iz-u turkmanga bo‘lib yuborildi. Albatta, mazkur millatlar o‘tgan yetmish yildan ko‘proq vaqt mobaynida shakllandi, ularning tili, madaniyati rivojlandi. Har bir millatning milliy taraqqiyotiga zamin yaratildi. Bunga shubha yo‘q. Endi ularni butunlay birlashtirib yuborish milliy qadriyatarni toptash bilan barobar. Bunday hodisa zo‘ravonlik va tazyiq qilishdan boshqa narsa emas. Biroq masalaning boshqa tomoni ham bor. Jumladan, Sobiq Ittifoq tarqalgach, vujudga kelgan mustaqil davlatlar o‘z tarixiy kelib chiqishlari, xalqlarning boy o‘tmishi, ma’naviy va ruhiy ehtiyojlari nuqtayi nazaridan ularni o‘zaro yaqinlashtirish hayotiy zaruratga aylandi.

Markaziy Osiyo xalqlari ruhiyati asrlar mobaynida bir-biriga tutashib, ma’naviy, diniy va axloqiy munosabatlari uyg‘unlashib ketgan, yashash tarzi va urf-odatlari mushtarak bo‘lib, yagona, ulkan va jonli vujudga aylangan edi. Shuning natijasida qondosh-u jondoshlik, bir butunlik an’analari tarkib topdi.

Ma’naviy, ruhiy va fikriy yaqinlik hamisha, hamma narsadan ustun kelgan. Shuning uchun ham donolar “Kishini do‘stlar ichidagi qashshoqlik, yotlar orasidagi to‘kinchilikdan ko‘ra ko‘proq baxtli qiladi” deyishgan. Bu asrlar mobaynida ajdodlarimiz sinovidan o‘tgan hodisa.

Bizning millat, millatlararo munosabatlar, milliy madaniyat, yaqin qardosh xalqlarning madaniy merosi, etnik muammolari, jo‘g‘rofiy va iqtisodiy birligi haqidagi tasavvurlarmiz o‘zgarmoqda. Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xalqlari tarixi, ularning kelib chiqishi, o‘ziga xos turmush tarzi va yaqin qo‘shnichilik munosabatlariga har doimgidan boshqacharoq qarashni taqozo etmoqda. Zero, etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan, tarixan bir muhitda yashab, o‘tmish madaniyati bir zaminda vujudga kelgan, biroq ayni paytda mustaqil davlat bo‘lib yashayotgan mamlakatlar o‘zining tarixiy ildizlarini qidirib topishini, o‘zaro hamkorlik munosabatlarini qaytadan tiklashini hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Qolaversa, hozirgi rivojlangan mamlakatlarda

davlatlararo mintaqiy hamkorlik siyosiy va iqtisodiy mazmundan birmuncha chuqurroq – ma'naviy-ruhiy mazmun kasb etmoqda. Bu hozirgi zamон jahon sivilizatsiyasining eng ilg'or yo'nalishlaridan biri sifatida tan olinmoqda. Non do'sting bo'lmasin, jon do'sting bo'lsin, degan sharqona aqida butun mohiyati bilan dunyo sarhadlarida o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Darhaqiqat, ma'naviyatga asoslangan irlsiy va ruhiy ildizlari bir bo'lgan do'stlik va hamkorlik har qanday moddiyatdan va tor "milliy" tushunchalardan ustun turadi.

Millatlararo munosabatlар hamma vaqt madaniy merosni o'rganish, turli millat va elatlarni ma'naviy yaqinlashtirish asosida yuksak ma'naviyat va madaniyat jamiyatini vujudga keltirishga tayanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari har tomonlama taraqqiyoti jahonning boshqa mamlakatlaridan farqli holda ma'naviy va madaniy hamkorlikka ko'proq asoslanadi. Chunki bu hududda asrlar mobaynida xalqlar dunyoqarashi va turmush tarzi ma'naviyat, axloq, ta'lim-tarbiya va madaniyatni bosh mezon qilib olgan edi. Axloq har qanday muhitda ham insoniylik va insoniy barkamollikning bosh tamoyili sifatida tan olingan. Qolgan barcha harakatlar va mezonlar, jumladan, iqtisodiy hamkorlik, o'zaro yordam, bozor munosabatlari, savdo-sotiq, mol ayrboshlash ham qadimdan yuksak axloq va odobga tayangan madaniy munosabatlarning bir qismi hisoblangan. Bu ming yillar mobaynida shakllanib, jahon sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan ulug' allomalar hayoti va ijodida, ularning insoniyat tarixida burilish yasagan asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham Sharq allomalari dunyoviy fanlarning qaysi sohasida ijod qilishmasin, axloq kategoriyasiga qattiq suyanishgan hamda unga katta e'tibor bilan qarab, o'zlarining qomusiy xulosalari bilan boyitib borishgan.

Kishilik tarixida sivilizatsiya dunyoning turli mintaqalarida turli shaklda yuz bergen. Va ana shu hudud aholisi ruhiyatiga o'zining kuchli ta'sirini o'tkazgan. Xalq dunyoqarashi va turmush tarziga singib borgan. Jumladan, sivilizatsiya Yunonistonda nafosat, Hindisonda din, Yevropada moddiy texnika, Turonda esa axloq shaklida vujudga kelgan. Natijada yunonlar ongi va ruhiyatida go'zallikka, nafosatga intilish,

san'at va madaniyatga ehtiyoj katta bo'lgan. Hozir ham shunday. Hindistonda turli din va mazhablar ko'payib, aqidalar va taqvodorlik shakllari turlicha bo'lgan. Hozirgi kunda ham ular turli narsalarda Ollohn'i ko'radi va unga sig'inadi.

Yevropada esa sivilizatsiya jarayoni ancha keyin moddiy texnika shaklida yuz berdi. Moddiy manfaatdorlik, umrni rohat-farog'atda o'tkazish kayfiyati ma'naviy axloqiy qadriyatlarni chetga surib qo'ydi. Yaxshi yashashga intilish fan-texnika taraqqiyotiga olib keldi. Boshqa mintaqalarga nisbatan, Yevropa jadal rivojlandi.

Qadimi Turonda azaldan axloqqa katta e'tibor bilan qaralgan. Yuksak insoniy fazilat, insonni millatidan qat'i nazar, barcha mavjudotlarning sarvari sifatida qadrlash, ma'naviy kamolot va yetuklik,adolat, insof, diyonat va imon kabi sifatlar tiriklikning bosh mazmuni sifatida tushunilgan. Xalqlarimiz dunyoqarashi, maqsad va intilishlarini o'zida ifoda etgan xalq og'zaki ijodi namunalari ham shu zamin ahlining butun ruhiyatini qamrab olgan. Jumladan, o'zbek, qozoq va qoraqalpoq xalqlarida "Alpomish", turkman, ozarboyjon o'lkasida, Xorazm va Toshkentda "Go'ro'g'li" dostonlarining, qirg'izlarda "Manas" xalq eposining vujudga kelishi, ularda qariyb bir xil – ezgulik va yovuzlik, yaxshilik bilan yomonlikning o'zaro kurashi, oxir-oqibatda esa ezgulik va yaxshilikning tantanasi, donishmandlik, aql-idrok, xushxulq va xushfe'lllik asosiy omil, bosh maqsad qilib olinganligi ana shu xalqlar qarashlarining uyg'unligidan dalolat beradi.

Yozma adabiyotda esa Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi singari falsafiy-axloqiy g'oyalilar, forsiylarda Umar Hayyom, Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Sa'diy Sherzoziy, o'zbeklarda Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Navoiy, qozoqlarda Abay, turkmanlarda Maxtumquli o'gitlari vujudga keldi va dunyo madaniyati taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Dunyoviy ilmlar va kishilik tarixi rivojiga asos bo'ldi.

Mazkur xalqlarning tarixiy etnik jihatdan o'tmishi kishilik tarixining muqaddimasiga borib taqaladi. Ming yillar mobaynida hali quidorlik paytidayoq O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari yagona turmush tarzini boshdan kechirishgan, Misr va Vavilon bilan yonma-yon qadimiy Baqtriya va So'g'diyona davlatchiligi vujudga kelgan. Ajodolarimiz – ota-

bobolarimiz eramizdan oldingi mingyilliklarda ham turli tajovuzlarga qarshi kurashishgan. Yunonlar ham, arablar ham, mo'g'ul va boshqa istilochilar ham xalqlarimiz qadimiy an'analarini yo'qota olishmagan. Baqtriyaliklar, so'g'diyilar, xorazmliklar, o'g'uzlar va boshqa xalqlar benom-u nishon, izsiz yo'qolib ketmadilar. Ular o'z urf-odatlarini, an'analarini muqaddas bilib davom ettirdilar. Turli asrlarda, turli davrlarda yangicha sharoitlarda uni boyitib bordilar, sayqal berib, mazmun mohiyatini kengaytirib bordilar. Til – xalqlarni yaqinlashtiruvchi eng qudratli va eng ta'sirchan vosita, til – qalb va ruh asosida vujudga keladi va tafakkurni ifodalaydi. U o'zida insonning jamiki his-tuyg'ularini, aql-idrokini, fikr-borlig'ini mujassam etadi, ayni paytda ularni ifodalab beradi, ko'ngillarni ko'ngillarga bog'lab, qarashlarni uyg'unlashtiradigan qudratli vosita.

Qadimdan bir daryodan suv ichib, bir zaminda shakllangan turkiyzabon xalqlar jamiki iqtisodiy-ijtimoiy manfaatlар birligidan tashqari, ma'naviy jihatdan ham yaqin edilar, ularni umumiyl til birlashtirib turar edi. Chunonchi, Turonda fors tili she'riyat, adabiyot va san'at tili, arab tili fan tili, turkiy til esa davlat va harbiy til sifatida baravar yuritilgan va bir xil maqomga ega bo'lgan. Shu uch tildan birini bilmagan har qanday kishi madaniyatsiz hisoblangan. Shuning uchun ham xoh harbiy, xoh boshqa soha kishisi bo'lsin, bu ulkan hududda hamma baravar uch tilda gapirib, uch tilda yoza olgan. Ibn Sino yoki Beruniy asarlarini arab tilida o'qigan odam Sa'diy yoki Hofiz she'riyatini ham, Umar Hayyom falsafasini ham, davlat boshqaruvi rasmiy tilini ham to'la tushungan va mukammal bilgan. Ana shu uch til mushtarakligi tufayli bir hududda turkiylarning ko'pdan-ko'p qavmlari bilan birga forsiylar ham mushtarak orzu-umidlar bilan yashashgan. Ularning azaliy va abadiy taqdirlari ana shu zaylda yuzaga kelgan va bizgacha yetib kelgan.

Ruhiy, ma'naviy yaqinlik jahon tarixidagi buyuk siljishlarga, umuminsoniy qadriyatlarning keskin rivojlanishiga sabab bo'lgan. Chunki xuddi ana shu yuksak insoniy fazilatlar barq urgan, jamiki xatti-harakatlar yuksak axloq va ma'naviyatga asoslangan bir sharoitda dunyoviy ilmlarning yangi mo'jizaviy kashfiyotlari yaratilgan. Butun dunyo ahli ongi va tafakkurida tub burilish yasalgan.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida, ayniqsa,

G'aznaviylar, Saljuqiylar va Temuriylar sulolalari alohida o'rinn tutadi. Bu uch avlod nafaqat Turonda, balki Afg'oniston, Eron va Hind diyorini birlashtirib olgan ulkan bir hududda ilm-u urfon, madaniyat, iqtisod va turmush tarzi uchun katta taraqqiyot ishlarini amalga oshirishgan. Bu yerdagi barcha xalqlar birlashib, yagona, buyuk, olamshumul madaniyat yaratdilar. Sovet mafkurasi bizni o'tmishimizni qoralashga, tariximizni soxtalashtirishga o'rgatdi. Sho'ro hukumati va kommunistik mafkura bizni shunday tarbiyalagan. Ongimizga ana shunday qarashlarni singdirgan edi. Yangilanayogan O'zbekiston sharoitida yangilanayotgan tafakkur orqali azaliy va abadiy qadriyatlarni qaytayapmiz. O'tmishdagi ajdodlarimiz insoniyat hayotiga madaniyat olib kirgan buyuk Renessans hodisalarini amalga oshirishgan. Jumladan, yuqorida tilga olingan uch avlod faqat jahongirlik da'vo qilishmagan, mamlakatlarni zabit etish va mustamlakachilik bilan shug'ullanishmagan. Tasarruflariga olgan mamlakatlarda zo'rlik bilan o'z tillarini joriy etishmagan, aksincha, ular har bir millatning o'z milliy tili va madaniyati taraqqiyotiga yo'l oshib berdilar. Birgina misol keltiraylik: Mahmud G'aznaviy haqida, uning dono va xalqchil davlatchiligi to'g'risida o'z davrining Furruiy, Unsuriy singari tarix tan olgan to'rt yuzdan ortiq shoir asar yozgan! Bu bejiz emas, ana shu davrda demokratik tamoyillar va aholi umumiyl maqsadlarini birlashtirish g'oyalari ustuvorlik qilgan.

Mingdan ming taassuf bilan shuni aytish kerakki, Sobiq SSSR hukmronligi paytida millatlar maydalashtirilib, umumiyl qarashlar o'rtasida "Xitoy devori" tiklandi. Natijada, ongimiz va tushunchalarimizga chegara solindi, milliy mahdudlik qobig'ida biqinib qoldik. Mayda narsalar atrofida o'ralashib, shunga yarasha mayda fikrlaydigan holatga tushdik, oxir-oqibatda o'zimiz ham maydalashib ketdik. Ya'ni, nima Qozog'istonniki, nima O'zbekistonnniki? Kim qayerda tug'ilgan-u qaysi tilda ijod qilgan? Endi u qaysi millatga mansub? Forobiy o'zbekmi qozoq? Ibn Sino tojikmi, o'zbek? Bunday savollar atrofida yillab tortishdik, umrimiz-u imkoniyatlarni ana shunday mayda va asossiz munozaralarga sarfladik. Bundan esa faqat "ulug' og'achilik" siyosatini yurituvchilargina foydalanishdi, xolos. Vaholanki, ulug' ajdodlarimiz bunchalik

mayda bo'lishmagan edi. Ular uchun butun insoniyat bitta odam edi. Inson baxt-u saodati, to'kis va farovon hayoti, armonsiz umri haqida o'ylashgan edi. Biz ularni maydalashtirib yubordik. Qadimiy madaniy meros qaysidir madrasaning siniq g'ishtidan tortib, ulkan devonlar-u qo'lyozmalargacha, hamma-hammasi ana shu mintaqada tarixan birga yashab kelgan va hozirgacha yashab kelayotgan har bir millatni ekanligini tushunmog'imiz kerak. Axir bu noyob olamshumul madaniy yodgorliklar yaratilgan paytda hozirgi chegaralar-u mamlakatlar yo'q edi. Hozirgi o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz va turkman millatiga mansub xalqlar bir necha mingyllik umumiylar tarixiy taraqqiyotimizni, saodatli va sitamli o'tmishimizni, buyuk kashfiyotlardan tortib, tanazzullarimizgacha bo'lgan hodisalarini o'zida ifoda etadi.

Hozirgi voqelik Markaziy Osiyo davlatlarining umumiylarini yakdilligi, chegaralarining ochiqligi, xalqlarimizning erkin kirib-chiqish imkoniyati tariximizga ham, olis istiqbolimizga ham, ajdodlarimizga xos donishmandlik bilan, ma'naviy va axloqiy yuksaklikdan turib qarashning ehtiyoji sifatida yuzaga keldi. Markaziy Osiyo xalqlarini birlashtirib turadigan, ularning etnogenetik asoslaridan kelib chiqadigan tarixiy saboq bor. Bu bevosita ulug' ajdodlarimiz qarashlari va orzu-umidlarini chuqurroq o'rganish bilan bog'liq bo'lgan katta ilmiy, ma'rifiy, ma'naviy va axloqiy hodisa. Ular hech qachon tor mahalliychilik doirasida yashashmagan. Har qanday mamlakatlar, chegaralar va millatlar manfaatidan ustun turgan umumdunyoviy va umuminsoniy muammolar ijtimoiy taraqqiyot, kishilik hayotining mazmun-mohiyati, mantig'i, olam-u odamlar tashvishi bilan yashashgan. Natijada fanda olamshumul kashfiyotlar, san'at va adabiyotda mislsiz ko'tarilishlar, ma'naviyat va axloqda yetuklik, davlatchilik va boshqaruvda g'oyat insonparvarlik vaadolat qaror topgan, tiriklikning ulkan bir qismida Markaziy va Janubiy Osiyoda yuksak taraqqiyot yuz bergan.

To'g'ri, Turon hayoti hamma vaqt ham sokin va osoyishta bo'lмаган. Bu yerda turli davrlarda turli jang-u jadallar yuz berib turgan. Kimlardir qurbanini kimlardir buzgan, vayronagarchiliklar bo'lgan. Biroq bunday hodisalar mintaqaga aholisi manfaatlariga zid, maqsadlariga mos kelmaydigan holatlardir. Markaziy Osiyo

mamlakatlari hamkorligini vujudga keltirish, ularning suverenitetini to'la hurmat qilgan holda, qadimdan hamkor-u hamfikr bo'lgan xalqlarni yaqinlashtirish va shu asosda murakkab ijtimoiy, hayotiy muammolarni birgalikda hal qilish yangi renessans hodisasini rag'batlantiruvchi holat deyish mumkin. Ayni paytda bu mintaqaga xalqlarining o'zaro yaqinlashuviga, ma'naviy-ruhiy quvvat olishiga va ijtimoiy hayot mazmundorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayni paytda hududda sog'lom ma'naviy-ruhiy vaziyat yuzaga keladi.

Hozirgi zamon jahon taraqqiyoti shundan dalolat beradiki, hech bir mamlakat yakka o'zi boshqa davlatlar, xususan, yaqin qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlik qilmasdan rivojlana olmaydi. O'z xalqi ehtiyojlarini har tomonlama qondirish imkoniyatiga ega bo'la olmaydi. U qaysidir mamlakat bilan hamkorlik qilishi, qo'shni davlatlar bilan umumiylarini bozorni vujudga keltirishi, mahsulot ayriboshlashi, transport-kommunikatsiya, aloqa, savdo, fan va madaniyat sohasida, ijtimoiy sohaning boshqa yo'nalişlarida birgalikdagi sa'y-harakatlarini chuqurlashtirishni taqozo etadi. Ana shunday yo'ldan bormagan mamlakatlar ham mayjud. Jumladan, Afrikadagi Somali, Sudan, Zambiya va boshqa mamlakatlarda faqat o'z kuchlari va imkoniyatlariga tayanib ish tutish naqadar ayanchli ekanligini ko'rsatdi. Bu mamlakatlarda urug'-aymoqchilik, toj-u taxt uchun kurash tashqi qarzlarning ko'payishiga, ommaning kambag'allashib, qashshoqlashib borishiga, qolaversa, mamlakat boshqaruvining izdan chiqishiga olib keldi.

Qadimiy Turon hududidagi besh mamlakatning o'zaro hamkorligi zamonaqiy sivilizatsiyaning ehtiyoji. U jiddiy siyosi, iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyot yo'li! Milliy ravnaq, tinch-totuv yashash, o'zlikni namoyon qilish siyosati! Har tomonlama rivojlanish va porloq istiqbol sari qo'yilgan samarali, ishonli qadam. Qudratli, yetuk va shakllangan iqtisodiy ittifoqni vujudga keltirish ana shu mintaqaga xalqlari hayotida muhim burilish yasash bilan barobar.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo xonadoni – qadimiy xonadon. U nurli, fayzli, shukuhli, barakali xonadon. U o'z shonli tarixiga, buyuk an'analariga, dunyoviy madaniyatiga ega bo'lgan ulkan va fayzli oila. Ana shu mintaqada hozir mavjud bo'lgan tarixiy an'analarini davom ettirish,

uni yangi tarixiy sharoitlarda boyitib borish, kelgusi avlodga har tomonlama yetuk, barkamol jamiyatni meros qoldirish hammamizning burchimiz. Tarixiy taqdir bizga Markaziy Osiyodek serquyosh, tarovatli, muruvvatli, bitmas-tuganmas boyliklarga makon bo‘lgan

zaminni hadya etdi. Mintaqadagi tabiiy, geografik imkoniyatlar behisob ana shunday qutlug‘ makon uzoq ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib qoldi. Uni bus-butunligicha, butun mahobati va salobati bilan olis kelajakka hadya etish hammamizning burchimiz.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi 4947-sonli Farmoni // Xalq so‘zi. 2017 yil 8 fevral/
3. Otamurodov S. Globallashuv va millat (siyosiy–falsafiy tahlil). – T.: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 116.
4. Ochildiyev A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlар. – T.: O‘zbekiston, 2004.
5. Musayev O.R. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari. Fal.fan.doktori diss-yasi avtoref. – T., 2017. – B. 46.

# SIYOSIY MODERNIZATSIYADA YUZAGA KELADIGAN INQIROZLARNING YECHIMLARI

*OMONOV  
Baxtiyor,  
O'zbekiston Milliy  
universiteti professori,  
siyosiy fanlar doktori (DSc)*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada an'anaviy jamiyatni zamnaviy modernizatsiyalashgan jamiyatga aylantirish, transformatsiyalash davridagi tabiiy inqirozlar, muammolar tahlil etiladi va ilmiy xulosalar chiqariladi.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, modernizatsiya, globalashuv, demokratiya, legitim, jarayon, hokimiyat, fuqaro, inqiroz, raqobat, elita.

## АННОТАЦИЯ

В статье анализируется трансформация традиционного общества в современное модернизированное общество, естественные кризисы и проблемы периода трансформации, а также делаются научные выводы.

**Ключевые слова:** общество, модернизация, глобализация, демократия, легитимность, процесс, власть, гражданство, кризис, конкуренция, элита.

## ANNOTATION

This article analyzes the transformation of a traditional society into a modern modernized society, natural crises and problems of the transformation period, and also draws scientific conclusions.

**Key words:** society, modernization, globalization, democracy, legitimacy, process, power, citizenship, crisis, competition, elite.

jipslikka ta’sir qiladi, etnik va submilliy mansublik ziddiyatlari ham kuchayadi [2]”.

2. *Modernizatsiyaning legitim inqirozi*. Siyosiy hokimiyat jamiyatdagi ayrim guruhlarga siyosiy qarirlarni qabul qilishga ruxsat bermaydi, an’anaviy institutlar tahdidiga uchraydi, jamiyat bilan hukumat o‘rtasida hamjihatlik yo‘qoladi, fuqarolar qarirlarni qabul qilishda loqaydlikka o‘tadilar, siyosiy hokimiyat uchun kurashda raqobat kuchayadi, ommaning siyosiy passivligi, hukmron elitaning siyosiy sultanatni saqlab qolishga qodir emasligi ko‘zga tashlanadi [3].

3. *Modernizatsiyaning sheriklik inqirozi*. Siyosiy qarirlarni qabul qilish jarayoniga ruxsat olishdan manfaatdor guruhlarning soni oshadi, sheriklar siyosiy hokimiyat uchun kurashni kuchaytiradi, manfaatdor guruhlarning jamiyatda o‘rnini topolmagani oqibatida, siyosiy tizimning rivoji sustlashadi, muxolifat guruhlarning keskin radikallashuv jarayoni yuz beradi, bular esa siyosiy beqarorlikka olib keladi. Bunday vaziyatda elitaning siyosiy muxolifatga munosabatini tartibga soluvchi uch holat ko‘rib chiqiladi: birinchisi, kuch ishlatish yo‘li bilan muxolifatga ommaviy bosim o‘tkazish (Pinochet davrida Chilidagi voqealar) [4]; ikkinchisi, muxolifatni qonun doirasida e’tirof etish; uchinchisi, nafaqat muxolifatni “de-yure” tarzida tan olish, balki u bilan birga siyosiy qarirlarni qabul qilish jarayonida ishtirok etish [5].

4. *Modernizatsiyaning singurchanlik inqirozi*. Davlat boshqaruvi resurslarining pasayib ketishi natijasida ijtimoiy sohaga ko‘rsatmalarni singdirish qiyin kechadi, jamiyatda tabaqlashuv kuchayadi.

5. *Modernizatsiyaning taqsimot inqirozi*. Boshqaruvchi elitaning jamiyat moddiy farovonligini oshirish va resurslarni taqsimlashga qodir emasligi ma’lum bo‘ladi. Masalan, Lotin Amerikasida jamiyatning marginallashuvi(chekkada turish) kuchli mulkiy tabaqlashuvni keltirib chiqardi, shunda Braziliya, Chilida kambag‘allar soni va ulushi qisqarishi Meksika, Venesuelada mulkdorlarning ortib borishi evaziga yopildi.

## Materiallar va metodlar.

Tadqiqotimizni amalga oshirish jarayonida[1] modernizatsiyaning quyidagi inqiroz holatlari aniqlandi:

1. *Modernizatsiyaning o‘xshashlik inqirozi*. Unda “mamlakat miqyosida strategik yo‘lni tanlashda milliy va hududiy manfaatlarda ixtilof paydo bo‘ladi, ijtimoiy-sinfiy bo‘linishlar milliy

Siyosiy modernizatsiyalash jarayonida naza-

## Asosiy qism

riya va amaliyot uyg'unligiga erishish murakkab kechadi. Kutilmaganda boshlangan inqirozlar siyosiy jarayonlarga va milliy taraqqiyotga sezilarli ravishda ta'sir o'tkazishi mumkin. Ayniqsa, mamlakat fuqarolarining siyosiy tayyorgarlik darajasi, milliy ongi, madaniyati hisobga olinmasdan boshlangan siyosiy islohotlarda yangi muammolar, ijtimoiy inqirozlar sodir bo'ladi. Bu obyektiv holatni 2005–2019-yillarda arab davlatlarida sodir bo'lgan voqealarning misolida yaqqol ko'ramiz. Masalan, Lotin Amerikasida jamiyatni modernizatsiyalash jarayoniga yuz yildan oshgan bo'lsa-da, u kutilgan samarani bermadi. Jamiyatda ijtimoiy tabaqalashuv, boylar va kambag'allar o'rtasida farq kuchayib ketdi.

Rivojlanayotgan davlatlarda ham islohotlarning tezlashuvi moliyaviy sektorda yangi inqirozlarni vujudga keltirdi. Misol uchun AQSh va Yevropa Ittifoqida (YI) 2001–2008-yillarda moliyaviy bozorni va bank tizimini o'ta liberal lash-tirish jahon miqyosida yirik moliyaviy inqirozga sabab bo'ldi. Demak, fuqarolar va davlat o'rtasida konsensus, kelishuvga erishilmagani taqsimot inqirozini vujudga keltiradi. YI bugunga qadar iqtisodiy taqchillikdan qutula olmadi. 2020-yilgi koronavirus pandemiyasi ham G'arb mamlakatlarini ancha sarosima va tahlikaga solib qo'ydi. Bu qit'ada inqiroz battar kuchayishini bilgan tahvilchilar G'arbning ta'sir doirasi pasayib, XXI asrda Osiyo xalqaro masalalarda borgan sari muhim rol o'ynay boshlaydi, degan xulosaga kelishmoqda. Bu haqiqatga yaqin axborot.

Shuni ta'kidlash lozimki, har bir mamlakatda modernizatsiya taqdiri qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining o'zaro aloqasi, bir-birini tushunishi va tutgan obyektiv pozitsiyasiga bog'liq holda kechadi. Avvalo, ular asosiy funksiyalari va huquqiy maqomini bilib olishi kerak. G'arb tahvilchilari fikricha, uchta tuzilma-da qonun chiqaruvchi hokimiyatning o'rni yuqori turadi. Davlat hokimiyatni taqsimlanish modeliga ko'ra, qonun chiqaruvchi hokimiyat jamiyatda mavjud barcha ijtimoiy guruhlarning vakillik organlarini ta'minlashi, siyosiy qarorlar qabul qilishda sezilarli ta'sir ko'rsatishi lozim. Parlament "davlatning siyosatini belgilaydi" (J.Lokk), "uning faoliyati xalq tomonidan nazorat etilmaydi" (E.Berk)[7]. Demak, qonunchilik tar-mog'ining davlat hokimiyatidagi faol ishtiroki sezilishi, davlat hokimiyatni tizimida bironta kons-

titutsiyaviy islohot parlamentni chetlab o'tmasli-gi lozim.

Ijroiya hokimiyatining jamiyatni modernizatsiyalash jarayonidagi ishtiroki bahsli mavzu deyish mumkin. Taniqli olim E. Xeyvud ijro etuvchi hokimiyatni "byurokratik rahbariyat" deb ataydi. Ulkan byurokratik, ma'muriy apparatdan iborat ijro etuvchi hokimiyatning vazifasi siyosiy qarorlarning amalga oshirilishini nazorat qilishdir. Biroq amaliyotda boshqa funksiyalarni ham o'z zimmasiga oladi. Tahlillarga ko'ra, hukumat faoliyat maydonining ko'lami kun sayin kengayib borar ekan, birinchidan, byurokratik apparat sohalarni samarali boshqarishga professional mahorati yetishmay qoladi, chunki apparatda boshqaruv tajribasi yetarli bo'lmagan xodimlar ko'proq ishlaydi. Ikkinchidan, ular o'z moddiy manfaatini hech qachon unutmaydi, sababi, turli manfaatdor guruhlarning ishini o'zidagi departamentlar nazorat qiladi" [8]. Agar bu holat jiddiy o'rganilsa, hukumatda egoistik manfaatlari kishilar birlashuvi va korrupsiya xavfi tug'ilishi ko'ramiz. Ana shu omil nafaqat milliy iqtisodiyot rivojiga, balki siyosiy modernizatsiyaning tizimli davom etishiga ham xalaqit beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, 2016-yildan boshlab, O'zbekiston hukumati a'zolarining parlament oldida hisob berib turishi tajribasini to'g'ri qaror deb hisoblaymiz.

**Xulosa.** Mazkur maqola yuzasidan quydagiicha xulosalar taqdim etiladi.

**Birinchidan**, siyosiy modernizatsiyalashning zaruriyati shundaki, u davlat va jamiyatning bir pog'ona yuksalishini ta'minlab beradi. Pirovard natijada, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy sohasida ulkan qadamlar va natijalar ko'rina boshlaydi.

**Ikkinchidan**, modernizatsiyalash murakkabligidan bu jarayonni o'tish davridagi kompleks muammolar tuguni bilan birgalikda o'rganish lozim. Jumladan, siyosiy hokimiyatni yangilash, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish, jamiyat a'zolarining siyosiy tafakkuri, iqtisodiy darajasini shakllantirish, xalq bilan ochiq muloqotga kirishish, davlat hokimiyatni organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash vazifalarini to'laqonli hal qilish siyosiy liderdan katta jasoratni talab etadi.

**Uchinchidan**, bugungi kunda jamiyatni modernizatsiyalash har bir mamlakat uchun obyektiv zaruriyat bo‘lib, bu jarayonni bosib o‘tmasdan taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Misol uchun, 1870-yillarga qadar dunyodan ajralib, yopiq jamiyatda yashagan Xitoy, Yaponiya davlatlari modernizatsiyalash orqali jamiyat hayotida ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirib, peshqadam mamlakatga aylanishdi.

**To‘rtinchidan**, Sharq mamlakatlarida milliy qadriyat va an’analarni hisobga olmay turib, g‘arbona modernizatsiya va demokratiyalashni olib

kirish salbiy oqibatlarga olib kelishini amaliyot tasdiqladi.

**Beshinchidan**, siyosiy modernizatsiyaning asosiy maqsadi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro qiluvchi va sud hokimiyatlarini yangilashni qamrab oladi, bunda parlamentning maqomi yuqori bo‘ladi. Modernizatsiyaning birinchi bosqichida o‘rta sinf, an’anaviy instittlarning transformatsiyasi, iqtisodiy rivojlanish, ikkinchi bosqichida erkinlik va demokratiya jarayonlari kechadi.

## ADABIYOTLAR

1. Omonov B. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. – T.: Aloqachi, 2019. – B. 36-38.
2. Золотухин И. Демократизация “по-филиппински”: обзор и анализ основных тенденций внутриполитического развития в период с 1998 по 2004 гг. // Ойкумена, 2007. Вып. 2. – С.27-35.
3. Фетисов А. Политическая власть: проблемы легитимности // Социально - политический журнал. – 1995. №3. – С.101-104.
4. Калишевский М. Августо Пиночет спас Чили на крови // Эксперт, 1998, № 13. – С. 21-22.
5. Философия власти. – М.: Изд-во МГУ, 1993. – С. 110-143.
6. Подберезкин А. Россия сегодня: реальный шанс // Обозреватель. Спец. вып.,1994. № 21-24. – С.538.
7. Politologiya. –Т.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002. – B. 35.
8. Хейвуд Э. Политология (Politics). Учебник для вузов. –М.: ЮНИТИ, 2005. – С 245-267.

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada bag'rikenglik madaniyati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada hozirgi kunda dunyo miqyosida tobora avj olayotgan murosasizlik yoki diniy aqidaparastlikka qarshi kurashda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish borasidagi fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** din, siyosat, bag'rikenglik, dunyo, qadriyat, madaniyat, jamiyat, axloq, tararaqqiyot, hamjihatlik, insonparvarlik, buddaviylik, nasroniylik, Islom.

**АННОТАЦИЯ**

В статье дается научный анализ культуры толерантности и ее роли в развитии общества. Также обсуждается идея формирования культуры толерантности в борьбе с нетерпимостью или религиозным фанатизмом, которая сегодня набирает обороты в мире.

**Ключевые слова:** религия, политика, толерантность, мир, ценности, культура, общество, мораль, прогресс, солидарность, гуманизм, буддизм, христианство, ислам.

**ANNOTATION**

The article provides a scientific analysis of the culture of tolerance and its role in the development of society. The article also discusses the idea of forming a culture of tolerance in the fight against intolerance or religious fanaticism, which is gaining momentum in the world today.

**Key words:** religion, politics, tolerance, peace, values, culture, society, morality, progress, solidarity, humanism, Buddhism, Christianity, Islam.

# BAG'RIKENGLIK MADANIYATI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

*ULUG'OV*

*Abduraim Hamzayevich,  
Respublika Ma'nnaviyat va ma'rifat  
markazi bo'lim boshlig'i*

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Lotincha “tolerantlik” so‘zi o‘zbek tilida “bag‘rikenglik”, arabchada “tasomuh” deb nomlanib, u “sabr, toqat” degan ma’noni anglatadi. Ijtimoiy-siyosiy atama sifatida bu bag‘rikenglik boshqalarning dunyoqarashi, turmush tarzi, xulq-atvori va urf-odatlarini qabul qilishni anglatadi. Bag‘rikenglikni biz hech qachon befarqlik yoki e’tiborsizlik sifatida qabul qilmasligimiz kerak. Bu, shuningdek, boshqalarning dunyoqarashi va turmush tarzini qabul qilishni anglatmaydi, balki boshqalarga o‘z dunyoqarashiga muvofiq yashash huquqini berish bilan xarakterlanadi. Biz bu yerda jamiyatda bag‘rikenglik madaniyati va birga yashash etikasining ahamiyatini aniqlash uchun milliy va diniy madaniyatlar to‘qnashuvining boshlanishiga e’tibor qaratishimiz kerak bo‘ladi. Bu dunyo boshqaruviga qiziqishning ortishi nasroniylik va islomiy to‘qnashuvga olib kelgani sir emas albatta. Xristianlik Septuaginta (70 ta tarjima) orqali Yevropa qit’asiga kirib, Vatikanda katolik cherkoviga asos solgan. Yevropadagi monoteizm butparastlik va nigilik maktablarni jilovlashning kuchli vositasiga aylandi.

Boshqacha qilibaytganda, yangi din birmuncha vaqt Yevropa jamiyatni va davlatchiligining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan har qanday elementlarni yengish uchun birlashtiruvchi omil bo‘lib kelgan. Qolaversa, bir qator Yevropa milliy davlatlari diniy mansubligi asosida iqtisodiy va tijoriy ittifoqqa aylandi. Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyoning madaniy mintaqasida ham xuddi shunday birlik g‘oyasi mavjud edi, u butun yerning geografik atamasi (Moviy g‘ildirak ostida) bilan umuminsoniy jamiyat sifatida ifodalangan edi. Ammo bu yerda diniy asosda kelishuv yo‘q bo‘lgan. Shundan so‘ng, islam dinining paydo bo‘lishi xalqlar va davlatlarning diniy mansubligini asosiy omil sifatida siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning kuchli omiliga aylantirdi. Ya’ni aynan islam armiyasi xristian mamlakatlari va qadimgi madaniyatlar – koptlar, bobilliklar, ossuriylar va forslar tarqalgan mintaqada fathlarni amalgalashdi, ularni islamga qabul qildi va madaniyta’sirini kamaytirdi. Bundan tashqari, ular ellistik madaniyat zonasining katta qismini doimiy ravishda egallab olishdi, bu esa Ispaniyaning Andalusiya provinsiyasi orqali Yevropaning umumiy xavfsizligiga jiddiy

**Kirish.** Hozirgi kunga qadar murosasizlik yoki diniy aqidaparastlikning mavjudligi ularning manfaatdor davlatlar qo‘lida kamsitishning ta’sirli vositasi sifatida ishlatalishi ehtimolini yuzaga keltiradi. Shu sababdan, azaldan yashirin siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan din me’yorlari va milliy qadriyatlarni tarqatish uchun “mubashshir” deb nomlangan targ‘ibot guruhlari faoliyatida noto‘g‘ri xatti-harakatlar sodir bo‘lgan.

Insoniyatning qadimgi tarixida O‘rta yer dengizi madaniyatida globallashuvning bиринчи belgilari Aleksandr Makedonskiyning g‘oyalari va ellistik madaniyatning shakllanishi orqali paydo bo‘lgan. Shu tariqa, Rim imperiyasi O‘rta yer dengizi havzasida o‘z gegemonligini mustahkamlab, turli madaniyatlarning chuqur uyg‘unlashuvni va hududiy mehnat taqsimoti, migratsiya va muomalani o‘rnatdi, ularning ta’siri bugungi kunda ham mavjud.

Inson tajribasiga asoslanib, sobiq ittifoq respublikalari o‘rtasida turli xil diniy va mazhabiy harakatlarni namoyishetish va tarqatishgao ‘xshash urinishlar kuchaygan, ular asosan jamiyatni ichidan turib kuchsizlantirishga qaratilgan edi. Sovet Ittifoqida ateizmni davlat darajasida qo‘llab-quvvatlashi tufayli, mustaqillikka erishish jarayonining boshida, diniy xarakterdagi har qanday targ‘ibot tahlil qilinmasdan qabul qilindi va barcha din vakillari orasida bu siyosat keskin tanqid qilindi. Ayni shu munosabat davlat, jamiyat va shaxs hayotida bag‘rikenglik ana’nalarini inqiroziga olib keldi. Payg‘ambarimiz (s.a.v.)-ning “Dinda chuqur ketishdan saqlaning. Sizlardan oldingilar dinda chuqur ketishdan halok bo‘lganlar”<sup>[1]</sup>, “Musulmon uchun o‘z birodarini qo‘rqitish halol emas”<sup>[2]</sup> degan hadislari islam dini bag‘rikenglik g‘oyalaringin bugungi kundagi ahamiyati qanchalik darajada yuqori ekanligini ko‘rsatib turibdi.

xavf tug'dirdi. Islom o'z tabiatida keng diniy fundamentalizmning mohiyatini namoyon etdi. Bu vogelik iqtisodiy, diniy va siyosiy integratsiya asosida "Salib yurishlari" deb nomlangan Yevropa davlatlarining birinchi ittifoqini Islomning kengayishiga va Muqaddas Vatan ozod qilinishiga qarshilik sifatida paydo bo'lishiga olib keldi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** O'rta asrlar sharoitida teokratik musulmon imperiyalari mustahkamlana boshladi. Bu paytga kelib O'rta yer dengizidagi xristian va islom olamlarining qarshiligi doimiy bo'lib qoldi. Va har ikki tomon ham munozaralarda asosiy pozitsiyani egallagan edi. O'zda volarini isbotlash uchun ular muqaddas matnlarga tayanishdi, bu esa dinlarga fundamentalistik yondashuvni vujudga keltirdi. Har bir tomon samoviy kitoblarining muqaddasligi asosida o'z huquqlarini talab qilmoqchi bo'lgan. Arablar esa o'z navbatida Islom payg'ambarining (Muhammad s.a.v.) qiyofasini, musulmon madaniyatini, Qur'on va Sunnatni ko'z qorachig'idek himoya qildilar. Shu bilan birga, arab tili global kuchga aylandi. Boshqa tomondan, yarimorolning arab qabilalari mavjud bo'lish tarixida bu kashfiyotdan boshqa hech narsaga ega bo'lman va bu diniy va milliy g'oya atrofida birlashganlar. Bu xattiharakatlar yangilik bo'lman va bu boshqa dinlar an'analarining bir qismi bo'lgan xolos. Barcha dinlarda diniy ta'limotning uch tomonlama konsepsiysi mavjud (germenevtik uchlik) – muqaddas matn, talqin va qo'llanilish. Shu nuqtayi nazardan, fundamentalistik yondashuv inqirozli vaziyatlardagi muammolarni Bibliya matnidagi mavzu nuqtayi nazardan ataylab baholashga intiladi. Bunday talqin qilish variantlari, ya'ni masalani turli dinlarning pozitsiyasiga qarab talqin qilish va uni turli geografik sharoitda amalda qo'llash kamdan-kam hollarda hisobga olinadi. Shu nuqtayi nazardan, fundamentalistik g'oyalarning siyosiy vosita sifatida globallashuv jarayonlari bilan uyg'unligi bag'rikenglik g'oyasi mavjud bo'lishiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Eng yomoni, rivojlangan davlatlar musulmon kishilari qadriyatlariga siyosiy texnologiya shlyapasini kiydirishni xohlaydilar, bunga Yaqin Sharqdagi siyosiy va xavfsizlik bilan bog'liq xavfli vaziyat yaqqol namuna bo'ladi. Bu jarayonning terrorchilik harakatlari ko'rinishidagi salbiy ta'siri hozirda boshqa mamlakatlarga ham keng

tarqalmoqda. Shu bois ham bunday buzg'unchilik va tajovuzkorlik haqida Qur'oni karimning Baqara surasi 190-oyatida shunday deyiladi: "Albatta, Olloh haddan oshuvchilarni (tajovuzkorlarni) yomon ko'rgay", [3]. Niso surasining 93-oyati ham shunga hamohangdir: "Kimda-kim qasddan bir mo'minni o'ldirsa, uning jazosi jahannamda abadiy qolishdir. Yana unga Olloh g'azab qilgay, la'natlagay va unga ulkan azobni tayyorlab qo'ygay" [4]. Mazkur oyati karimalarda, birinchi navbatda, Olloh tomonidan ato etilgan insонning hayoti daxlsiz ekani bayon qilinadi. Unga nisbatan har qanday tajovuz kechirilmas gunoh bo'lib, uni sodir etgan kishi abadiy jahannamda qolishi muqarrarligi asoslangan. Qasos surasi 77-oyatida: "Yer yuzida buzg'unchilikni izlama. Albatta, Olloh buzg'unchilarni suymas" [5] deyilgan.

#### **Tahlil va natijalar (Analysis and results).**

Yuqoridagilar shuni ko'rsatadiki, bag'rikenglikni diniy shaklda saqlash masalasi zamonaviy jamiyat xavfsizligi uchun juda muhim hisoblanadi. Diniy bag'rikenglik ichki barqarorlikni saqlashda, o'zaro tushummovchiliklarning oldini olishda, tashqi kuchlarning siyosiy maqsadlarini bostirishda va ularning davlat, millat, madaniyat va din barqarorligiga ta'sirini zararsizlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Aksincha, diniy bag'rikenglik bo'lmasa, dinlarning va konfessiyalarning xilma-xilligi davlatlarning ichki zaiflashuviga va beqarorlikka olib kelishi mumkin. Bu bayonot asosida diniy bag'rikenglik mohiyatini quyidagicha umumlashtirish mumkin: "Diniy bag'rikenglik – bu bitta din izdoshlarining boshqa dinlarga ergashuvchilarga bo'lgan yoqimli va maqbul munosabatining ifodasidir. Ularning har biri o'z e'tiqodiga amal qiladi va shu bilan birga boshqalarning teng huquqlarini tan oladi". Biroq, diniy bag'rikenglik katta qiziqish uyg'otadigan ko'p qirrali hodisa bo'lib, keng talqin tavsiflarga ega. Demak, bu konsepsiya o'ziga xos baho va ifodalarga ega.

Zamonaviy dunyodagi murakkab siyosiy va ijtimoiy jarayonlar, globallashuv va sivilizatsiyalar integratsiyasi bilan xalqlarni o'z tarixini, madaniyatini va barcha milliy qadriyatlarini asrab-avaylash va mustahkamlash uchun misli ko'rilmagan kuch sarflashga majbur qilmoqda. Chunki globallashuv jarayonida eng kichik beparvolik eng muhim milliy qadriyatlarni, hatto millat tarixiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuning uchun ham hozirgi asr, o'tmishdan farqli o'laroq, sivilizatsiyalar va globallashuv o'rtasidagi muloqot davri bilan ajralib turadi va ba'zi odamlar bu sivilizatsiyalar muloqotida axloqiy doiradan chiqib ketadi, bu ekstremizm fenomenini yaratadi. Bunday vaziyatda bu dunyoning xilma-xilligini qabul qilish, boshqa madaniyatlarni e'tirof etish va hurmat qilish, lekin ayni paytda uning milliy va madaniy qadriyatlariga bo'lgan sadoqat xalqlar hayotining barqarorligini ta'minlaydi. Ijtimoiy fanlarda bunday pozitsiya bag'rikenglik bilan ifodalanadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchaning turli ta'riflari mavjud.

Tolerantlik – boshqalarni bezovta qilmasdan, boshqalarning huquq va erkinliklarini buzmasdan, huquq va erkinliklarga ega bo'lgan hayot tarzidir. Tolerantlik ham demokratiya va inson huquqlarining asosidir. Tolerantlik – tinchlik, etnik, diniy, siyosiy va shaxslararo tafovutlarga toqat qilish, "boshqalar"ning teng yashash imkoniyatini tan olish demakdir. Shu bilan birga, bag'rikenglik o'tmish, rahm-shafqat yoki bag'rikenglik emas, balki voqeа yoki boshqa hodisani tan olishga asoslangan hayotdagи faol pozitsiyadir. Darhaqiqat, mafkuraviy xilma-xillik hamda madaniy va globallashuvga moyil bo'lgan hozirgi dunyoda bag'rikenglik ijtimoiy barqarorlik garovi va terrorizm va ekstremizm kabi salbiy ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishning asosiy omili hisoblanadi. Jamiyatdagi turli guruhlar o'rtasidagi zo'ravonliksiz va hurmatli munosabatlar sifatida qaraladigan ijtimoiy bag'rikenglik jamiyatdagi munosabatlar muvozanatini yaratadi.

Ta'kidlash joizki, bag'rikenglik har qanday mafkuraning yoki biron-bir madaniyatning tarkibiy qismi emas, balki har qanday jamiyat, ijtimoiy tabaqa va har bir fuqaroning axloqiy, siyosiy va huquqiy hayotining mohiyati va sifatini ifodalaydi. Ijtimoiy-ma'naviy fikr har doim insonning eng oliy maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, bag'rikenglikni umuminsoniy tan olishning eng yaxshi ijtimoiy qiymati va insonparvarlik munosabatlarining mohiyati va o'zgarmas ideal sifatida qabul qilinadi.

Bag'rikenglikka doir bu tafsilotlarga chuqr to'xtalib o'tmasdan, diniy bag'rikenglikni ikkita asosiy turga bo'lish mumkinligiga alohida e'tibor qaratamiz. Uning birinchisi ijobjiy bo'lsa, ikkinchisi salbiy turidir. Ijobiy ma'nodagi

diniy bag'rikenglik madaniyat va ma'rifatni qabul qilishni, diniy qadriyatlar va boshqa din izdoshlarining e'tiqodlarini hurmat qilishni anglatadi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda "Fuqarolarning 94% dan ziyodi islom diniga e'tiqod qiladi. 3,5% ga yaqin fuqarolar xristian diniga mansub bo'lib, qolganlarini boshqa konfessiya vakillarini tashkil etadi. Hech shubhasiz, yurtimizda turli sohalarda erishilayotgan barcha ulkan yutuqlarimizning zamirida jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik hisoblanadi. Ushbu holat davlatning katta yoki kichikligi, dini va millatidan qat'iy nazar, tinchlik va barqarorlik naqadar aziz ne'mat ekanini yana bir bor isbotlab bermoqda" [6].

Salbiy nuqtayi nazariga ko'ra, diniy bag'rikenglik diniy qarashlar va boshqalarning qadriyatlar majmuyini mensimaslik demakdir, buning natijasida diniy sabablarga ko'ra nafrat va salbiy munosabatni ko'rsatish mumkin emas. Ikkala holatda ham, diniy bag'rikenglik boshqa din izdoshlariga hurmat yoki befarqlik pozitsiyasida namoyon bo'lishidan qat'i nazar, u ijtimoiy barqarorlikni va turli diniy guruhlar va konfessiyalarning birgalikda yashashini ta'minlaydi. Biroq yuqorida aytib o'tilgan diniy bag'rikenglikning ikki turidan birinchisi, ya'ni boshqa din vakillarining diniy qadriyatları va e'tiqodlarini e'tirof etish va hurmat qilish afzalroqdir, chunki jaholatni anglatuvchi befarqlik ertami kechmi murosasizlikka olib kelishi mumkin. Bu holat nafrat va humatsizlikning shakllanishiga olib kelmasligi uchun targ'ibot va tarbiyaviy ishlarni olib borish juda muhim.

Bundan tashqari, zamonaviy jamiyatlarning mazmuniga qarab diniy bag'rikenglikning bir necha turlari mavjudligi alohida qayd etiladi. Birinchidan, boshqa dirlarning (xristian-musulmon, musulmon-buddist, xristian-buddist va boshqalar) izdoshlariga nisbatan bag'rikenglik. Ikkinchidan, har xil konfessiyalar va konfessiyalar vakillari o'rtasidagi munosabatlarda bag'rikenglik mavjud, shu jumladan xristianlikdagi katolik, protestant va pravoslav cherkovlari, islomdagи sunniylar va shialar o'rtasidagi munosabatlar va boshqalar. Uchinchidan, diniy mazhabiy harakatlarga bag'rikenglik (shuningdek, o'zaro mazhabiy harakatlarga bag'rikenglik).

To‘rtinchidan, Xudoga ishonuvchilar bilan dinsizlar o‘rtasidagi bag‘rikenglik. Shu bilan birga, o‘zbek milliy madaniyatida bag‘rikenglik va boshqa millat va elat vakillari bilan birga yashash etikasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Tolerantlik ta’rifi BMT Deklaratsiyasining kirish so‘zida shunday berilgan: “Tolerantlik – sabr-toqat ko‘rsatish va yaxshi qo‘schnilar sifatida tinch-totuv yashash”. Bu yerda kontent ifodasi nafaqat samarali ijtimoiy ohangga ega bo‘ladi, balki u ijtimoiy munosabatlar integratsiyasida muvaffaqiyatlari sotsializatsiya sharti sifatida ham tushuniladi va o‘zi bilan ham, boshqa odamlarning dunyosi bilan ham yashash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu tarixiy faktlar shuni ko‘rsatadiki, asrlar davomida boshqalarning fikrlari, xulq-atvori, urfodatlari va madaniyatini qabul qilish ma’nosida tenglik va bag‘rikenglik g‘oyasiga asoslangan yagona tizim bo‘lmagan, bu uzoq etnik va diniy urushlarga olib kelgan. Shu sababli, bag‘rikenglik me’yorlariga rioya qilish zamonaviy jamiyatda xavfsizlik kafolati bo‘lishi mumkin.

Tolerantlik tamoyili o‘zining zamonaviy tushunchasida birinchi bo‘lib fransuz ma’rifatparvar faylasuflari Volter va Jan-Jak Russo asarlarida “turli xalqlar, dinlar va madaniyatlarning tinch-totuv yashash mexanizmi” sifatida qayd etilgan. Aynan Russo “Hammaga qarshi hammaga qarshi urush” va “Odam uchun odamga bo‘ri” g‘oyalariga zid ravishda bag‘rikenglik va ijtimoiy birdamlik tamoyilini birinchi marta ilgari suradi. Fransuz inqilobidan keyin (1792) birinchi marta fuqarolik tamoyili asosida irqi va dinidan qat’i nazar, tenglik e’lon qilindi. Bu tamoyil keyinchalik AQSHda, keyin butun sivilizatsiyalashgan dunyoda qo‘llanilgan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining birinchi kunlaridan boshlab, islomiy tiklanuvchilarning asossiz da’volariga qarshi dunyoviylik va bag‘rikenglik tamoyillarini qo‘llab-quvvatlashini e’lon qildi. Hozirgi O‘zbekiston davlatining dunyoviyligi va bag‘rikenglik mohiyatini tushunish uchun to‘rtta asosiy tamoyilni ko‘rib chiqish muhim. Birinchidan, “Vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinka e’tiqod qilish yoki hech qanday dinka e’tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir”.

Ta’kidlash joizki, bu tamoyilni faqat dunyoviylik va bag‘rikenglik sog‘lom muhitida

amalga oshirish mumkin. Va o‘zlarini islom respublikasi deb e’lon qilgan mamlakatlarda va islomiy tus olgan partiyalarda inson huquqlari buzilishi holatlari O‘zbekiston Respublikasi tomonidan bu yo‘l tanlanganining to‘g‘riligidan dalolatdir.

Ikkinchidan, “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari dinka munosabatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Rasmiy hujjatlarda fuqaroning dinka munosabati ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Fuqarolarning dinka munosabatiga qarab ularning huquqlarini har qanday cheklash va ularga bevosita yoki bilvosita imtiyozlar belgilash, dushmanlik va adovat uyg‘otish yoxud ularning diniy yoki dahriylik e’tiqodi bilan bog‘liq his-tuyg‘ularini haqoratlash, diniy ziyyaratgohlarni oyoqosti qilish qonunda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi”. Faqat dunyoviylik sharoitida turli din va konfessiyalar tarafdarlarining qonun oldida tengligini ta’minlash adolatini sud amalga oshirishi mumkin. Teokratik davlatlarda, xristian, musulmon yoki boshqa dinlar bo‘lsin, hamma uchunadolatning haqiqiy me’yorlari yo‘q. Masalan, shariatda ham, nasroniy larning muqaddas qonunida ham, boshqa dinlarning vakillari huquqiy munosabatlarning to‘liq subyekti emas. Musulmonlar musulmon bo‘limganlarni “nopok”, nasroniyalar aksincha “nopok” deb atashgan.

Uchinchidan, “O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinka yoki diniy e’tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi”.

Ta’kidlash joizki, faqat bizning mamlakatimizning dunyoviylik tamoyili turli din vakillariga o‘z diniy va madaniy hayotlarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq erkin va to‘siqsiz kuzatib borish hamda fuqarolik jamiyatni doirasida to‘liq yashashlarini ta’minlash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, o‘zbek xalqining milliy madaniyati va ma’naviy hayotini rivojlantirishda Hanafiylik mazhabining alohida rolini e’tirof etish o‘rinli bo‘ladi. Shunisi e’tiborga molikki, yuqorida uchta tamoyil bilan bir qatorda dunyoviylik tamoyili o‘zbek xalqiga otabobolarining ma’naviy va diniy merosini hurmat qilish imkonini beradi. Shu bois, O‘zbekiston aholisining milliy madaniyati va ma’naviy

hayotini rivojlantirishda hanafiylik mazhabining alohida o‘rnı mavjud.

Bag‘rikenglik doimiy, murakkab va ko‘p qirrali insoniy munosabatlarni talab qiladigan barcha sohalarda muhim ahamiyatga ega, lekin siyosiy, diniy va milliy-mintaqaviy munosabatlar kontekstida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, bugungi insoniyat hali ham zamonaviy tahdidlarga zaif hamda hamkorlik va integratsiyani kuchaytirishga muhtoj. Shu maqsadda biz o‘rtा va uzoq muddatli istiqbolda milliy manfaatlarimizni ta’minalash uchun dunyoning barcha mamlakatlari va birinchi navbatda qo‘shni davlatlar, shuningdek, strategik sheriklarimiz bilan do’stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishni davom ettiramiz. Shunday ekan, jamiyat tinchligi, barqarorligi va osoyishtaligi uchun biz milliy madaniyatimiz va dinimizning oliv an’analarining turli qirralarini zamon talablariga muvofiq qayta tiklashimiz, sevimli yurtimizni xalqaro maydonda dunyoga tanitishimiz va uning qiyofasini yuksaltirishimiz kerak bo‘ladi. “Din va e’tiqod borasidagi toqatsizlik va diskriminatsiyaning har qanday shakllarini bartaraf qilish bo‘yicha Deklaratsiya”ning 1-moddasida “Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega” ekanı ta’kidlanadi. Mazkur deklaratsiyaning 2-moddasida hech kim din yoki e’tiqod borasida kamsitilishi mumkin emasligi ta’kidlanadi[7].

Mustaqillikka erishish o‘zbek xalqiga oson bo‘lmagan. Bu yillar mobaynida xalq faxrli mustaqillik maktabidan ko‘p narsalarni o‘rgandi hamda tinchlik va ijtimoiy birga yashashning muhimligini milliy birlikni mustahkamlash va davlat mustaqilligini himoya qilishning muhim omili sifatida tan oldi. Siyosiy tuzumning barqarorligini milliy, madaniy va ma’naviy qadriyatlarning qayta tiklanishi, mamlakatda ijtimoiy hamkorlikdagi hayot va tinchlik haqida gapiradigan millatning so‘nggi o‘ttiz yillik tarixiy voqeliklari ifoda etadi. Biroq, bu yutuqlarga qaramay, jamiyatda ba’zi muammolar mavjud bo‘lib, ular birinchi navbatda ayrim kishilarning bag‘rikenglik madaniyatining yo‘qligidan kelib chiqadi. Masalan, ba’zi uquvsiz kishilar ekstremistik partiyalar va harakatlarga qo‘shilib qolishadi, begona madaniyat, diniy ekstremizm va boshqa din vakillariga adovat, yosh oilalarning ajralishi va oiladagi nizolarning kelib chiqishiga

sababbo‘ladi. Bushaxsdabag‘rikenglik madaniyati yo‘qligini ko‘rsatadigan jirkanch hodisalardir. Xususan, bag‘rikenglik madaniyatining yo‘qligi internet foydalanuvchilarining ko‘pchilik fikrlari va bayonotlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Internetning virtual olamidagi ba’zi foydalanuvchilar o‘zlarini “yo‘qotib qo‘yishadi”, insoniy chegaradan chiqib ketishadi, ota-onasini ham, millatini ham, Vatanini ham eslamaydi, shu bois ham ular nimani o‘ylasa, shuni yozadilar.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Shu o‘rinda ta’kidlash zarurki “...diniy esktremizmga qarshi kurashish har bir insonning o‘zida bo‘lishi shart. Turli internet tarmog‘i orqali e’lon qilinadigan yot g‘oyalarga qarshi kurashish hamda ezgulik sari qadam tashlab insonning tafakkurini boyitishda xizmat qiladi. Afsuski, ba’zan insonlar noto‘g‘ri targ‘ibot sabab o‘z ishini real hayotga yaqinlashtirib, yot g‘oyalarni tarqatuvchi tashkilotlarni islomiy davlat barpo etgan holda dunyoda adolat o‘rnatishni maqsad qilgan tashkilot deb hisoblaydi. Bunday fikrlovchilar Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda ham bor ekanı hech kimga sir emas. Bu kabi yoshlar insonlarga qarshi sodir etilayotgan jinoyatlarni go‘yoki xalifalik qurish uchun joiz amal hisoblab qattiq adashmoqdalar. Aslida, mutaassib oqim a’zolarining maqsadlari yoshlarimizni oilasi va yaqinlarining ta’siridan chiqarish, o‘qish yoki ishidan ajratib olishdir”[8].

Shu bois, aholi, ayniqsa, jamiyatning eng zaif qatlamlari va internetda ijtimoiy tarmoqlardan eng ko‘p foydalanadigan yoshlar o‘rtasida bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish zarur. “Bugungi kunda yon-atrofimizda “diniy ekstremizm”, “terrorizm”, “giyohvandlik”, “odam savdosi”, “noqonuniy migratsiya”, “ommaviy madaniyat” kabi balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosi va ahamiyati yanada ayon bo‘ladi. Haqiqatan ham, hozirgi vaqtida yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda”[9].

Bag‘rikenglik tafakkuri insonlarning turli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, ma’naviy, ruhiy munosabatlarini ularning millati, irqi, nasl-nasabi, iqtisodiy ahvoli, dini va e’tiqodiga qaramasdan muvozanatda saqlash me’yorlarini anglatadi[10]. Bag‘rikenglik – ekstremizm va

har qanday fitna va qo'zg'olonga qarshi vosita, uning maqsadi – siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorlikni ijtimoiy tartibsizliklardan himoya qilish, inson huquqlarini barqaror himoya qilish borasida hukumat tomonidan olib borilayotgan siyosatni qo'llab-quvvatlashdir. Shubhasiz, o'zbek xalqi tarixning murakkab tomonlariga qaramay, yuksak darajadagi bag'rikenglik madaniyati bilan bugungi kungacha o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylab, jahon sahnasida tinchlikparvar siyosat yuritayotganligi bilan alohida ajralib turadi.

Bashariyat farovonligining asosiy omili sifatida inson ma'naviy olami, xalqimiz madaniyatini belgilaydigan bag'rikenglikni asrab-avaylash orqali dunyoda vujudga kelayotgan yovuz, buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ana shunday ezgu ishlarimiz, barcha yurtdoshlarimiz qalbi va ongida sog'lom dunyoqarash to'g'risida xolisona fikrlarni shakllantirish orqali mamlakatimizda

yashovchi **130** dan ortiq millat va elat vakillariga bo'lgan hurmatni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: "**O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zarohurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi.** Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir[11], deya bejiz ta'kidlamagan. Zero, xalqimiz ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanmish bag'rikenglikning ta'minlanishi avvalo, jamiyatimizda ezgu g'oyalalar va insoniy fazilatlarni kamol toptirish orqali yurtimizda tinchlik va barqarorlikning hukm surishida muhim o'rinn tutadi.

## ADABIYOTLAR

1. Imam Nasoiy. Sunan an-Nasoiy. Ar-Riyod: Dor as-salam lin-nashr vat-tavzi', 1999. – B. 420.
2. Abu Dovud. Sunan. Bayrut: Dor al-yusrva dar al-Manhaj, 2010. 5-juz, – B.458.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. T.1. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017. – B. 177.
4. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Abdulaziz Mansur – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2017. – B.516.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. T.4. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017. – B. 411.
6. <http://dkm.gov.uz/uz/millatlararo-totuvlik-va-dinij-bagrikenglikni-taminlas>
7. BMTning "Ma'rifat va diniy "bag'rikenglik" rezolyutsiyasi. <https://undocs.org/ru/%20A/RES/73/128>
8. <http://dkm.gov.uz/uz/millatlararo-totuvlik-va-dinij-bagrikenglikni-taminlas>
9. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B.44.
10. Alimova, Mahfuza and Nigmatullayev, Ibrohim (2019) "CLARIFICATION OF TOLERANCE IN ISLAMIC SOURCES," The Light of Islam: Vol. 2019.: Iss. 1, Article 13. Available at:<https://uzjournals.edu.uz/iau/vol2019/iss1/13>.

## ANNOTATSIYA

Maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashdirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e'tibor qaratish, shu bilan birga jamiyat a'zolarining ma'naviyatini tiklash va yuksaltirishda milliy til va milliy madaniyat, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy his-tuyg'u, milliy g'urur va iftixorni o'stirishning ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** qadriyatlar, millatlararo munosabatlar, milliy madaniyat, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy his-tuyg'u, milliy g'urur.

## АННОТАЦИЯ

В статье говорится о развитии духовной жизни общества в условиях Нового Узбекистана. Уделяется большое внимание человеческому фактору, важности развития национальной гордости, родного языка, национального самосознания, восстановления национальной культуры и повышения духовности членов общества.

**Ключевые слова:** ценности, межэтнические отношения, национальная культура, национальное самосознание, национальная гордость.

## ANNOTATION

The article writes about the development of the spiritual life of society in the conditions of New Uzbekistan, which pays great attention to the human factor, and at the same time about the importance of developing a national feeling, national pride in the national language and national culture, national self-consciousness in restoring and increasing the spirituality of members of society.

**Key words:** values, interethnic relations, national culture, national identity, national feeling, national pride.

Jahonda xalqaro, millatlararo, konfessiyalararo hamkorlik va hamjihatlikni mustahkamlash ko‘p jihatdan jamiyat hayotiga milliy mafkuraning umumbashariy tamoyillaridan biri bo‘lgan bag‘rikenglikning samarali joriy etilishiغا bevosa bog‘liq. Zero, so‘nggi yillarda dunyoda diniy omil bilan bog‘liq ravishda turli yo‘nalishlardagi jarayonlar avj olib bormoqda. Ko‘p hollarda murakkab va ziddiyatl, ba’zida esa qonli to‘qnashuvlar bilan kechayotgan bunday voqeа-hodisalar turli din vakillari o‘rtasida toqat, hurmat, e’tibor va umuman hamkorlik ruhidagi aloqalarni shakllantirish va mustahkamlash obyektiv tarixiy zaruriyat ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu sababdan ham “xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat” mamlakatimizda strategik vazifalardan biri sifatida belgilab olindi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan BMT minbaridan Bosh Assambleyaning “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi ilgari surildi. “Ushbu rezolyutsiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minalash, e’tiqod qiluvchilarining huquqini himoya qilish, ularning kamshitishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan”<sup>1</sup> deya ta’kidlangani fikrimiz dalilidir.

O‘zbekistonda yangilanish davrida jamiyat ma’naviy hayotini sog‘lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e’tibor berish eng asosiy

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // “Xalq so‘zi”, 2017-yil 20-sentabr.

vazifalardan biriga aylandi. “Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar davomida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, beba ho ma’naviy-madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi”<sup>2</sup> deya ta’kidlagan edi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov.

Ma’naviyati yuksak darajada rivojlangan millatgina porloq istiqlol, buyuk kelajak uchun o‘zida kuch-qudrat topa oladi. Ma’naviyati rivojlangan xalq va millat o‘z-o‘zini qadrlaydi, qad-dini tik tutadi, o‘tmishi bilan faxrlanadi, o‘zligini anglaydi, kelajakka umidvorlik bilan qarab, ozodlik va mustaqillikning qadriga yetib, Vatan ravnaq yo‘lida fidoyilik ko‘rsatadi.

Xalqimizning ma’naviyatini tiklashda va rivojlantirishda milliy til va milliy madaniyat, milliy ong, milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy histuyg‘uni, milliy g‘urur va iftixorni o‘stirish katta o‘rin tutadi.

Xalqimizning mustaqillikni qo‘lga kiritishi unutilgan ko‘pgina qadriyatlar, meroslar qatori birinchi navbatda mustaqilligimizni mustahkamlaydigan, uning qudratini oshiradigan yangi qadriyatlarni rivojlantirishni zaruriy holat qilib qo‘ydi. Bu yangi ma’naviy qadriyatlar xalqimizning azaliy ezgu maqsadlarini ifodalab milliy istiqlol mafkurasida o‘z aksini topdi. “Istiqlol mafkura-si polietnik O‘zbekiston xalqining ezgu g‘oya – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lidagi asriy orzu-tilishlari, hayotiy ideallarini o‘zida aks ettiradi”<sup>3</sup>. Xalqimizning ma’naviy ehtiyojlari shu yo‘ldan og‘ishmay bori-shi natijasida qondirilib boriladi.

Barchaga ma’lumki, milliy g‘oya (mafcura) millatning ma’naviy merosidan oziqlanadi va ayni paytda, uning ma’naviyati rivojlanishiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazadi. Endi mavzumizdan kelib chiqqan holda, milliy g‘oyaning umuminsoniy negizlari nimalarni o‘z ichiga ola-di, degan savolga javob berishga harakat qilamiz.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, umuminsoniylik tayyor holda osmondan tushadigan omil emas, u millatlarning ajdodlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan moddiy va ma’naviy

<sup>2</sup> Karimov I. A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo‘lidan. 6-jild. – T.: O‘zbekiston, 1998. – B. 125.

<sup>3</sup> Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B. 6.

boyliklardagi, yer yuzida yashayotgan barcha millat, elat va xalqlarning barcha rivojlanish bosqichlari ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan eng ilg'or qismlari asosida shakllanadi. Bunda millatning o'zi ham umuminsoniy qadriyat sifatida butun insoniyat uchun go'zallikning ramzi sifatidagi maqomining ahamiyatini ham alohida ta'kidlash lozim.

Buning ma'no-mazmunini birgina o'zbek millati milliy g'oyasi va mafkurasidagi belgilab qo'yilgan quyidagi tamoyillarni keltirish orqali anglab olish mumkin. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga assoslandi; xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas meroslaridan oziqlanadi;adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'-tiqodini aks ettiradi; yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi; jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi; millati, tili va dinidan qat'i nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi; jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xiligi, vijdon erkinligi tamoyillariga riosa qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi<sup>4</sup>.

Milliy g'oya (mafcura) har bir zamonga tegishli bo'lgan masalalarni har doim o'zida mujassamlantirgan holda zamon talabi va ehtiyojlariga mos ma'naviy bilimlarni oldinga surib kelgan. Milliy g'oyada hozirgi zamonga mos bo'lgan talablar asosida yangi davrga xos ehtiyojlar hisobga olingan. Bular milliy manfaatlarni, ehtiyojlarni o'zida qamrab olgan va xalq ma'naviyatiga to'g'ri keladigan milliy g'oyaning oldiga qo'yiladigan talablardir.

Xalq ma'naviy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan holda istiqlol mafkurasi oldiga quyidagi talablar zarur qilib qo'yilgan: inson qalbi va ongiga ijobjiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etishi; millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqod manbayi bo'lishi; har qanday ilg'or g'oyani o'ziga

<sup>4</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – B. 44.

singdirish va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olishi; zamon va davr o'zgarishlariga qarab o'zi ifodalaydigan manfaat, maqsad-muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olishi. Bular asosida esa milliy istiqlol mafkurasida xalq ma'naviyatini boyitish, shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan mafkuraviy vazifalar qo'yildi.

Bular quyidagilar: mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish; hur fikrli, mutelik va jur'atsizlikdan xoli bo'lgan, o'z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan insonni tarbiyalash; odamlarimiz, ayniqsa yoshlarimizning irodasini baquvvat qilish, iymon-e'tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan ma'naviy muhit yaratish; vatandoshlarimiz tafakkurida o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarni asrab-avaylash, vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish; xalqimizga xos bo'lgan iymon, e'tiqod, insof, diyonat, saxovat, halollik, mehr-oqibat, sharm-u hayo kabi fazilatlarni yanada yuksaltirish; mamlakatimizning polietnik xalqi ongi va qalbida "O'zbekiston – yagona Vatan" degan g'oyani shakllantirish va rivojlanirish<sup>5</sup>.

Milliy g'oya (mafcura) ozod insonni ulug'-laydi, erkin fikr yuritishni targ'ib etadi, ilg'or umumbashariy g'oyalarga suyangan holda uni amalga oshirish uchun kurashga da'vat etadi. Milliy g'oya (mafcura) millat ma'naviy taraqqiyotini, uning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashning asosiy manbasi hisoblanadi. Millatning mustaqilligi, ozodligi, erkinligi, uning o'ziga xosligini esa faqat milliy g'oya, ularning moddiy kuchga aylanishi natijasida ta'minlash mumkin bo'ladi. Professor S.Otamuratovning quyidagi fikriga qo'shilamiz: "Milliy g'oya (mafura) har bir insonning o'zini anglashi jarayonida shakllana boshlaydi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi esa uning o'zini anglashidan boshlanadi. ...Milliy g'oyaning ta'sir doirasi nihoyatda keng bo'lib, u millatning o'ziga xosligini saqlab turish, millat manfaatlari yo'lida millat vakillarini birlashtirish, uyuştirish va taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash kabilarga o'zining ta'sirini o'tkazib turadi"<sup>6</sup>.

Milliy g'oyaning tarixiy, falsafiy ildizlari

<sup>5</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – B. 46.

<sup>6</sup> Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi. – Toshkent: Akademiya, 2005. – B. 25.

uning tamoyillari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning asosiy tamoyillaridan biri insonparvarlik g'oyasi bilan bog'liq ekanligini e'tiborga olish zarur.

Millat taqdiriga daxldor bo'lgan g'oyalar, eng avvalo, milliy zamin bilan bog'liq bo'ladi. Unga tayanmagan, undan bahra olmaydigan yoki undan uзilib qoladigan g'oyalar millat manfaatlariga ham xizmat qila olmaydi.

"Milliy g'oya (mafcura) negizlari faqat millatning tor doiradagi zaminlari bilan cheklanmaydi. Shuning bilan bir qatorda, umumbashariyat erishgan ilg'or yutuqlarga ham tayanadi"<sup>7</sup>.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti mamlakatimiz mustaqilligini ilk yillardayyoq mustaqil O'zbekistonning istiqlolini mustahkamlash va uning kelgusi taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladigan ijtimoiy rivojlanishning quyidagi to'rtta asosiy negizini belgilab bergen edi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik<sup>8</sup>.

Milliy g'oya (mafcura) tamoyillari umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro uyg'unlashib ketgan. Milliy g'oyaning asosiy tamoyillari milliy ong, milliy tafakkurning milliy o'zlikni shakllantirishga yo'naltirilganligi, millatni birlashtirish-

<sup>7</sup> Milliy istiqlol g'oyasi. Darslik. - Toshkent: Akademiya, 2005. – B. 217.

<sup>8</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafcura. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B. 364.

ga, uning manfaatini ifodalashi, milliy g'urur, iftixor va shaxs ma'suliyatining shakllanishiga qaratilganligi; milliy meros, tarixiy xotirani asrash, yoshlarda vatanparvarlik, millatparvarlik, va umuminsoniylik ruhiyatini shakllantirishga qaratilganligi; Vatanimizda turli millatlarning tinch-totuv yashashi, ularning ongida "O'zbekiston – yagona vatan" g'oyasini shakllantirish; mamlakatimiz fuqarolarida milliy xavfsizlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik g'oyalarining shakllanishiga yordam berishdan iborat.

Milliy g'oyaning umuminsoniy negizlari quyidagilar: hamma sohada qonunga itoat etish, inson huquqlarini hurmatlash va hurfikrlilik; turli millat vakillari bilan o'zaro do'stlik va birodarlikda yashash va mehnat qilish; har bir xalqning tili, dini, urf-odatini e'zozlash; dunyoviy bilimlarni chuqur o'zlashtirish, ma'rifatparvarlik; o'zga xalqlarning turli sohada erishgan ilg'or yutuqlari va madaniyatini o'rganish; milliy mahdudlik, agressiv millatchilik va shovinizmdan xoli bo'lish; adolat, tenglik, tinchlik, bunyodkorlik va demokratiya g'oyalarini o'zida ifoda ettirish; diniy bag'rikenglik g'oyalarini o'zida ifodalash; vayronkor va turli g'arazli g'oyalarga qarshi kurash va bunyodkor g'oyalar rivojlanishining omili bo'lish<sup>9</sup>. Ular o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra milliy g'oyaga xos bo'lgan umuminsoniy tamoyillardir.

<sup>9</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (Qisqacha izohli tajribaviy lug'ati). – Toshkent: Yangi asr avlod, 2002. – B. 116

## ADABIYOTLAR

1. Azizzxonov A., Musayev O., Xabibullayeva D., Egamberdiyeva U., Nabihev G., Orifxo'jayev S. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyat. –Toshkent: "DITAF", 2001. –335 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // "Xalq so'zi", 2017-yil 20-sentabr.
3. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Asarlar. I-jild. – Toshkent: O'zbekiston, NMU, 2017. – 486 b.
4. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lidan. 6- jild– Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 125 b.
5. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. -6 b.
6. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi. –Toshkent: Akademiya, 2005. -25 b.
7. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. -44 b.

**MUHRLAR VA  
SHTAMPLARNI  
TAYYORLASH, SAQLASH,  
ULARDAN FOYDALANISH  
TARTIBI HAMDA  
HIMOYA VOSITALARIGA  
QO‘YILADIGAN  
TALABLAR**

*KUDRATOV*

*Sanjar Marupovich,*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya*

*vazirligi huzuridagi*

*X. Sulaymonova nomidagi Respublika*

*sud ekspertiza markazining*

*Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti*

*bosh ilmiy xodimi,*

*3-darajali yurist*

*G‘OFURJONOV*

*Axadjon Xamidjon o‘g‘li,*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya*

*vazirligi huzuridagi*

*X. Sulaymonova nomidagi Respublika*

*sud ekspertiza markazining*

*Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti*

*yetakchi ilmiy xodimi,*

*2-darajali yurist*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada muhrlar va shtamplar texnik-kriminalistik ekspertizasining dolzarb masalalari, muhrlar va shtamplarning zamonaviy imkoniyatlari, ularni tayyorlash va saqlash bo‘yicha qonunchilikdagi bo‘shliqlar ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** texnik-kriminalistik ekspertizasi, tadqiqot, ekspert, muhr (shtamp), ishlab chiqarish, saqlash, xorijiy tajriba.

**АННОТАЦИЯ**

В статье рассмотрены актуальные вопросы технико-криминалистического исследования оттиска печатей и штампов. Рассмотрены современные возможности и пробелы на законодательном уровне по изготовлению и хранению оттиска печатей и штампов.

**Ключевые слова:** технико-криминалистическая экспертиза, исследование, эксперт, документ, печать (штамп), изготовления, хранения, зарубежный опыт.

**ANNOTATION**

The article deals with topical issues of technical and forensic research of prints of seals and stamps. Modern possibilities and gaps at the legislative level for the production and storage of the impression of seals and stamps are considered.

**Key words:** technical and forensic examination, research, expert, document, seal (stamp), manufacturing, storage, foreign experience.

lan bog'liq jinoyatlar tendensiyasi yildan-yilga ortib bormoqda.

2022-yil holatiga ko'ra respublikada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 507 mingtaga yetgan, ammo ushbu tadbirkorlik subyektlariga mo'ljallangan muhrlar va shtamplarni tayyorlash bo'yicha minimal talablar, saqlash va ulardan foydalanish tartibi belgilanmagan. O'z navbatida bu hujjatlardagi muhrlar va shtamp rekvizitlarini qalbakilashtirish bilan bog'liq jinoyatlarning keskin o'sishiga zamin yaratib berishi mumkin.

*Ma'lumot tariqasida* 2022-yil davomida jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 75 078 nafar shaxsga nisbatan 58 697 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilgan.

*Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rigan jinoyat ishlarning aksariyatini firibgarlik, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash, hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish kabi jinoyatlar tashkil etgan.*

Statistik va tahlil ma'lumotlariga ko'ra Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida 2021-yilda 20 ta, 2022-yil davomida 35 ta, so'nggi 2 yil ichida jami 55 ta muhr va shtamplar mavjud bo'lgan hujjatlarni qalbakilashtirishga oid ekspertizalar tayinlangan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi tizimidagi sud ekspertiza muassasalarining ekspertlari tomonidan o'tka-

zilgan ekspertiza tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda hujjatlardagi muhrlar eng ko'p qalbakilashtirilayotgan rekvizitlardan biri hisoblanadi. O'z navbatida bunga asosiy sabablardan biri milliy normativ-huquqiy hujjatlarda muhr va shtamplarni tayyorlash bo'yicha minimal talablar yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi hamda yagona nor-





### **mativ huquqiy hujjatlar bilan tartibga solin-maganligidir.**

Mazkur yo‘nalishdagi kam sonli normativ-huquqiy hujjatlar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2018-yil 17-may dagi “Muhrlar va shtamplarni tayyorlash, saqlash va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i, shuningdek, unga o‘zgartirish va qo‘srimchalarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risidagi 137-son va Adliya vazirining 2020-yil 28-fevraldagagi “Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius muhrining yagona namunasini tasdiqlash haqida”gi 55-mx-son buyruqlarini kelтирib o‘tish mumkin.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarning tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur hujjatlarda muhr va shtamplarni tayyorlash jarayonida aks etishi lozim bo‘lgan va kelgusida identifikatsiya qilish imkonini beruvchi belgilarning joylashuvi bo‘yicha talablar yetarlicha yoritilmagan.

Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 228-moddasiga ko‘ra soxtalashtiruvchining o‘zi yoki boshqa shaxs foydalanishi maqsadida muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan rasmiy hujjatlar tayyorlashi yoki rasmiy hujjatlarni qalbakilashtirishi yoxud

bunday hujjatlarni sotishi, shunday maqsadlarda korxona, muassasa yoki tashkilotning qalbaki shtamplari, muhrlari, blankalarini tayyorlash yoxud sotish – bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmis soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

- a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, – ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Hujjatning qalbaki ekanligini bila turib, undan foydalanish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan.

Hozirgi kunda muhr va shtamplarni tayyorlashga ixtisoslashgan korxonalar va firmalarning soni 100 dan ortiq. Muhr va shtamplarni tayyorlash bo‘yicha yangi zamонавиу texnologiyalar, jumladan: fotopolimerli texnologiya, muhr (shtamp) matritsasini frezer-

lash yordamida tayyorlash, rezinani lazer yordamida gravirovka qilish va boshqa metodlar juda keng tarqalgan. Unchalik murakkab bo'limgan va topilishi oson bo'lgan turli jihozlar yordamida muhr (shtamp)larning aksini qisqa muddatlarda sifatli qalbakilashtirish osonlashgan. Zamonaviy texnologiyalar bir muhr (shtamp) aksidan juda ko'plab miqdorda nusxalar olish imkoniyatini beradi.

Buning natijasida, hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi bo'yicha mutaxassis-ekspertlar muayyan qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Hozir muhr va shtamplarni tayyorlash bo'yicha yangi texnologiyalar bo'yicha ma'lumotlar kam, bu kabi muhr (shtamp)larni tayyorlash usullarini aniqlash bo'yicha metodikalar unchalik keng yoritilmagan va natijada ekspertlarda identifikatsion vazifalarni bajarishda muhr (shtamp)lar aksida ifodalangan belgilarni baholashda muammolar kelib chiqmoqda.

***Ma'lumot tariqasida Polsha, Xorvatiya, Rossiya va Qozog'iston Respublikasida muhrlar va shtamplarni tayyorlash, saqlash va ulardan foydalanish bo'yicha alohida normativ hujjatlar hamda davlat standartlari mavjud.***

Muhrlar va shtamplarni tayyorlash, saqlash va ulardan foydalanish tartibi bo'yicha **bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:**

**birinchidan**, bugungi kunda muhrlar va shtamplarni tayyorlash, saqlash, yo'q qilish va ulardagи himoya vositalarini o'z ichiga olgan yagona normativ huquqiy hujjatlar bazasining mavjud emasligi;

**ikkinchidan**, muhrlar va shtamplarni tayyorlashga ruxsat beruvchi yagona vakolatli organning mavjud emasligi va ushbu faoliyat turi ruxsat berilgan tashkilotlarning yagona milliy elektron bazasi (reyestri) yo'qligi;

**uchinchidan**, tayyorlangan muhrlar va shtamplarning yagona elektron bazasi (reyestri) hamda arxiv mavjud emasligi;

**to'rtinchidan**, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrlarni tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni saqlash va yo'q qilish tartibi, shakli, o'lchami va texnik talablarini o'z ichiga olgan yagona milliy standartning yo'qligi;

**beshinchidan**, tadbirkorlik sub-

yeqtlariga mo'ljallangan muhrlar va shtamplarni tayyorlash bo'yicha minimal talablar, saqlash va ulardan foydalanish tartibi belgilanmaganligi.

### **Ushbu sohada xorijiy davlatlar tajribasi**

**Rossiya Federatsiyasida** GOST R 51511-2001 "Rossiya Federatsiyasi Davlat gerbining tasviri tushgan muhrlar. Shakli, o'lchamlari va texnik talablari" (Rossiya Davlat standartining 2001-yil 25-dekabrdagi № 573 qarori bilan tasdiqlangan). Ushbu standartda muhr va shtamp tushunchalari, umumiy texnik talablar, ishlab chiqarishda ishlataladigan xomashyo, materiallar, sotib olingan mahsulotlar uchun texnik talablar hamda muhr va shtamplar himoya qilish uchun texnik talablar belgilangan.

**Qozog'iston Respublikasida** RK ST 1430-2005 "Qozog'iston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrlar" texnik talablar bilan tartibga solingan. Ushbu standart davlat organlarining Qozog'iston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhr va Qozog'iston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan klische ishlab chiqarish shakli, o'lchamlari va texnik talablar belgilangan.

**Ushbu standartga muvofiq mulkchilik shaklidan qat'i nazar, Qozog'iston Respublikasining barcha davlat tashkilotlari va boshqa idoralari, notariuslar va rasmiy muhrlar va shtamplar tayyorlash sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga ruxsat berilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan qo'llaniladi.**



**Xorvatiya Respublikasida** 1995-yil 12-may kuni qabul qilingan “Xorvatiya Respublikasi gerbi tushirilgan muhr va muhr haqida”gi qonuni bilan tartibga solingenan. Ushbu qonunning 5-moddasiga ko'ra Xorvatiya Respublikasi gerbi tushirilgan muhr va shtamplar faqat ruxsatnomasi mavjud bo'lган vakolatli hunarmand va savdo shirkati tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu qonunga muvofiq ruxsatnomasi berish to'g'risidagi qaror Ichki ishlar vazirligi tomonidan berilishi belgilangan.

Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi ushbu Qonunga muvofiq hunarmand va savdo shirkatiga ruxsatnomani berish to'g'risidagi so'rovni rad etishi sabablari ko'rsatilgan. Xususan:

1. Muhrlar va tovar belgilarini ishlab chiqarish bo'yicha vakolatli organda ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa.

2. Yaratilgan muhrlar, tovar belgilari va matriksalarning saqlanishi uchun shart-sharoitlarga ega bo'lmasa.

3. Muhrlar va shtamplarni yasash bilan shug'ullanuvchi shaxs (tadbirkorlik subyekti) oldin jinoyat sodir etganligi yoki jinoyat sodir etganligi uchun sudlanganlik hukmining huquqiy oqibatlari davom etayotgan bo'lsa.

**Mamlakatimizda yuridik sohada faoliyat yurituvchi olimlarning bu boradagi fikrlari.**

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Akademiyasi kriminalistik ekspertizalar kafedrasi boshlig'i, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik A. Xusanov fikriga ko'ra,** Xorijiy mamlakatlarning hujjalardagi muhr izlarining zamonaviy himoyalovchi belgilarini tadqiqot qilish, ular qalbakisidan farqlash uchun sud-ekspertlik faoliyatida tadqiqotlarning ushbu turi buyicha usul va metodlarini qo'llash va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xorijiy mamlakatlarning hujjalari bilan bog'liq ishlarni tergov qilish va sudda ko'rib chiqishga amaliy yordam ko'rsatadi. Zamonaviy muhrlar va shtamplar hamda ularning izlarini tadqiqot qilish metodikasi O'zbekistonda ekspertriza o'tkazish muassasalarida yetarli darajada mavjud emas va qo'llanilmaydi. Ekspertlarning

amaldagi uslubiyotlari faqatgina an'anaviy muhr va shtamplar hamda ularning izlari tadqiqotlari bo'yicha, zamonaviy muhr va shtamplar va ularning izlarini tadqiqot qilish haqida esa faqatgina umumiy ma'lumotga egadir. Shu sababli faqat an'anaviy muhr va shtamplar emas, balki ularning zamonaviy boshqa turlari keng qo'llaniladigan, boshqa davlatlar misolida ko'rib chiqib ularni tadqiqot qilish amaliyotini o'rganish lozimligini ko'rsatib o'tgan.

Yuqorida qayd etib o'tilgan holatlardan kelib chiqib, ushbu yo'nalish bo'yicha quyidagi takliflar ko'rsatib o'tiladi:

**1.** Muhrlar va shtamplarni tayyorlash, saqlash, yo'q qilish va himoya vositalarini o'z ichiga olgan yagona normativ huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.

**2.** Muhrlar va shtamplarni tayyorlashga ruxsat beruvchi yagona vakolatli organni belgilash va ruxsat berilgan tashkilotlarning yagona milliy elektron bazasi (reyestri)ni yo'lga qo'yish.

**3.** Tayyorlangan muhrlar va shtamplarning yagona elektron bazasi (reyestri) hamda arxivini joriy etish.

**4.** O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrlarni tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni saqlash va yo'q qilish tartibi, shakli, o'lchami va texnik talablarini o'z ichiga olgan yagona milliy standartlarni ishlab chiqish.

**5.** Tadbirkorlik subyektlariga mo'ljallangan muhrlar va shtamplarni tayyorlash bo'yicha minimal talablarni, saqlash va ulardan foydalanish tartibini belgilash.

**6.** Vakolatli organ tomonidan muhr va shtamplarni tayyorlashga beriladigan ruxsatnomani berish yoki uni berishni rad etish mexanizmlarini ishlab chiqish.

**7.** Vakolatli organ tomonidan muhr va shtamplarni ishlab chiqarish uchun xarid qilingan uskunalarini ro'yxatdan o'tkazish.

**8.** Muhr va shtamplarni tayyorlovchi yuridik shaxs o'z faoliyatini tugatganligi haqida ruxsatnomani beruvchi vakolatli organga xabar berish mexanizmini ishlab chiqish.

**ADABIYOTLAR**

1. Сосенушкина, М.Н. Установление времени нанесения оттисков удостоверительных печатных форм, изготовленных по новым технологиям: Материалы всероссийской межведомственной научно-практической конференции / М.Н. Сосенушкина. - Саратов, 2008 г.
2. Ляпичева, В. Е. Технико-криминалистическая экспертиза документов: учебник / В.Е. Ляпичева, Н.Н. Шведова. - Волгоград: ВА МВД России, 2005 г.
3. ГОСТ Р 51511-2001. Государственный стандарт Российской Федерации. Печати с воспроизведением Государственного герба Российской Федерации. Форма, размеры и технические требования (утв. Постановлением Госстандарта России от 25.12.2001 N 573-ст) (ред. от 04.03.2004)  
<https://legalacts.ru/doc/gost-r-51511-2001-gosudarstvennyi-standart-rossiiskoi-federatsii/>
4. СТ РК 1430-2005 «Печати с воспроизведением государственного герба Республики Казахстан. Технические требования» [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=30193269HYPERLINK%20%22https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=30193269&pos=1;-16%22%20%22https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=30193269&pos=1;-16#pos=1;-16](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30193269HYPERLINK%20%22https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30193269&pos=1;-16%22%20%22https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30193269&pos=1;-16#pos=1;-16)

# IJTIMOIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISHDA OILA INSTITUTINING O‘RNI

**ABDURASULOV**  
*O‘ktam,*

*Huquqni muhofaza qilish  
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

## ANNOTATSIYA

Fuqarolik jamiyatni institutlari tizimida oila bиринчи va birlamchi bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘лади. Biz qurayotgan adolatli fuqarolik jamiyatida oila o‘ziga xos ijtimoiy birlashmani tashkil etadi. Maqolada mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash va jamiyatda kechayotgan islohotlarda uning o‘rni va ahamiyati oshirilib kelinayotganligi yoritilgan. Bundan tashqari, bugungi kunda oilalarda uchrayotgan muammolar va ularning yechimlari yuzasidan takliflar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** oila, nikoh, oila instituti, Oila kodeksi.

## АННОТАЦИЯ

В системе институтов гражданского общества семья выступает как первое и первичное звено. В строящемся нами справедливом гражданском обществе семья является уникальной социальной ячейкой. В статье прозвучали мысли об укреплении института семьи в нашей стране и повышении ее роли и значения в проводимых в обществе реформах. Кроме того, вносятся предложения относительно проблем, с которыми сегодня сталкиваются семьи, и способов их решения.

**Ключевые слова:** семья, брак, институт семьи, Семейный кодекс.

## ANNOTATION

In the system of civil society institutions, the family acts as the first and primary link. In the just civil society we are building, the family is a unique social unit. The article expressed thoughts about strengthening the institution of the family in our country and increasing its role and importance in the reforms being carried out in society. In addition, suggestions are made regarding the problems that families face today and how to solve them.

**Key words:** family, marriage, family institution, Family Code.

tuyg'ular va talablarga asoslangan munosabatlar nazarda tutiladi.

Demak, oila a'zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, o'zaro iqtisodiy-mulkiy, huquqiy, axloqiy, ruhiy tomondan bog'lanadi. Oilaviy munosabatlar, ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlariga nisbatan mustaqil hodisa bo'lib, oilaning ichki ishlariga hech kim huda-behuda aralashishga haqli emas. Shu bois ham oila muqaddas va daxlsiz hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, oila – bu o'ziga xos kichik bir muxtor davlatdir.

Oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va ma'naviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boraveradi. Oilaviy munosabatlar jonli, o'zgaruvchan jarayondir. Shunga ko'ra har bir jamiyat o'ziga xos va o'ziga mos oila turini tanlaydi va uni shakllantiradi. Oilaning vazifasi esa, birinchi navbatda o'z nasl-nasabini davom ettirish, farzandlarni tarbiyalash, oila a'zolarining tirikchilagini, bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazishini ta'minlashdan iboratdir.

Jamiyat mustahkam, ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lom oiladan g'oyatda manfaatdor. Shu bois jamiyat oila mustahkamlash, ijtimoiy vazifalarni bajarishda, bolalarni tarbiyalashda oilaga ko'maklashish, bolali oilalarning hamda kelin-kuyovlarning moddiy, uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash choralarini hal etishi lozim bo'ladi.

Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur"<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tgan.

Oila hayot davomiyligini ta'minlab kelayotgan manbadir. Oilasiz jamiyatni tasuvvur etib bo'lmaydi. O'zbek oilasi o'zining bolajonligi, er-xotin va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning samimiyligi, or-nomusning kuchliligi, yoshlarga hurmat, keksalarga izzat kabi fazilatlari bilan alohida ajralib turadi.

Ammo ming afsuslar bo'lsinki, keyingi

Har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim omili, uning bosh bo'g'ini – oilani mustahkamlash, oila a'zolarini ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lomlashtirish, ularning o'zaro munosabatlardagi huquqiy holatni barqarorlashtirish va takomillashtirib borishdir. Hozirgi kunda Respublikamizda mavjud barcha oilalar davlat himoyasiga olingan. Shuningdek, mehnatga, fuqarolarga, xo'jalik va moliyaviy ishlarga doir qonunlarda ham mazkur qoidalarga yanada aniqlik kiritilgan, ayniqsa oilani huquqiy himoyalashga katta e'tibor berilgan.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining barpo etilishi jarayonida oilaviy munosabatlarning huquqiy holatini tahlil qilish, oila a'zolarining huquq va burchlarini belgilash, ular o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquqiy me'yorlar tizimini aniqlash va bu haqda fikr yuritish muhim ahamiyatga egadir.

Oila – bu er va xotinning o'zaro ittifoqidan paydo bo'lgan ijtimoiy birlik bo'lib, mana shu ijtimoiy birlikning asosini tashkil qiluvchi er va xotin, ularning farzandlari, eng yaqin tug'ishganlardan iborat kishilar guruhi oila a'zolarini tashkil qiladi.

Har qanday oila mazkur oilaga mansub bo'lgan odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birligi hisoblanadi. Tabiiy munosabat deyilganda er-xotinlik munosabatlari, farzand ko'rish, iqtisodiy munosabat deyilganda – mulkiy munosabatlar, ya'ni uy-ro'zg'or, hovli-joy va boshqalar; huquqiy munosabat deyilganda – nikohni davlat yo'li bilan qonuniy qayd etish, nikoh rasmiy tus olganda, er xotin oldida, xotin er oldida, ularning ikkalasi farzandlarining oldida, farzandlarining ota-onalari oldida mas'uliyatli va burchli munosabatlari; ma'naviy munosabat deyilganda – er-xotin, ota-oni va bolalar o'rtasidagi mehr-muhabbat, mehr-oqibat, odob-axloq, ta'lum-tarbiya kabi insoniy

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2017-yil 14-yanvar.

paytlarda G'arbning ba'zijamiyatlarida "hurriyat", "shaxs erkinligi" degan soxta shiorlarni ro'kach qilib olgan ayrim buzg'unchilar "Oilaning keragi yo'q, nikoh shart emas, u insonning erkini cheklab qo'yadi" degan da'voni ko'tarib chiqishdi.

Yana ming afsuslar bo'lsinkim, bu safsataga ishonadiganlar ham chiqli va ko'payib bormoqda. Oxir oqibat hozirga kelib ko'plab muammolar kelib chiqli: insonning sof tabiatiga zid bo'lgan ushbu o'zaro ehtirom, mehr-muruvvatga putur yetdi. Erkak va ayollar o'z oilasida tinch-totuv yashashning o'rniga harom-xarish kayf-u safoga berildilar. Nasl-nasab haqida qayg'urish ular uchun yot narsaga aylandi. Farzand orttirish, bola tarbiya qilish ularga yoqmay qoldi.

Islom shariati yengillik ustiga bino qilingandir. Bu haqda ko'plab oyat va hadislari bor. Xususan, erkak va ayol, oila, nikoh masalasiga kelsak, bu masalalarda ham Olloho taolo o'z bandalariga yengillikni istagan va ularga oila qurib, halol-pok yashashni amr qilgan.

Huquqshunos olim Sh.Shoraxmetovning fikricha, "shariat va amaldagi nikoh tuzishga nasl-nasab shajarasining kiritilishi va bu boradagi asosiy talab oilani mustahkamlash va surriyotlarning sog'lom, baquvvat bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir"<sup>2</sup>.

Dunyo tarixini kuzatadigan bo'lsak, oila masalasiga yengil qaragan, shahvatga berilgan xalqlar, davlatlar va madaniyatlar albatta inqirozga uchraganligining guvohi bo'lamiz. Qadimiy buyuk imperiyalarning sharmandalarcha qulashining asosiy omillaridan biri ham shu bo'lgan.

XXI asr o'zining aqlbovar qilmas taraqqiyoti bilan insonlarga beqiyos qulayliklar taqdim etishi barobarida turli muammolar tug'dirayotgani ham bor gap. Bu hol turli ko'rinishdagi axborot xurujlarida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, "ommaviy madaniyat" degan balo qadimiy xalqlarning ming yillik oilaviy an'ana va qadriyatlariga jiddiy xavf solayotganligini inkor etib bo'lmaydi. Go'yoki inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish shiori ostida G'arb qo'llagan chora-tadbirlar birinchi navbatda jamiyatning ajralmas bo'lagi bo'lmish oilani jar yoqasiga keltirib qo'ydi. Birgina "fuqarolik nikohi" degan tushunchaning amaliyotga keng

<sup>2</sup> Yuridik fanlar Axborotnomasi. – Toshkent: TDYU, 2017. – B. 35.

joriy etilishi oila, er-xotinlik munosabatlari, farzand tarbiyasi borasidagi mas'uliyatni ikkinchi darajaga tushirib qo'ydi. Bunday nikoh zamirida, asosan, er-xotinning mulkiy va maishiy manfaatlari muhofazasi yotishi sir emas.

Bugun nima deysizki, er-xotinlikni shunchaki ko'ngilxushlik yoki ma'lum vaqt birga yashash deb bilgan "donolar" o'z oilaviy tutumlarini turli vositalar, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ'ib etishayotir. Milliy va diniy qadriyatlarimizga mutlaqo teskari bo'lgan bunday "an'analar" bizni yanada hushyor torttirmog'i, bunaqa xurujlarga qarshi kerakli chora-tadbirlar qo'llash masalasini ko'ndalang qo'yadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarning jamiyatdagi mavqeyini oshirish, oilani mustahkamlash va turli imtiyozlar berish borasida bir qator muhim qonunlar va boshqa hujjatlar qabul qilinganligi bejiz emas.

Xususan, "O'zbekiston Respublikasining yangi qabul qilingan Konstitutsiyasining XIV bobi oila, bolalar va yoshlarga bag'ishlangan.

Konstitutsiyaning 76-moddasida:

- oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir;
- nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligidagi va teng huquqliliga asolanishi;
- davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi"<sup>3</sup> belgilangan.

Bugungi kunda davlatimizda kuchli ijtimoiy himoya siyosati olib borilmoqdaki, uning zamirida inson taqdiri, kelajak avlod, oila O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan tashqari, Oila kodeksida, Fuqarolik kodekslari va boshqa qonun hujjatlari bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qaror va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida o'z ifodasini topgan.

Afsus bilan ta'kidlash lozimki, keyingi vaqtarda yosh oilalarda nafaqat birinchi farzandiga, balki oilada tug'ilayotgan ikkinchi yoki uchunchi farzandga ham otalik belgilanmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri,

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

qayd etilganidek qonuniy nikohdan o'tmaslik hisoblanadi.

2023-yilning 1-yarmi davomida FHDY organlari tomonidan Respublika bo'yicha 98603 ta nikoh qayd etilgan.

Davlat xizmatlari yangiliklari xabariga ko'ra, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishirilganda 10517 taga ("kun.uz"ning 10.07.2023-yil kungi ma'lumoti) kamaygan.

Lekin nima sababdan oila qurmoqchi bo'lganlar qonuniy nikohdan o'tishni xohlamaaptilar yoki bu ular uchun muammo bo'lyaptimi, degan savol tug'iladi.

Har bir oila qurayotgan shaxs o'zi uchun baxtli bo'lishni, farzand ko'rishni va uni yaxshi inson qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi va bu maqsad sari intiladi. Afsuski, keyingi vaqtarda ko'pchilik oilalarda oila qurmoqchi bo'lgan yoshlar qonuniy nikohdan hozir o'tishmagan bo'lishsa ham keyin o'tib olishar deb, elga to'y qilib, e'lon qilish bilan cheklanib qolishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 13-moddasi mazmunidan kelib chiqsak, faqat FHDY organlarida tuzilgan nikohgina qonuniy hisoblanadi va u er-xotin, bolalar uchun huquq va burchlar keltirib chiqaradi. Er-xotinning qonuniy munosabati nikohni qayd etish organlarida nikoh qayd etilganidan keyin vujudga kelib, nikoh qayd etilganligi to'g'risidagi guvohnoma oilada har ikki shaxsga qonuniy otalik va onalik majburiyatini yuklaydi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh esa huquqiy ahamiyatga ega bo'lmaydi. Bu shuni anglatadiki, bunday shaklda oila qurgan ayol mol-mulkka, nafaqa olishga va shu kabilarga faqat sud orqali da'vo qilish huquqiga ega bo'ladi.

Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, jamiyatdagi yetakchi doiralarning yosh avlodni oilali qilish borasidagi burchlari ularni nikohlab qo'yish bilan cheklanmaydi. Balki, kelinlik va kuyovlikka nomzod yoshlarga nikoh, oila, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, oila tutish sirlari, er-xotinlik munosabatlari kabi narsalarni o'rgatish ham zarur deb hisoblaymiz. Bu borada ham qilinishi lozim bo'lgan ishlарimiz anchagini.

Hozirgi kuzatishlar natijasiga qaraganda, ko'pchilik ota-onalar farzandlarini oilali qilish maqsadida mol-dunyo va sep yig'adilar, sovchilik, qudashilik bordi-keldilarini qiladilar va kattaroq to'y qilish bilan o'z burchlarini

ado etgan bo'lib, erkin nafas oladilar. Ammo eng muhim masalalardan biri bo'lgan narsa – qizlarini kelinlikka, o'g'llarini kuyovlikka tayyorlash eslaridan chiqib qoladi. Ming afsuski, ko'pchilik yoshlar go'shangaga oila, er-xotinlik hayoti, ularning o'zaro munosabatlari, haq-huquqlari hamda burch va mas'uliyatlari haqidagi qonunlarimiz va dinimiz ta'limotlaridan bexabar holda kira'dilar.

Odatda, to'y vaqt va oilaviy hayotning boshlanishida kelin-kuyovning yaqinlari, kuyovjo'ralar, kelin yangalar ularga qanday qilib bo'lsa ham umr yo'ldoshini "gah desa qo'lga qo'nadigan qilib olish" haqida va boshqa bachkana narsalardan iborat bo'lgan maslahatlar beradilar.

Bunday maslahatlar ko'pincha maslahatgo'yning o'ta tor, tuban tajribalariga asoslangan bo'ladi.

Aslida, "Er oilada qanday bo'lishi kerak?" degan savolga mazkur maslahatlar hech qachon javob bera olmaydi. Aksincha, ular oilada aloqalarning keskinlashuviga sabab bo'ladi, xolos.

Fikrimizcha, nikohsiz qurilgan oila poydevori yo'q binoga o'xshaydi, ya'ni mo'rt bo'ladi, kuchliroq tabiiy ta'sirlardan buzilishi turgan gap. Otalikni belgilash masalasida FHDY yoki sudga murojaat qilgan onalarning ko'pchiligi o'z arizalarida "shar'iy nikohlangan"liklarini ko'rsatib o'tishadi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan otalikni belgilash masalasida taraflar o'rtasida kelib chiqqan nizolarni hal etishda bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi mutaxassislarining o'rni alohida e'tiborga sazovordir.

Bugungi kunda, yolg'iz onalar soni ko'payishining asosiy sabablari bo'lib FHDY organida nikohdan o'tmasdan turmush qurish, erner boshqa davlatlarga ishga ketish holatlarining ko'payib borayotganligi, oilada farzand tug'ilgan vaqtida otaning bo'imasligi, shuningdek, otalikni belgilash ishonchnoma orqali amalga oshiriladigan harakatlar doirasiga kirmasligi hisoblanadi.

Ota tomonidan notarial tasdiqlangan ariza yuborilgunga qadar tug'ilganlik to'g'risidagi dalolatnomasi yozuvida bunday ayol yolg'iz ona

deb qayd qilinadi. Amaliyotda FHDY organiga tug‘ilganlik guvohnomasini olish uchun farzand ko‘rgan ayolning qaynona yoki qaynotalari murojaat etishib, o‘g‘illari boshqa hududga ishga ketganliklarini ro‘kach qilib, FHDY organi tomonidan ular qonuniy nikohda bo‘lmaganliklari sababli nabiralarining tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasida u yolg‘iz onadan tug‘ilgan deb yozilishi haqida ularga bat afsil tushuntirilishiga qaramasdan befarq munosabatda bo‘lishmoqda.

Mana shunday holatlarning oldini olish uchun diniy idora xodimlari, ya’ni imomxatiblar shar’iy nikoh o‘qilishidan oldin nikohlanuvchilar FHDY organida qonuniy nikohdan o‘tgan-o‘tmaganliklaridan xabardor bo‘lishlari, tomonlardan nikoh guvohnomalarini talab qilishlari, bundan tashqari mahalla ahli yoki raislari tomonidan ham mahallalarda

to‘y bo‘layotganligini bilganlaridan keyin oila qurayotganlarga yoki ularning ota-onalariga yoshlarning albatta qonuniy nikohdan o‘tishlari uchun FHDY organlariga ariza bilan murojaat qilishlari, tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari lozimligi haqida tushuntirish ishlari olib borishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur yo‘nalishda bizning taklifimiz:

Birinchi navbatda nikohga kirayotgan bo‘lajak kelin-kuyovlar uchun bepul maxsus o‘quv kurslari tashkil etish zarur. Ushbu o‘quv kurslarida huquqshunos, psixolog, tegishli mutaxassislikga ega bo‘lgan vrachlar, imomxatiblar, katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan nuroniyalar va boshqalar tomonidan yoshlarga ma’ruzalar qilib, maslahatlar berib borilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. <https://lex.uz/docs/104720>
3. Yuridik fanlar Axborotnomasi. – Toshkent: TDYuU, 2017.
4. Kun uz ma’lumotnomasi 10.07.2023-yil.

**O'ZBEK  
AYOLLARIDAN  
BIRINCHI  
AKADEMIK XADICHA  
SULAYMONOVANING  
HAYOTI, FAOLIYATI  
VA ILMUY MEROSI"  
MAVZUSIDA RESPULIKA  
ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI**

2023-yilning 26-iyun kuni X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazida akademik Xadicha Sulaymonova tavalludining 110 yilligiga bag'ishlangan "O'zbek ayollaridan birinchi akademik Xadicha Sulaymonovaning hayoti, faoliyati va ilmiy merosi" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkil etildi.



Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat vahyuq qo'shimcha instituti, O'zbekiston sudyalar assotsiatsiyasi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi M.Vosiqova nomidagi akademik litsey va OAV vakillari ishtirok etishdi.

Tadbir boshida markaz direktori A.Xalilovning Markazda olib borilayotgan islohotlar va sud ekspertlik sohasidagi normativ huquqiy hujjatlar haqidagi ma'ruzasi tinglandi. Ma'ruzalar davomida buyuk o'zbek olimasi, birinchi o'zbek



ayol akademigi Xadicha Sulaymonova tavalludining 110 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan ushbu konferensiya katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi, sababi, Xadicha Sulaymonova o'z davrining buyuk jamoat arboblaridan bo'lib, u kishining bosib o'tgan umr yo'li, ish faoliyati va ilmiy merosini o'zini yurist deb bilgan har bir kishi bilishi, o'qib o'rghanishi lozimligi ta'kidlandi.



Shuningdek, Xadicha Sulaymonova tavalludining 110 yilligini nishonlashga oid hukumatimizning 2023-yil 18-apreldagi 204-F-sonli alohida farmoyishi qabul qilinganligi ham beziz emasligi aytib o'tildi.

O'zbek huquqshunosligida yorqin iz qoldirgan Xadicha Sulaymonova 1913-yil 3-iyulda Andijon shahrida tug'ilgan. Uning oilasi farzandining savod chiqarishiga katta e'tibor qaratishadi va to'qqiz yillik maktabga berishadi. Xadicha Sulaymonova 1931-yili to'qqiz yillik maktabni tamomladi. O'sha paytdagi xalqning og'ir turmushi, haqsizlik Xadicha Sulaymonovaning qalbida adolat tantanasi uchun



kurash havasini uyg‘otdi va u o‘z maqsadi sari turli to‘siqlarga qaramay intilib yashadi. Yosh Xadicha huquq ilmiy-tadqiqot institutining tayyorlov kursida, Toshkentda tashkil etilgan Jahon Obidova nomidagi huquq instituti va Moskva yuridik institutining aspiranturasida tahsil oldi.

Xadicha Sulaymonova 22 yoshida Oliy sud a’zosi, 32 yoshida fan nomzodi, 39 yoshida fan doktori, 43 yoshga to‘lib-to‘lmay akademik rutbasiga erishadi va huquqshunoslik sohasida ilmiy daraja olishga sazovor bo‘lgan birinchi o‘zbek ayoli bo‘ladi.

Tadbir davomida, shuningdek, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti direktori M.Turg‘unov, O‘zbekiston sudyalar assotsiatsiyasi raisi U.Mingboyev, O‘zFA Davlat va huquq instituti bo‘lim boshlig‘i J.Toshqulovlarning Xadicha Sulaymonova hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ma’ruzalari tinglandi.

Konferensiyada akademik X.Sulaymonovaning hayot yo‘liga ayrim chizgilar, mehnat faoliyati, ilmiy merosi, uch avlod uchrashuvi: talabalikdan – akademiklikka qadar kabi mavzularda ma’ruzalar muhokama qilindi.

